

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

ERGASHEV ASLBEK HAMZA O‘G‘LI

**O‘ZBEK VA RUS ADABIYOTINING
QISSALARIDA BADIY TIL**

Monografiya

**ZEBO PRINTS
Toshkent – 2026**

UDK

KBK

Ergashev A.H. O'zbek va rus adabiyotining qissalarida badiiy til. Monografiya. -T.: "ZEBO PRINTS", 2026. 116 b.

Ushbu monografiya zamonaviy o'zbek va rus qissachiligida ayol obrazining poetik talqini va qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Tadqiqotda qissa janrining tarixiy ildizlari, nazariy asoslari, poetik konstruksiyasi hamda janr ichidagi shakliy va mazmuniy o'zgarishlar o'rganiladi.

Asosiy e'tibor quyidagi jihatlariga qaratiladi:

Qissa janrining ilk diniy-ma'rifiy manbalardan boshlab zamonaviy shakllargacha bo'lgan taraqqiyoti;

Qissalarda ayol obrazining turli davrlardagi (XX asr boshi, urushdan keyingi davr, istiqlol yillari) talqini;

Badiiy psixologizm, syujet, kompozitsiya va xronotopning inson obrazini yaratishdagi roli;

O'zbek va rus qissalarida obraz yaratish uslublarining qiyosiy o'rganilishi;

Modernizm va postmodernizm sharoitida janr tabiatidagi yangilanishlar.

JAVOBGAR MUHARRIR:

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) Ergashev A. H.

RETSENZENTLAR:

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent Mo'ydinov Q.V. (O'zbekiston, Chirchiq davlat pedagogika universiteti)

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dotsent Suleymanova S.A. (O'zbekiston, Alfraganus university)

ISBN

© Ergashev A.H., 2026

© "Zebo prints", 2026

KIRISH

Monografiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida qissa janri poetikasi, uning ilk adabiy tur va janrlar diffuziyasida yangilanishlari sintezi borasida qator salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jahon adabiyotining nodir durdonalari qissa janri badiiy takomilida ko'zga tashlanayotgan sifat o'zgarishlari joriy adabiyotshunoslikda xilma-xil aspektda o'rganilmoqda. Ayniqsa, janr tabiatidagi shakliy, mazmuniy, uslubiy tovlanishlar ijodkor badiiy mahoratining o'ziga xos xalqasi ekanligini e'tirof etish lozim. Biz global dunyoda matn hissiy tovlanishlarini ehtiyoj zarurati o'laroq tanlab olish imkoniga egaligimizni hisobga olsak, muammo mohiyati o'z-o'zidan ravshanlashadi. Shuni qayd etish joziki, qissa o'rta epik turga mansubligi, undagi qahramonlarning ruhiy olami va sarzanishlari ham turlicha bo'lishini unutmagan holda, bugungi o'zgarayotgan dunyoda badiiy so'z (janr)ga bo'lgan munosabat ham xilma-xil va noodatiydir. Ana shular takomilida mazkur muammo Yangi O'zbekiston adabiyotshunosligining nazariy-ilmiy masalalaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

Dunyo adabiyottanuvida qissa janrining yangicha nazariy asoslari oldingi qoliplarni o'zgartirishga olib keldi. Xususan, noorganik qissalar bilan organik qissalar jahon va o'zbek yozuvchilarida salmoqli o'rin egallab ulgurdi. Mana shu jihatlarga amal qiladigan bo'lsak, qissalardagi turli xil tasvir usullari, tekshirish metodologiyasini ham tubdan o'zgarishga olib kelmoqda. Qissadagi inson obraziga har bir yozuvchi o'zining uslubiy tutumlaridan turib yondashishini hisobga olish zarurligi muhim. Chunki qissa tabiatida maishiylikdan umuminsoniylikka, modernizmdan postmodrenizmga o'tish chiziqlari hamon saqlanib, o'zining sistembutunligida ilgarilab borayotgani bor gap. Olam ichida kichkina bir olam shaklida qissalar ham o'zining mantiqiy rivojlanishlarini keyingi o'n yilliklarda muhit bilan chambarchas bog'lay olganligi e'tiborga shoyondir. Mana shu jihatdan olib qaraydigan bo'lsak, qissada poetologik konstruksiya xuddi iqlim

o'zgarishlari kabi inson ruhiyatida kechayotgan ekologik ruhiy-falsafiy kechinmalar fonida namoyon qilinmoqda. Haqli savollar tug'ilishi tabiiy bo'lgan obyektiv munosabat talqin xilma-xilligini idroklashga yo'l ochishi tabiiydir.

Istiqlol yillarida yaratilgan qator rang-barang mavzulardagi qissalarda o'zbek adabiyoti tarixidagi qariyb ming yillik epik vaqt ko'lamini qabarib ko'rinadi. Chunonchi qissaning so'nggi bir asrlik tajriba maydonida ayol obrazining urush va urushdan keyingi davr maishiy turmushi kayfiyatchi, undan keyin yaqin yillardagi modernistik va postmodernistik yo'nalishlardagi asarlarda noan'anaviy tasvir yo'sinlari yorqin bo'yoqlarda namoyon qilindi. Zero, "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor – bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q [Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori // Xalq so'zi. – Toshkent, 2017. – 4 avgust.]. Darhaqiqat, o'zbek qissachiligida ayol obrazini gavdalantirish borasida o'tgan asr boshlaridan to shu kunga qadar qator saviyador, poetik qiymati rang-barang asarlar yaratildi. Ayniqsa, A.Qahhor, O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, M.M.Do'st, T.Murod, N.Eshonqul, U.Hamdami, I.Sulton, A.Yo'ldoshev, S.Vafo, Sh.Hamro kabi yozuvchilar asarlari adabiy ta'sir va qiyosiy o'sish-o'zgarishlar negizida namoyon bo'lib, bugungi ijodiy jarayonni baquvvat yaratishlari ekanligini isbotlaydi. Poetik talqin va uslubiy modifikatsiyani har tomonlama qiyosiy o'rganish qissa janri qonuniyatlarining o'ziga xos turfaligini va muammoning dolzarbligini asoslaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi PF4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2019 yil 21 oktyabrdagi PF5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi

Farmonlari, 2017 yil 13 sentyabrdagi PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 fevraldagi 124-F-son “O‘zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o‘rganish va targ‘ib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiyani o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon adabiyotshunosligida qissaning poetik qiymatiga oid qator tadqiqotlar yachratilgan. Yunon olimi Aristotelning “Poetika” asari muammoning ilk ildizlariga katta manba bo‘lib xizmat qilishi tayin. Rus adabiyotshunosligida A.A.Potebnya, D.N.Ovtsyanko-Kulikovskiy, A.G.Grofed, L.S.Vigotskiy, M.M.Baxtinlarning psixoanalitik; V.Shklovskiy, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, Yu.N.Tinyanov, B.V.Tomashevskiy, G.O.Vinokur, Klod Levi-Stross, L.S.Vыigotskiy, R.Bart, Yu.Lotman, D.S.Lixachev, F.Shleyermexer, V.Diltey, M.Xaydegger, G.G.Gadamer monografik plandagi ilmiy izlanishlari masalaning ba’zi qirralarini to‘ldirishga xizmat qilishi mumkin.[Istoriya russkogo literaturavedeniya. – Moskva: 1980; Sakulin P.A. Filologiya i kulturologiya. – Moskva: 1990; Borev Yu. Iskusstvo interpretatsii i otsenki. – Moskva: 1981; Sent-Byov Sh. Literaturnye portreti. Kriticheskiye ocherki. – Moskva: 1970; Bart R. Izbrannyye raboty. Semiotika. Poetika. – Moskva: 1981; Yego je: Vvedeniye v strukturalnyy analiz povestovatelnykh tekstov // Zarubejnaya estetika i teoriya literatury XIX – XX vv. – Moskva: 1987; Lotman Yu.M. Analiz poeticheskogo teksta. – Leningrad: 1972; Gadamer G.G. Aktualnost prekrasnogo. – Moskva: 1991.] Ushbu munaqqid-olimlarning ilmiy-nazariy o‘rganishlarida qissachilikda badiiy

psixologizm va ijodkor shaxsi haqida, mahorati va uslubi ayol obrazini qanday tadqiq qilganligi haqida ayrim asarlar jalb qilingani tahsinga loyiqdir. Ingliz va turk, rus yozuvchilarining ayrim asarlarini o'rganganligida namoyon bo'ladi.

O'zbek adabiyotshunos olimlari, tadqiqotchilaridan M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, U.Normatov, Y.Solijonov, A.Rasulov, B.Nazarov, H.Umurov, D.To'rayev, M.Xolbekov, Q.Yo'ldoshev, D.Quronov, U.Jo'raqulov, I.Yoqubov, B.Karimov, V.Alimasov, Sh.Doniyorova, M.Boboxonov, U.Rasulova[3 Sultonov I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1986; Sultonov I. Navoiyning qalb daftari. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010; Qo'shjonov M. Ijod mas'uliyati, – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1981; Qo'shjonov M. Mohiyat va badiiyat. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1977; Sharafiddinov O. Ijodni anglash baxti. – Toshkent: Sharq, 2004; Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Sharq, 2004; Nazarov B. Hayotiylik – bezavol mezon. – Toshkent: Fan, 2008; Solijonov Y. XX asrning 80-90-yillari o'zbek nasrida badiiy nutq poetikasi. Filol. fan. dok... diss. – Toshkent, 2002; Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2009; Rahimov A. Roman san'ati. – Farg'ona: Farg'ona nashriyoti, 2015; Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002; Rahimjonov N. Badiiyat – bosh mezon. – Toshkent: Akademnashr, 2016; Rahimjonov N. Adib estetikasi. – Toshkent: Fan, 2017; Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti, 2004; Quronov D. Cho'lpon hayoti va ijodiy merosi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997; Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi. – Toshkent: Akademnashr, 2018; Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. – Toshkent: O'zMU kutubxonasi nashriyoti, 2008; Karimov B. Adabiyotshunoslik metodologiyasi. – Toshkent: Muxarrir, 2011; Karimov B. Abdulla Qodiriy: tanqid, tahlil va talqin. – Toshkent: Fan, 2016.; Doniyorova

Sh. Omon Muxtor ijodida yangicha talqinlar. –T.: “Turon zamin ziyo”. 2017. –B.112.; Rasulova U. XX asr o‘zbek qissachiligi(poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari). Filol.fan.dok.diss. –T.: 2020. – B.249.; Boboxonov M. O‘zbek qissachiligida badiiy psixologizm. –T.: “Bayoz”. 2014. –B.132.]3lar izlanishlarida qissa janrining u yoki bu jihatlari haqida so‘z yuritiladi. Ammo zamonaviy o‘zbek qissachiligida ayol obrazining qiyosiy tahlili, badiiy psixologizm va ijodkor fitrati muammosi alohida tadqiq qilinmagan.

Zamonaviy qissalarida o‘zbek va rus qissalari qiyosiy tadqiqi borasida qilingan alohida keng plandagi monografik tadqiqot yaratilgan emas. Shu maqsadda, ishning strukturasini ochib berishda uch ta muhim jihatni e‘tiborga olishni lozim topdik: 1) o‘tgan asrning boshlarida yaratilgan qissalarda obrazining namoyon bo‘lishi; 2) urushdan keyingi mehnatkash xalq ruhiyatida inson matonati va milliy an‘analar takomilining aks etishi; 3) istiqlol davridan to hozirgi davriga qadar yaratilgan qissalarda ruhiyatining inkishofi, yozuvchi kredosi va obrazlar sistemasini yagona estetik markazda uyushtirish malakasining shakllanishiga borib tutashuvida yaqqol seziladi.

Ijtimoiy hayotda odamlar mehnatkash qatlamining yoritilishida asosan – qishloq va shahar syujeti liniyalari bir-birini to‘ldiruvchi ahamiyat kasb etadi. Shuni qayd etish lozimki, inson muqaddas xilqat, uning orzulari, umidlari, oilaparvarligi, muhimi sabruqanoati, mehribonligi ko‘pchilik qissalarda syujetlar silsilasi o‘xshashligini anglashda qo‘l keladi. Ayol orzulari bilan yashashga mahkum obraz sifatida ham istiqlol kishisi ruhiyati ziddiyatlararo poetik matn tarkibini izohlaydi. Ayni shu jabhadan turib tasvirlash ko‘pchilik yozuvchilarga xos uslubiy matritsa ekanligi ayonlashadi.

Mana shu jihatlar biz o‘rganmoqchi bo‘lgan yangni o‘zbek qissachiligida ayol obrazi hodisaning qiyosiy tahlili orqali poetik talqinini aniqlashda asosiy tadqiq obyekti vazifasini bajaradi.

Tadqiqot maqsadi zamonaviy qissalarda o‘zbekva rus odamlari obrazining qiyosiy tahlilini yuzaga chiqaruvchi janr, syujet,

kompozitsiya, lirik kechinma, obraz va obrazlilikda xronotop va badiiy vaqt kategoriyasi, jumladan, ijtimoiy o'sish-o'zgarishlar mohiyatini sistembutunlikdagi o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari: qissa janri strukturasida badiiy uslub, yozuvchi uslubi, ruhiy-falsafiy tahlil negizida ayol obrazining ochib berilishini asolash;

badiiy talqin mohiyatida davr va undagi voqeliklarni paydo bo'lish omillari bir janr doirasida aks etish tamoyillarini sintezlash va idroklash yaxlitlik kasb etishini o'rganish;

qissalarda inson obrazining o'ziga xos qirralarini bir-birini to'ldiruvchi muhit suvratida millatning muqaddas tushunchasiga mantiqiy urg'u berish;

istiqlol davri qissalaridagi jahon va o'zbek yozuvchilari olib borgan badiiy izlanishlarda voqelikni yaratish fragmentlarining evrilishlar nuqtai nazaridan global dunyo sarhadlarining yaqinlashuvi (ruhiy-ijtimoiy iqlim)ni dalolatlash;

badiiy obraz o'zgaruvchan hodisa ekanligini davrlar silsilasida ro'y bergan ijtimoiy-madaniy munosabatlar tig'izlashuvi fonida baholash bilan birgalikda inson obrazining diniy-badiiy kitoblarda aks etishiga ham to'xtalib o'tishdan iboratligini ko'rsatish.

badiiy obrazning syujet va kompozitsiyada hal qiluvchi roli va ahamiyatini xronotop negizida asoslash;

Tadqiqotning obyekti sifatida Lev Tolstoyning, Fedor Dostoyevskiyning, Shukur Xolmirzavening, Tog'ay Murodning, Isajon Sulton, Luqmon Bo'rixonning qissalari jahon va rus qissalarining ba'zilar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek va rus qissachiligida badiiy til mushtarakligi, inson obrazining qiyosiy tahlilini aniqlashtirishda poetik matritsa, uslub va badiiy shakl yaxlitligi, psixologizmning syujet hamda kompozitsiyada namoyon bo'lish omillarini, shuningdek, xronotop tushunchasini hal etish qamraydi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

qissa janri tarixan yangi ifoda shaklu shamoyilida qisqa vaqtda rang-barang ko'rinishlarga ega bo'lsa-da, uning ilk ildizlari payg'ambarlar haqidagi qissalar, Qur'on oyatlarida aks etgan ma'rifiy-diniy qarashlarda namoyon bo'lganligini asoslandi;

qissada organik va noorganik tasvir priyomlari XX asrning 30-yillaridan boshlanganligi hamda undagi inson obrazining badiilik shartlari va qonuniyatlarida yangi tasvir ekzistensiyalarining yuzaga chiqishiga omillari dalolatlangan;

qissada obrazni yuzaga keltiruvchi syujet va kompozitsion birliklar sistemasida talqin qilingan qator omillar hamda undagi xarakter individualligini taminlashga xizmat qilgan rang-barang usul va qiyosiy mohiyatga tutashuvchi poetik qatlamlar isbotlangan;

o'zbek va rus qissalarida davrning og'riqlari hamda yozuvchilarga poetik xamirturush bergan jahon adiblarining boshqa-da asarlarida inson obraziga mantiqiy urg'u berilganligi o'rganilgan;

janr tabatidagi evrilishlarda badiiy psixologizm, badiiy kompozitsiya, badiiy xronotopning nechog'li o'rni va ahamiyati muhim ekanligi dalolatlanadi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qissa arxitektonikasida obrazning o'rni va ahamiyati janrning tarixiy ildizlaridan oziqlanishi, davrning muhim bo'g'ini sanalmish har qanday yozuvchiga ilhom ato qiluvchi masalalar asoslangan;

ikkinchi jahon urushidan keyingi davr yozuvchilari yaratgan insonlar obrazi maishiy turmushning bir uzvi sifatida qaralgani diqqat bilan o'rganilgan;

istiqlol davr ostonasida va yangi nasrning yuzaga kelishida kecha-bugun-ertaga uchligi miqyosida dalolatlangan;

o'zbek va rus qissalarida inson obrazi va uning ruhiy iqlimida ro'y berayotgan maishiy turmush oqovalarining ta'siri sezilarli darajada aks etgani qiyosan tahlil qilinib, badiiy matn transformatsiyasida hal etiluvchi muhim belgilar isbotlangan;

zamonaviy o'zbek va rus qissalarida badiiy tildan foydalanish

mahorati, obrazining yaratilishida milliy istiqlol ruhiyatining aks ettirilishida jahon xaritasida paydo bo'lgan milliy zamin iqtidorlarining uslubiy-shakliy izlanishlari asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mavzu tanlash va muammoning aniq qo'yilganligi, keltirilgan nazariy ma'lumotlarning mavjud ilmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlil kriteriylarining tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik, psixoanalitik, biografik, struktural-analiz tadqiq usullari negizida asoslanishi, xulosa va tavsiyalarining esa amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uning ilmiy xulosalaridan o'zbek va rus qissalarida inson obrazining qiyosiy va poetik talqinini aniqlashda obrazlarning davrlarga, davrlarning makon va zamonda aks etish prinsiplarini dalolatlashda, poetik syujet va kompozitsiya, uslub va shakl, badiiy xronotopning asar mohiyatidagi rolini belgilashda, jahon adabiyotshunosligida ro'y berayotgan o'sish-o'zgarishlarni chamalashda, falsafiy-estetik qamrov qirralarini tasniflashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi;

tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida yoshlarga adabiy-nazariy ma'lumotlar berishda, o'zbek va rus qissalarining janriy-kompozitsiyasini qiyosiy o'rganishda, shunga aloqador darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda, adabiyotga oid izohli lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Monografiyaning hajmi va tuzilishi. Monografiya kirish, ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan. Tadqiqotning hajmi 100 sahifani tashkil etadi.

BIRINCHI BOB:

QISSA JANRI HAQIDA VA UNING TARAQQIYOT TENDENSIYALARI

1.1. Qissada badiiy til va yozuvchi uslubi o'ziga xosligi

Ma'lumki, yozuvchi idroki, tasavvuri, o'y-xayollari, sezgilari va olamni, odamni tasvirlash modusida badiiy til muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy tilga yozuvchi qanchalik ma'no, mazmun, g'oya hamda mantiq yuklay olsa, o'z oldiga qo'ygan ijodiy g'oyaning parvozi ham, umrboqiyliigi ham shunchalik sarbaland bo'ladi. Chunki badiiy til – obrazlilik, xarakterni to'laqoni ochib berishdagi yozuvchi uslubining alohidaligini tayin etadi. Badiiy til hayot haqiqatini, reallikni, borliqni istifoda etishda juda katta o'rin tutadi. Qissa yoki roman, nasrning eng kichik janrlari haqida so'z borganda ana shu mezonga qattiq amal qilish muhim vazifalardan biridir. Qissa poetikasi, uning tili, olam va odam haqidagi tushunchalar yig'indisi uslubda birlashadi. Uslub qissani yoki romanni, til imkoniyatlarini haqiqatdan ham namoyon etish yo'sinlaridandir. Shu boisdan, har qanday badiiy asar tili nafaqat davr ruhini, balki uning insoniyat bosib kelayotgan silsilalar modusini ham o'zida aks ettirishga keng sharoit tug'diradi.

Avvalo, shuni qayd etish lozimki, badiiy til inson ruhiyati solnomasidir. Asrlar davomida tilning ijtimoiylik vazifasi har xil rangda jilvalandi. Masalan eng qadimgi yozma yodgorliklar tili va uslubi haqida so'z borganda, ana shu tarixiy taraqqiyotning ajralmas halqasi ekanligini tushunamiz. Davrlar o'zgardi, tilga, odamlar ruhiyatini tasvirlash borasidagi ifoda madaniyati ham tubdan yangilandi. Shuning barobarida, tildan maksimal daradada foydalanish, ularni ishtimoiy zarurat yuzasidan taraqqiy etishiga hissa qo'shish ko'p hollarda yozuvchilar zimmasida bo'ldi. Til qayta ishlanar ekan, o'qimishligi, maslaga qaysi nuqtadan turib yondashish muhimligi ayonlashadi. Ana shu tamoyil, insoniyat bosib o'tayotgan yo'l, konsepsiya zaruratini yuzaga chiqaradi.

Adabiyotshunoslik lug'atida: "Badiiy asar tili – badiiy adabiyot tili. Badiiy asar mazmunini ro'yobga chiqaruvchi, muallifning g'oyaviy-badiiy maqsadini kitobxonga yetkazuvchi birdan-bir vosita. U badiiy til, poetik til xam deb yuritiladi. Badiiy asar tili adabiy til bilan chambarchas bog'langan, umumxalq tiliga asoslangan, jonli va adabiy til boyliklarini o'zida aks ettirgan, xammaga tushunarli ifodalarni qamrab olgan, mumtoz adabiyot tili an'analarini davom ettirgan, yozuvchilar tomonidan sayqallangan, jilolangan til xisoblanadi. Shu ma'noda badiiy adabiyot tili faqat yozuvchi va kitobxon orasida aloqa vositasi bo'lib qolmasdan, ma'naviy-estetik, emotsional ta'sir qilish quroli vazifasini xam o'taydi"¹. Haqiqatdan ham, adabiyot ilmida tilga berilgan ta'rifu-tavsiflar nihoyatda ko'p. Chunki bunday ta'riflarda maqsad yozuvchi hayotni qanday qabul qiladi, uni qaysi yo'sinda yuzaga chiqaradi, hayotdagi orzu-umidlarini, g'oyasini, tasavvur olamini qay tariqa, o'ziga xos tarzda ifodalay oldi, ularning barchasi til bilan bog'liq holda kechishini unutmaslik lozim.

Ikki jildlik "Adabiyot nazariyasi" darsligida "Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g'ishtdan, oynadan, po'latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po'lat va g'ishtning ham o'rniga badiiy so'z ishlatiladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi – uning ohanglar, chiziqlar, bo'yoqlar vositasi bilan emas, so'zlar vositasi bilan yaratilishida ko'rinadi. Demak, badiiy til – har qanday adabiy asarning spetsifikasini belgilaydigan eng asosiy ko'rsatkislardan biri hisoblanadi. Badiiy til nazariyasi esa adabiyot nazariyasiga oid masalalarning birinchi qatorida turadi"². Binobarin, keltirilgan iqtibosga shuni qo'shimcha qilish mumkinki, badiiy tilning ijtimoiyligi, obrazliligi, yozuvchi ijodiy tafakkurida rosa pishib yetilgan zalvori, tabiiyligi, ta'sirdorligi bilan alohida ahamiyatga

¹ <https://e-adabiyot.uz/maqola/502>

² Adabiyot nazariyasi. 2-jildlik. 1-jild. –T: "Fan". 1978. –B.316.

egadir. Shuning barobarida, badiiy til millat ruhini, tarixini, kelib chiqishni, taraqqiyot yo'sinini belgilashga ham xizmat qiladi.

Qissa badiiyatida til va uslubning roli. Asrlar davomida og'zaki adabiyotdan bino bo'lgan yozma adabiyot sarchashmalari nasriy asarlarning janriy taraqqiyotini belgilashda ham muhim o'rin egallaydi. Chunki qissago'ylar doston aytuvchi, baxshilar, qibal oqinlari, kayvonilar bilan hamisha jozibadorlik kasb etgan. Qadim-qadim zamonlardan buyonoq, o'zbek halqi san'at va madaniyatga katta e'tibor qaratishgan. Islmo dini kirib kelgunga qadar O'rta Osiyo aholisi o'zlarining azim zardushtiylik dini, muqaddas kitobi "Avesto"dagi ezgulik va yovuzlik orasidagi mangu kurashni ifodalash borasida ham jonbozlik ko'rsatganlar. Ilm va tafakkur qilish, yaxshi hayot kechirish ikki daryo oralig'ida yashovchi tub aholining asosiy quroli bo'lgan. Folklor adabiyotdan ko'chib o'tgan badiiy nasr, adabiyot, undagi obrazlar qissago'ylar tomonidan o'ziga xos tarzda istifoda etilgan. Til ana shunday o'tkir qurolki, uni asrlar osha ajdodlarimiz katta maqsadlar bilan taraqqiy etishiga o'z hissalarini qo'shib kelganlar.

Ma'lumki, O'zbekiston xalq yozuvchisi A.Muxtor shunday yozadi: "Yozuvchining aktiv pozitsiyasi – avvalo yuksak badiiy mahorat degan so'z. Hozirgi yozuvchi yuksak badiiy mahorat egasi bo'lsa, u uzoq o'tmish mavzuida yozganida ham zamona kitobxonining ichki dunyosiga ta'sir eta oladi, ya'ni o'zining aktiv pozitsiyasini namoyish eta oladi"³. Binobarin, A.Muxtor talqinida badiiy mahoratning rivjolanishi, yozuvchining hayotiy pozitsiyasi, adabiy ta'sir va ijodiy o'ziga xoslik bilan ham o'lchanadi.

"Har qanday ijtimoiy-tarixiy jarayon va shuningdek, narsa-hodisalarning yaratilish, dunyoga kelish, o'zgarish va rivojlanishiga asos bo'lgan sabab va turtkilar bo'lishi tabiiy bo'lganidek, adabiy jarayondagi yangilanishlar ham muayyan tarixiy, ijtimoiy, madaniy,

³ Asqad Muxtor. Yozuvchining hayotiy pozitsiyasi. –T: "G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti". 1981. –B.18.

siyosiy, ilmiy o'zgarishlar ta'sirida shakllanadi va taraqqiy etadi"⁴, – deya yozadi f.f.d. Sh.Davronova.

Adabiyotshunos Umida Rasulovaning “XX asr o'zbek qissalari tadriji” o'quv-uslubiy qo'llanmasida janr tabiati haqida quyidagi mulohazalarni ifodalaydi: “Mashhur siymolar haqida hol-hayot yozish yozma adabiyotda uzoq tarix, an'anaga ega. Bu o'rinda forsiy va turkiy “Shohnoma”lar, betakror “Xamsalar tarkibidagi shohlar, xonlar, oshiqalar, anbiyoyu valiyalar haqidagi qissalar yodga tushadi. Alisher Navoiyning “Holati Pahlavon Muhammad”, “Holati Hasan Ardasher”i ham o'ziga xos qissa. Ularda yurtni adolatli boshqarish, millat ravnaqi yo'lida fidoyilik qilish, ilmu ma'rifatni qadrlash masalalari o'z ifodasini topgan. Holatning badiylashgan ifodasi qissa bitish – XIX asr oxiriga kelib, ommaviy matbuot paydo bo'lgach, keng rivojlandi. Mumtoz adabiyotda kimningdir hol-hayoti adibu muarrix tomonidan bitilgan bo'lsa, keyinchalik elga tanilgan shaxs o'z hol-hayotini badiiy ifodalab, ko'pchilik hukmiga havola eta boshladi. Endi “qissaxon”lik “qissanavislik” bilan almasha boshlandi”⁵. Demak, olima Umida Rasulovaning mulohazalariga to'ldiruvchi sifatida shuni izohlash mumkin, qissa va uning janr talablari o'tgan asr boshlarida matbuotning ommaviyligi, shaxsning o'z hayoti, boshidan kechirganlari, bolaligi, orzu-umidlari asta-sekinlik bilan G'arb va rus adabiyoti vakillari ta'sirida yanada sayqallana boshladi.

Alloh taoloning “Qur'oni karim” kitobida 124 ming payg'ambarlar haqida eslatiladi. “Niso” surasida bu haqda to'xtalib o'tiladi. Qissa janri genezisi tarixi haqida so'z borganda janrning o'zi turli davrlarda har xil shakllarda hajman, mazmunan va g'oyaviylik jihatidan o'zgarib, takomillashib borganligi bo'yicha ma'lumotlar mavjud. “Har bir qissa markazida aniq bir “shaxs” hayot yo'li (syujeti) turishi barcha voqealar (syujet liniyalari), shu shaxs

⁴ Davronova Sh. Istiqlool davri o'zbek romanlarida sharq va g'arb an'alarining badiiy sintezi. Filol.fan.dok.diss.. –Samarqand. 2019. -B.28.

⁵ Rasulova U. XX asr o'zbek qissachiligi tadriji. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T: “FAN”. 2012. - B.8.

atrofida kechishi va bevosita unga kelib bog'lanishi: butun "qissa" yagona bir mazmun, jumla-konsepsiyaga qurilishi"⁶ни qayd etsa, "...ba'zi bir qissalar chindan ham o'z mazmuni va kompozitsion qurilishi jihatidan romandan uncha farq etmaydi, faqat ularning hajmi biroz kichikroq, xolos. Misol sifatida Abdulla Qahhorning "Sinchalak", Odil Yoqubovning "Larza" va Murod Muhammad Do'stning "Galatepaga qaytish" povest-romanlarini ko'rsatish mumkin. Tasvir ko'lamiga ko'ra ham bu qissalar roman janridagi asarlardan uncha farq qilmaydi. Lekin ularning badiiy qurilishidagi ba'zi badiiy alomatlari bularning povest janriga mansubligini belgilab turadi. Binobarin, roman va qissa janrlarining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilmay turib bunday asarlarning janrini aniq belgilash qiyin"⁷.

Mutarjim Muhiddin Rahim bu masalani shunday izohlaydi: "Har bir o'quvchi badiiy asarni o'z hayotiy va adabiy tajribasi asosida idrok etadi. Shu bois bir o'quvchining idroki boshqasinikiga aynan o'xshamaydi. Badiiy idrok bilan bog'liq bu turfalik, aslida, bizga ato etilgan ajoyib ne'mat. Shunga ko'ra, buyuk rus adibi Lev Tolstoyning "Iblis" qissasi tarjimasiga yozilgan ushbu so'zboshidan murod ham muhtaram jurnalxonning shunday muqaddas huquqiga daxl qilmoq emas, albatta. Biz atigi daho so'z san'atkori mazkur qissasini qanday yaratgani haqida ba'zi muhim ma'lumotlarni eslatib qo'ymoqchimiz, xolos. Zero, bu ma'lumotlar "Iblis" qissasini to'g'ri tushunish, to'g'ri talqin etishda har bir o'quvchiga asqotishi shak-shubhasizdir.

Qissanavisning bu ifodalarida asar muallifining ijodiy, balki olam va o'zi haqidagi konsepsiyasi yaqqol namoyon bo'ladi:

"U xotiniga balki ko'nglini ham to'kib solar edi-yu, lekin shu payt enaga kirib, sayr qilgani chiqsak maylimi, deb so'rab qoldi. Liza chaqaloqni kiyintirgani u bilan birga chiqdi:

– Xo'sh, aytasan-a? Bir zumda qaytaman.

⁶ Qozixo'jayev A. Qissa janri xususida. XX asr o'zbek adabiyoti masalalari. –T., FAN. 2012. – B. 206.

⁷ Adabiy tur va janrlar(tarixi va nazariyasiga oid) 3-jildlik. 1-jild. –T. "FAN". 1991. –B.152.

– Mayli, aytarman balki...

Eri bu soʻzlarni naqadar ayanchli jilmayish bilan aytganini Liza bir umr unuta olmay yurdi. Xotini chiqdi.

Yevgeniy, xuddi qaroqchilardek, revolvorni shosha-pisha qoʻlga oldi-da, gʻilofdan chiqardi. “U – oʻqlangan, ammo ancha vaqt avval, tagʻin bitta oʻqi kam. Nima boʻlsa, boʻlar, tavakkal!”

U revolver ogʻzini chakkasiga qadadi-da, bir zum esankirab qoldi, Stepanida esiga tushdi-yu, uni miyasidan chiqarish uchun kurashishi, shahvoniy hirs vasvasasiga uchrashi va maʼnan yuztuban ketishi, soʻng yana kurashishi haqida oʻylab, dahshatdan titrab ketdi. “Yoʻq, shunisi afzal”. U tepkini bosdi.

Liza xonaga chopib kirganida – u endigina balkonga yetgandi – Yevgeniy polda yuztuban yotar, qop-qora, issiq qon yaradan sharillab oqar, badani hali titrab turardi.

Mirshablar kelib, savol-soʻroq qilishdi. Hech kim bu suiqasd sababini tushunolmas, izohlab berolmas edi. Togʻasi bu fojining Yevgeniy ikki oy avval uning qoshida keltirgan istigʻforga biror aloqasi yoʻqmikan, degan fikrni xayoliga ham keltirmadi.

Varvara Alekseyevna, bir kunmas-bir kun shunday boʻlishini koʻnglim sezgan edi, deya hammani ishontirmoqchi boʻldi. U Yevgeniy bilan janjallashib qolgan paytlarida shunga amin boʻlgan emish. Liza bilan Marya Pavlovnaning esa nega shunaqa boʻlganiga hecham aqli yetmasdi. Doktorlarning, Yevgeniy ruhiy xastalikka chalingan, degan gapiga ular zigʻircha ham ishonmasdi. Chunki ikkovi ham oʻzlari tanigan yuzlab odamlardan Yevgeniy sogʻlomroq fikr yuritishini bilardi.

Darhaqiqat, Yevgeniy ruhiy xasta boʻlsa, unda hamma odamlar ham ruhiy xasta boʻlib chiqadi. Eng ashaddiy telbalar esa boshqalarda jinnilik alomatlarini koʻradi-yu, ammo oʻzidayam shunday alomatlar borligini payqamaydi”⁸.

Yozuvchi bu tasvirda nimani izohlamoqda. Birinchidan, Yevgeniy ichiga kirgan iblisning nechogʻli fojealarga girftor etib,

⁸ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/lev-tolstoy/lev-tolstoy-iblis-qissa/>

to'g'ri va pok insonni yo'ldan ham, aqldan ham ozdiruvchi la'natlangan Tangri taoloning bir mavjudotini o'z xayol va ijod prizmasidan o'tkazmoqda. Shayton qanday bo'lmasin pok va itoatli, e'tiqodli insonni yo'ldan ozdiruvchi sifatida tasvirlanmoqda. "Yozuvchi asar yozishni o'ylar ekan, uning qaysi o'rni yoki detalini mufassal, siqiq holda, qaysi o'rni va detalini qisqa va jonliroq holda tasvirlash lozimligini oldindan aniq bilavermaydi. Bu narsa asar yozish jarayonida ma'lum bo'ladi. Ma'lum bo'lganda ham, o'z-o'zidan emas, balki muayyan qonuniyatlar asosida bo'ladi. Bu qonuniyatlarni asarda yozuvchi diqqat markazidan, bob va kartinalardagi markazlardan izlash lozim"⁹.

"Lev Tolstoyning musulmon deb aytish mumkinmi yoki yo'qmi? Rus va jahon adabiyotining yirik vakilining diniy mansublik borasidagi so'nggi qarori qanday bo'lgan? Tolstoy Islom va musulmonlar haqida nimalarni bilgan? Avvalo, Tolstoyning hayotida musulmonlar va ular e'tiqod qiluvchi Islom dini bilan kesishgan nuqtalar bo'lganmi, yo'qmi va u Islom haqida nimalarni bilgan, shuni aniqlashtirib olmoq kerak. Ayon bo'lishicha, uning musulmonlar bilan shaxsiy aloqalari va islom dini haqidagi bilimlari rus klassiklarining hammasinikidan ko'p bo'lgan. U 13 yoshga kirgan vaqtida oilasi Qozonga ko'chib boradi. Volga bo'yidagi o'rta asrlarda Volj bulg'orlari mamlakatining markazlaridan biri bo'lgan qadimiy shaharni XVI asrda rus bosqinchilari ishg'ol qilgan bo'lsa-da, shahar aholisi baribir eski islomiy hayot tarzini, urf-odatlarini saqlab qolgan *edi*"¹⁰. Mana shu mulohazalarning o'ziyoq Lev Tolstoyning bolalikdan boshlab din va e'tiqod, dunyo va olam, Yaratganni anglash borasidagi qarashlarini tubdan o'zgartirib kelganini dalolatlaydi.

prof. D.Quronov va B.Rahmonov shunday yozadi: "Antik madaniyatning arxaik davrida kurtak holida bo'lgan adabiy-nazariy va adabiy tanqidiy tafakkur yunon-rim adabiyoti hamda notiqlik

⁹ Qo'shjonov M. Tanlangan asarlar. -T.: "Sharq". 2019. -B.412.

¹⁰ <http://old.muslim.uz/index.php/ar/maqolalar/item/3955> Tarjimon: Damir Jumaqulov

san'atining boy materiali zaminida barg yozdi, rivojga kirdi. Falsafiy qarashlar negizida adabiyotning mohiyati, uning voqelik bilan munosabati, ijtimoiy hayotdagi o'rni va vazifalari kabi muhim masalalar o'rganildi. Adabiyotning taraqqiy darajasidan kelib chiqqan holda turlarga ajratish amalga oshirildi, har bir turning o'ziga xosligini belgilovchi xususiyatlar aniqlandi. Badiiy asarning tarkibiy tuzilishiga e'tibor qaratildi: badiiy shakl va badiiy mazmun tushunchalari farqlandi, ularning o'zaro munosabatlari tekshirildi; xarakter, fabula, tugun kabi unsurlar tavsiflandi, badiiy asardagi o'rni yoritildi, ularga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi".¹¹ Haqiqatdan ham, keyinchalik bu an'ana O'rta asrlarga kelib ham davom etdi. Mana shu paytda qissanavislik ham rivoj topib, dunyo tamaddunida adabiy-badiiy aloqlar, ta'sirlar kuchaydi. Janrning o'zi qotib qolgan biror qolipda emas, o'zaro adabiy ta'sir doirasida shakllandi. Bu jarayon hozirgi kunda ham davom etmoqdaki, qo'shiq, she'r yoki poemadan nasrga, nasrning o'zida lirik chekinishlar, qorishib, aralashib ketgan holda zuhur etilish tamoyillari ham tez-tez uchrab turadi. Demak, biror xalqning adabiy-madaniy xazinasini ikkinchi bir xalq ruhiyatiga, adabiyotiga ta'sir doirasi ham o'zgacha bo'ladi.

Shukur Xolmirzayev rus yozuvchisi Lev Tolstoyning juda teran o'rganadi. "Tanholik" hikoyasida bu haqda Lev Tolstoyning ijod psixologiyasi, ijodkor fitratini shu qadar yoritib beradiki, unda Sh.Xolmirzayev shaxsiyati va ruhiyati aralashib, juda go'zal bir qissaga aylanadi. Qissadagi dialog, monolog va maktublar, lirik chkinishlar, portretlar asarni badiiy qiymatini oshiribgina qolmay o'quvchiga jozibali bir kartinani tomosha qilayotgandek taassurot qoldiradi:

"Otasi hpyajonlana boshlashi bilan o'rindiqdan tushgudek bo'lib, uning qo'llarini silay boshlagan Aleksadra:

– Dadajon, bas. Hamma gaplaring to'g'ri, to'g'ri, – dedi.

¹¹ Quronov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-taniqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. . –T., 2008. – B.27.

“Sen ham onangga o‘xshaysan. To‘g‘ri deysan-u...” dedi gapira ketgisi keldi-yu, o‘zini qo‘lga oldi: bu – uning sevimli qizi Aleksandra. Faqat shu, shugina o‘zining Yasnaya Polyanadan bosh olib chiqib ketishini, qayerdadir bir g‘arib kulbada qolgan umrini (tabiiy, ishlab) o‘tkazish qarorini, nihoyat, birinchi bo‘lib ma‘qulladi. Demak, u dadasining tgraf uyida – qasrda yashashdan nomus qilib, to‘yib ketganini, illo, atrofda ochlik, faqirlik hukm surayotgan bir zamonda o‘zining ana shunday koshonada to‘q-to‘kin hayot kechirishi – uyat, nomus, o‘z e‘tiqodlariga zid ekanini tushungan: axir, u – otasi – dunyo taniydigan, imperator Nikolay II ham, kezi kelganda, qo‘l qovushtiradigan, kuni kecha Nobel mukofotini olishdan voz kechgan – hayotini allaqachon ezgulik yo‘liga – odamlarni baxtli qilish yo‘liga bag‘ishlab qo‘ygan, pirovardi, “o‘zing uchun emas, zxgalar uchun yasha!” degan shiorni umriga dastur qilgan insonni, nihoyat, o‘z armonlaridan biri ham ushalmayotganini ko‘rib, umri poyoniga yetganini anglab, endilikda bu hayotda yashashida ma‘no qolmaganiga inonib, azbaroyi “ko‘rmayin ham, kuymayin ham” degandek, faqir-haqirlar qatori umrguzaronlik qilishidan boshqa yo‘l tomolmagan, ana shuning uchun hamma-hamma narsadan voz kechib, qandaydir bir dehqonning kulbasini makon tutmoq niyatida yo‘lga chiqqanini biladigan va aks holda, otasining qazosi tezlashib qolishiga inongani uchun uni borar manzilgacha kuzatib qo‘yish uchun ham yonida yo‘lga chiqqan qizi bu...”¹²

Keltirilgan lavha, shu asar matnidan ham anglashilib turibdi, yozuvchi Lev Tolstoyning o‘zbek nasriga falsafiy-estetik jihatdan, psixologik yo‘sinda ham ta’sir qilganli. Shukur Xolmirzayev badiiy nutqning shu qadar jozibadorligini oshirganki, natijada o‘quvchi ko‘z o‘ngida umri poyoniga yetgan, soqollari uzun, tanish bir qiyofali nuroniy chol Lev Tolstoy ko‘z o‘ngimizda gavdalanadi.

“Biz insonga ota-onasini (rozi qilishni) buyurdik. Onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan (qornida) ko‘tarib yurdi. Uni (ko‘krakdan)

¹² Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. –T. “Sharq”. 2020.-B. 720-721.

ajratish (muddati) ikki yilda (bitar). (Biz insonga buyurdikki) “Sen Menga va ota-onangga shukr qilgin! Qaytishlik Mening huzurimgadir”, – deb buyuriladi (“Luqmon” surasi, 14-oyat).¹³ Ko‘rinadiki, Ayol (Ona) haqida Qur‘on oyatlarining ko‘pchligida aniq dalillar bilan g‘oyat go‘zal hikmatlarni Alloh taolo o‘z bandalariga buyuradi. Shunday ekan, turkiy xalqlar badiiy adabiyotidagi ayollar obrazi, ularning jasorati, qilgan mardona xizmatlari diniy adabiyotlardan tashqari miflarda, afsona hamda rivoyatlarda rang-barang janrlarda tasvirlanadi.

Qur‘oni karimda Yusuf surasi bilan bog‘liq go‘zal oyatlarning o‘ziyoq keltirilgan mulohazalarimizni quvvatlaydi. Ayniqsa, Yusuf bilan bog‘liq qissalar surat va siyrat birligida namoyon bo‘lib, ayolning makridan uni o‘z iymon-e‘tiqodi muhofazaga boshlasa, keyingi voqelikda qarindoshlar hiylasidan quduq va zindonga tashlanishi ham adovat va xasislik, makr hamda hiyla negizida ro‘y berishini ko‘rishimiz mumkin. Qissalardagi mana shu motiv keyinchalik yozma adabiyotda Rabg‘o‘ziy, Jomiy va Navoiy, yangi davr adabiyotida U.Hamdam, I.Sulton izlanishlarida yanada badiiylik jihatidan shaklu shamoyillari zamonaviylashtirilib ifoda etildi. Dunyoda mukammal narsaning o‘zi yo‘q. Faqatgina mukammallikka intilish, idealga talpinish mavjud, xolos. Qur‘on qissalaridagi voqeliklar (payg‘ambarlar) haqidagi ma‘lumotlar hozirgi kunga qadar o‘rganilmoqda. Haligacha buning mohiyati to‘laqonli ochib berilganicha, unlardan katta-katta mazmunni ifodalovchi badiiy asarlar, diniy-ma‘rifiy qo‘llanmalar olimlar, yozuvchilar, tarixchilar tomonidan yaratilayotgani yuqoridagi mulohazalarimizni asoslaydi.

Keyinchalik Arastu, Forobiy, Ibn Sinolarning olib borgan tadqiqotlarida ham bu masalalarga atroflicha to‘xtalib, badiiy-ilmiy asarlar yuzaga kelganligi haqida ma‘lumotlar mavjud. Birgina Arastu janrning tabiatidagi, ya‘ni epik, lirik, dramatik turdagi – tragik manzaralar (harakat va holat)ga o‘z qarashlarini bayon qilib shunday yozadi: “Epopeya tragediyadan tarkibi uzunligi hamda

¹³ Hamroqulov J. Ayollar islom nigohida. // www.muslim.uz

vazni bilan farqlanadi. Bu uzunlikning chegarasi (meyori) haqida quyida aytiladigan gaplar yetarlidir: epopeyada bir nazar bilan voqeaning boshi va oxirini qamrab olish kerak; epopeyalar tarkibi qadimgilardan qisqaroq bo'lib, bir tomosha vaqtida ko'rsatiluvchi tragediyalar hajmiga yaqinlashsagina bu mumkin bo'ladi. Epopeya esa hikoya qilish bo'lgani uchun bir vaqtda yuz berayotgan ko'pgina qismlarni (voqealarni) tasvirlash mumkin"¹⁴. Demak, eposning (janrlar o'zgarishi) natijasida povest (qissa)ning ham shakllari ifoda miqyoslarida turfalanib, murakkablashib, ommalashib bordi. Boshqa bir o'rinda: "Yozuvchi shaxsining shakllanishi uning o'ziga xosligi tarixiy sharoit va muhitning ta'sirida ro'y beradi. Muallifning nuqtai nazari ma'lum ma'noda ijtimoiy-tarixiy, siyosiy-dogmatik, diniy-ma'rifiy sohalar bilan bevosita chambarchas bog'liq holda rivojlanadi. Bunday tavsiflash yozuvchi dunyoqarashini germeneytik xarakterda tadqiq qilishni taqozolaydi. Mutanosiblik va mansublik yozuvchini o'zi yashab turgan davrga ixtiyoriy ravishda qaram qilib qo'yishi ong va tuyg'u puchmoqlarida katta yakranglikni keltirib chiqaradi. G'oya va mantiq chegarasi aynan muallif ongi shuurida, zehniyatida yanada boshqacha bo'yoqlarda yuzaga qalqib chiqib boshlaydi"¹⁵, - deya yozgan rus olimlari to'g'ri ta'kidlagan. Binobarin, qissa janri qaysi davrga mansubligidan – o'sha davr muhiti va siyosiy-ijtimoiy qarashlarini, obrazlar sistemasidagi o'ziga xosliklarni bilib olish mumkin. O'zbek yozuvchilari qissaning turli xil shakllarni ekspriment qilib ko'rishdi va bu holat jarayon sifatida daom etmoqda. Masalan, A.Qodiriyning ilk romani bilan "Obid ketmon" asari orasida qanchalik tafovut bor. Bunday holat A.Qahhor va Oybek, G'.G'ulom va P.Qodirov, O.Yoqubov ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Qissada diniy qatlamning aks etishi. Insonga ilohiy ilhom berilishi natijasida o'sib-o'zgargani, oq va qorani ajratgani sayin

¹⁴ Arastu. Poetika. –T.: "Yangi asr avlodi". 2018. –B.268.

¹⁵ Vodyasova L., Jindeyeva YE. Sposobi predstavleniya avtorskogo soznaniya kak kommunikativnaya strategiya xudojestvennogo tvorchestva. – Tambov: Gramota, 2015. № 8 (50): v 3-x ch. Ch. III. C. 44-46.

Alloh taolo sirlarni fosh qiluvchi ilmlarga ehtiyoj seza boshlaydi. Har qanday inson (yaratuvchilik qobiliyati bilan) yashashi davomida o'zidan oldingi ilmlar, bilimlar, tafakkurni anglay boradi. Demak, Yaratganning yozig'idan boshqa hech narsa sodir bo'lmasligini anglagan ijodkorki bor, o'zini ana shu murakkab anglash, his etish sari savdolarga jiddiy tayyorlay boshlaydi. Ilohiy ilhom o'z-o'zidan kelmasligini, Taqdir bitiklari uning qalbiga ana shunday go'zal bir sirni yashirib qo'yganligini iymoni, e'tiqodi va taqvoda mustahkam zotlarga anglaydi. Navoiy asarlaridagi qissaga doir motivlar (she'riy shaklda) bayon etilsa-da, undagi epik ko'lam va mohiyat turli chiziqlar, ranglar, tasvirlar, ishoralar bilan Allohning jamoli sari, unga bo'lgan benihoya ulkan muhabbat bilan yuksala boradi. Navoiy nafsni yengish borasida ko'p kuyinsa, Rumiya ko'ngil va tafakkurning anglamlariga diqqatni qaratadi. Bu ikki Oriy zot o'z tutumlarida – makonni zamonni, undagi hayvonotu nabobotning inson huzurida qiymatini ham dalillar bilan chizib berishga harakat qiladilar. Dunyo badiiy adabiyoti durdonalari xazinasida diniy-ma'rifiy qiyoslarning so'nggi yillarda poetik murojaat qilinishi zamona talabi hamda ehtiyojining natijasi deb, qramoq lozim. Buni keyingi talqinlarda qiyoslashga harakat qilamiz. Xo'sh, qissalarda diniy motivlar o'z-o'zidan paydo bo'lganmi? Bunga qanday ehtiyoj bor edi? Ayol obrazining badiiy talqini-chi? Mana shu tizimli savollar bizni ishimizning konsepsiyasini belgilashda va uni nazariy-ilmiy aqidalar bilan ochib berishga xizmat qiladi.

O'zbek qissachiligi borasida yirik tadqiqot olib borgan U.Rasulova: " Qissalar bir jumlada ham, batafsil ham ifodalanadi. Ba'zi nabiya, rasullar taqdiriga doir ilohiy ma'lumotlar bir necha suralar tarkibida kuzatilsa, Yusuf payg'ambar borasidagi voqelik shu nomli surada yaxlit holda nozil qilingani ma'lum bo'ladi. Qur'on sahifalarida payg'ambarlar qissasi tegrasida ma'lumu noma'lum millatu elatlar tarixi jamlanib boradi. Vaqt hamda makon tushunchasi keng bo'lib, ular mezoni borasida aniq to'xtamga kelish dushvor. Jannat va jahannat makoni, Arshi a'lo hududi, Me'roj, Qadr

kechalaridagi tilsimot hanuz inson tafakkuri uchun nihon qolmoqda. G'ayb hikmatlari zamiridagi aniqlik ham e'tiborni tortadi. Qur'onda oy so'zi 12 marta, kun so'zi 365 marta, dunyo so'zi 115 marta, oxirat so'zi 115 marta, imon so'zi 17 marta, kufr so'zi 17 marta, farishta so'zi 88, shayton so'zi 88 marta qo'llanishi ilohiy qonuniyatdagi qat'iy tizimdan boxabar aytaydi"¹⁶. Haqiqatdan ham, diniy-ma'rifiy qarashlarning bugungi kun qissachiligida namoyon bo'lishida istiqloq imkoniyatlarining benihoya bo'lganligining samarasi sifatida qadrlash lozim. Sobiq ittifoq davrida dinga bo'lgan munosabat natijasida juda ko'plab asarlar davrning qurboniga aylantirildi. Qur'onning qissalaridagi valiylar obrazi ham, "Niso"(Ayol) surasidagi ayol obrazlari ham badiiy adabiyotda yangi ifoda imkoniyatlarining paydo bo'lib, shakllanishiga zamin hozirladi. Natijada, diniy-ilohiy talqin qissa arxitektónicasidan munosib o'rin egalladi.

Qissada dunyoviy qatlamning aks etishi. Tarixiy manbalarning shahodat berishicha ahmoniylar shohi bo'lgan Kir bosqinchiligiga qarshi kurashgan Massagetlar qabilasining buyuk va jasur malikasi To'maris ham ayol obrazining naqadar ulug'ligiga misoldir. Chunki To'maris o'zining ayol boshi bilan erkak zotini, ya'ni dushmanni qabilalarining halok bo'lishidan omon saqlaydi. Hali din kirib kelmagan azim davrlarda, Otashparsatlik paytida ham ayollar juda e'zozlanib, xalq xo'jaligida o'zlarining hunarmandchiligi, oilaparvarligi, bolaparvarligi bilan dunyoga ma'lumu mashhur bo'lganlar. Tarixiy manbalarda ayol siyomosiga oid juda ko'plab bir-biridan qiziqarli ma'lumotlar bisyor. Ularning ko'pchiligida AYOL or-nomus, mardlik va aql-zakovat ramzi sifatida o'z qadrini topadi.

XX asrning boshlarida jahon va rus yozuvchilari juda ko'plab qissalar yaratishdi. Bu shakllar o'zbek adabiyotiga ham ta'sir qilmasdan qolmadi. A.Qodiriy – arab va turk adabiyotidan, A.Qahor – rus adabiyotidan ta'sirlanib qator hikoya va qissalarini o'zbekona

¹⁶ Rasulova U. XX asr o'zbek qissachiligi (poetik izlanishlar va taraqqiyot tamoyillari). –T., 2020. Filolo.fan.dok.diss. –B.22-23.

tasvir imdji bilan ifoda qilishdi. Har ikkala yozuvchi asarlaridagi dunyoviylik inson (ayol) obrazini kashf qilishga, Onaning muqaddasligi, hayotning bir bo'lagi ularsiz bo'lmasligi borasida katta g'oyalarni ilgari surdi. Natijada insoniyat yetib kelgan manzil 1400 yil olin Allohning qudrati bilan meros bo'lgan Qur'onga borib tutashishiga imon keltirdilar. Bu bizni o'rab turgan zaminda, butun koinotda, o'ngda-yu, tushimizda ro'y berayotgan har qanday voqelik Alloh taolo iznisiz bir soniya ham jilmasligini anglashga yetakladi. Dunyoviy ilmlarning barchasida diniy ilmlarning aks-sadosi mavjudligini hatto Lotin Amerikalik yozuvchi Paulo Koelo, turkiyalik O'rxon Pamuk, qirg'iz adibi Chingiz Aytmatovlar zamondosh adiblar sifatida qayta idrok etgani yuqoridagi mulohazalarimizni to'laqonli dalolatlaydi.

Endi yana muhim bir masalaga munosabat ham bildirish maqsadga muvofiqdir. XX asrning 30-yillarida jadidlarni birlashtirib turgan yagona ijtimoiy-siyosiy g'oya mavjud edi. Bu islohot, tuzish, yaratishdir. Jadidlar hamma jabhada boshlagan o'zgarishlarni, uyg'onishni millat oydinlarijuda yaxshi anglagan. Agar XX asrning boshlarida o'zbek adabiyotida yuzaga kelgan islohotchilik kayfiyati natijasida – janrlar taraqqiyotida yangi bir to'lqinning paydo bo'layotganiga guvoh bo'lamiz. Olmon olimi Ingeborg Baldaufning ushbu fikrlarining o'ziyoq, ko'p masalalarga aniqlik kiritishga yetaklaydi: “Turkiston modernistlari haqida so'z yuritilganda “kurash”ning bir jihatini e'tiborga olish lozim bo'ladi. Ularning tariqat uchun kurashgan “eshon”lar kabi sadoqat va xolis niyat bilan olib borgan ishlari jamiyatdagi illatlarga qarshi olib borgan kurashlarda aniq ko'rinadi. Yuqorida zikr etilganidek, chor hukumati musulmon ulamolarining muassasalariga qarshi keskin kurash olib borilishiga yo'l qo'ymagan va ayni paytda “tariqat” vakillarini ishonchli himoya ham qilmagan”¹⁷. Haqiqatdan ham, olimning ushbu mulohazalariga yana o'shimcha ikki jihatni keltirish mumkin: birinchidan, jadidlarning maorif, ta'lim, badiiy adabiyot,

¹⁷ Ingeborg Baldauf. XX asr o'zbek adabiyotiga chizgilar. –T: “Ma'naviyat”. 2001. –B.17.

teatr kabi juda ko'plab sohalaridagi say'-harakatlari ma'lum ma'noda o'lkadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyatning tez suratda olg'a ilgarilashiga zamin yaratdi. Birgina badiiy adabiyotdagi janrlarning xilma-xillashuvi (qissa)ning natijasida jahon klassiklari yaratgan asarlar ta'siri fonida katta manzillarga imkon ochib berdi. Bunday paytda, Chor hukumati o'zining ikki tomonlama niyatlarini olib borar, qanday bo'lmasin Turkiston jadidlarini "tiyib turish" sistematik tarzda yuzaga chiqa boshlagandi. Buning natijasida qanchadan-qancha chinakam ziyolilar o'z hayotlarini, jonlarini fido qilishga ham tayyor bo'ldi. Demak, badiiy janrning o'z-o'zidan sayqallanib, rivoj tompasligiga ham din va adabiyotning baqamti birga yurishi, zamonning ilg'or yozuvchilaridan muayyan ma'noda ta'sirlanish muhimligini ham taqozo etmoqda. Shunday og'ir bir va mavhum sharoitda janrlar borasidagi o'sish-o'zgarishlar epos, qissa, folklarga oid qanchadan-qancha janrlar aralashuvidan paydo bo'lgan hikoyatlar negizida yuzaga kelganligini dalolatlamokda. Buning uchun qulay bir tizim yaratilmoqchi ediki, afsus bu tizim jadidlarning ichki, botiniy armonlarining bir bo'lagi sifatida qolib ketganligi sir emas.

Qissa janri yoki roman, ixcham hikoya, novella bo'lsin har birida bitta ja'ji olam suvrati, SHAXS tabiati, ruhiyati aks etishi tayin. Shunga ko'ra janrning aniq chegarasi bormi degan savol adabiyotshunoslar, munaqqidlarni qiziqtirib keladilar. Aslida janrning aniq chegarasi yozuvchining voqelikni ifoda qilish konsepsiyasi bilan tutashadi. Prof.M.Qo'chqorova qayd etishicha: "Qissa janriga xos muhim nazariy belgilardan biri unda bitta qahramonning to'laqonli sarguzashti hikoya etilishidir. Qissa roman bilan hikoya o'rtasidagi janrdir. Shunga ko'ra qissada ba'zan roman janriga xos unsurlar, ba'zan esa hikoya, novvellaga xos unsurlar ko'rinish berib qoladi. Keyingi paytdagi nazariyotchi olimlar va o'zimizning bu janr borasidagi kuzatishlarimiz natijasi shuni ko'rsatmoqdaki, qissa dominant bo'lgan asarda albatta, unga xos muhim belgilar bilan bir qatorda ba'zan boshqa janrlar (roman,

novella, hikoya, esse, xotira)ning ham unsurlari ishtirok etaveradi. Lekin baribir, qissa janrining dominantligi hisobiga qissa bo'lib qolaveradi"¹⁸. Olimning mazkur qarashlariga qo'shimcha qilish muhimki, XX asr boshlarida va undan oldin yaratilgan qissalar xuddi bugungi yo'l va yo'lovchi qahramonlar sarguzashtlarini yodimizga soladi. Yo'llarning olib borar manzili – qahramonning asar voqeligida qanday vazifani bajarayotgani bilan belgilansa, yozuvchi ijodiy g'oyasining negizida insonning taqdirini anglab yetishi, zamonning belgilari bilan birga umr kechirishi nazarta tutiladi. Ayni paytda, qissadagi har bir epizod o'sha davr ruhiyatini aks ettiruvchi mayoqdir. Buni hech bir adabiyotshunos inkor qilolmasa kerak. A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani bilan poetik nuqtai nazardan tubdan farq qiluvchi "Obid ketmon" qissasi orasida osmon bilan yerchalik noo'xshashlik bor. To'g'ri qissada davr nuqtai nazaridan yozilgan. Mafkuraning ayrim ilmilik sharpalari qissada aks etgan. Kolxozlashtirish siyosatining bir uzviy qismi badiiy asarda aks etishini ko'ramiz. Mana shu tamoyilga asoslanadigan bo'lsak, o'zbek adabiyotida qissa poetikasi haligacha izlanishga, tahlil va talqin qilinishga mahkum ekanligi ayonlashadi. Endi buning juda ko'plab tomonlari mavjud. Haqiqiy badiiy asar poetikasidagi matn va so'z tovlanishlarini anglash va tahlil qilish borasida hali qator izlanishlar olib borish lozim. Chunki XX asrning mafkura yo'rig'ida yozilib, bugungi kunda hatto nomlari ham unutilib ketgan qissalar talaygina.

Folklor va badiiy adabiyot. Folklorda obrazga qanday baho beriladi. Birgina "Alpomish", "Kuntug'mish" dostonlarida tasvirlangan ayollar obrazi yozma adabiyotda ham keng turda boshqacha shaklda ifodalanishi fikrimizni to'laqonli quvatlaydi. "Alpomish" dostonidagi Barchin obrazida mujassam bo'lgan barcha mehr va muhabbatga to'la sifatlar bugungi yozma adabiyotga katta manba bo'layotgani hech kimga sir emasdir. Dostondagi

¹⁸ <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/adabiyot/marhabo-qochqorova-xurshid-dostmuhammad-qissachiligida-metafora-va-timsolli-ishoralar/?lng=cir>

Barchinoyning vafodorligi har qanday o'zbek ayolida faxr va g'ururlanish sezimlarini paydo qilishi shubhasiz.

Badiiy adabiyot, xususan, qissa janri genezisidagi sifat o'zgarishlari o'zbek adabiyotida jadidlar boshlab bergan an'ana bilan chambarchas bog'liqligini e'tiborga olsak, masala mohiyati zimdan oydinlasha boradi. Chunonchi, folklor asarlaridagi tasvir predmetlari ham, qahramonlar g'ayritabiiyligi, o'zgaruvchanligi vaqtning tezligi, masofaning yaqinlashuvchi singari ko'plab sabablar borki, uni teran idrok etish tahsinga sazovordir. Bugun folklorning yozma adabiyotga (qissa) janriga oid ko'rinishlarini tahlil etganimizda ham kecha-bugun-ertaga tarzida uch o'lchamli olam paydo bo'ladi. Dinning mohiyatida ezgulik va Allohni tanish bo'lsa, folklorning mohiyatida ham shu kabi mavzular idrok etiladi. Badiiy (yozma) adabiyotda esa ramziy-metaforik talqini aralash holda zuhur etiladi. Prof.J.Eshonqul ta'biri bilan aytganda: "Folklorning yozma adabiyotga ta'siri masalalari Alisher Navoiy zamonida qanday dolzarb aha-miyatga ega bo'lsa, bugun ham xuddi shunday. Alisher Navoiyning barcha asarlarida biz folklorga ijodiy yondoshuvni, milliylikka suyanib, umumbashariy qadriyatlar ulug'langanini kuzatamiz. Bu an'ana Navoiy, Bobur zamonidan so'ng Abdulla Qodiriydan to bugungi kunda ijod etayotgan adiblarimizgacha, Cho'l-pondan to zamonamiz shoirlarining izlanishlarida ham u yoki bu darajada davom etayapti. Faqat bizda emas, dunyo adabiyotida ham shu hol kuzatilmoqda. Aytish mumkinki, so'nggi yuz yillikda adabiyotda folk-lorga qayta yuzlanish davri boshlandi. Joys, Borxes, Markes, Kafka, Kavabata kabi adiblar ijodi buning misolidir. XXI asrda dunyo miflariga qaytadan murojaat, yangicha talqin qilish davri, neomifologizm davri boshlandi¹⁹, – degan qarashlar yuzaga qalqib chiqadi. Insoniyat o'zining tamaddun nurlarini ilk tanigan davrida mif va asotirlar qurshovida edi. Miflarning jamiki adabiyotga ta'sir qilishi, yozma adabiyotdagi har qanday janr tabiatida yashab qolishi, har bir inson o'z miflarini

¹⁹ <https://ziyouz.uz/suhbatlar/jabbor-eshonqul-folklor-millatning-boqi-tarixi/?lng=cir>

yaratishi sinalgan hodisa. Bunday miflar badiiy adabiyotning naqshinkor ruhi vazifasini bajarishga xizmat qiladi. Prof. J.Eshonqul masalaga keng qamrov bilan yondoshadi. Janrlar rivojida mifning, ayniqsa, folllarning roli kattaligini o'z tadqiqotlari timsolida isbotlab beradi.

Ijtimoiy hayotni tasvirlash pafosi. O'zbek qissalarida ijtimoiy hayotni personajlar ruhiyati bilan baholash muhim ekanligi tarixiy taraqqiyot tendensiyalarida qabarib ko'rinadi. Har bir hodisaga befarq bo'lmagan yozuvchilar yaratgan asarlar u maishiy yoki ijtimoiy hayotni baholashmasin, barchasida qizil ip bo'lib o'tib turgan masalaga urg'u beriladi. Avvallari yaratilgan qissalarda hajm katta rol o'ynasa, ikkinchidan, undagi obrazlarning qay tarzda gavdalantirgani bilan ham muhim sanalardi. Dardsiz, hissiz asarlar tarix sahifalaridan yo'qlik sari ko'chib o'tdilar. Mafkura yo'rig'ida bitilganlari shular jumlasidandir.

Ijtimoiy hayotni tasvirlash deganda faqat sobiq ittifoq davri mafkurasi ta'sirida yozilgan asarlar nazarda tutilmaydi. XIV asrda Amir Temur davrida Bibixonimning saroy ishlarida bosh-qosh bo'lganligi, Sohibqironning o'zi kelin tanlashda, davlat ishlarini yuritishda ayollarga qanchalik e'tibor qaratganini hamalohida ta'kidlash lozim. "Kul tigin" bitiktoshida ayollarni tasvirlash, Onaning jamiyat hayotida tutgan o'rnini asoslash borasida ham ko'plab ma'lumotlar uchraydi. Qancha asrlardan bizgacha yetib kelayotgan bu asarlarda ijtimoiy-siyosiy hayot sahnasida AYOL mavqei qanchalik muhim rol o'ynashni, ularning qahramonliklarini epik asarlarga ham olib kirgan donishmand xalqimizning, ajdodlarimizning mehnatlari katta ekanligini unutmaslik lozim. Shunday ekan, XX asr boshlarida A.Qodiriyning romanlari hikoyalari, qissalarida, Cho'lponning she'riy, nasriy asarlarida o'zbek ayoli, turkiy xalqlar adabiyotida ayol zotining qadrlanishini teran anglaymiz.

Umuman, prof. U.Normatovning "Hozirgi qissalar poetikasiga doir" maqolasida povest va qissa janriga oid qarashlarini juda o'rinli

izohlaydi. YA'ni olimning ta'kidlarida "qissa bir ohangli janr, bu janrning yaxshi va ideal namunalarini bitta sozda chalingan kuyga qiyoslab ko'radi"²⁰. Demak, qissa va povest roman, hikoya orasidan o'sib chiqqan mustaqil janr emasligini bugungi kun adabiyotshunosligi ham o'z isbotini berib turibdi. To'g'ri, olim qissadagi rivojlanishlarni 60-yillarda yozilgan asarlar misolida tadqiq qiladi. Ammo janrning aniq bir chegarasini topishga imkon beruvchi qator masalalarni o'rta tashlaganligida ko'rinadi. O'zbek qissachiligidagi qariybi bir asrlik mustaqil janr sifatidagi sifat o'zgarishlari istiqbol imkoniyati negizida qaytadan ko'rib chiqilib, aniq bir tavsivaviy xarakterdagi mulohazalar o'z tasdiqig'ini topib bormoqda. Shu ma'noda, ijtimoiy hayotni tasvirlash pafosi juda ko'p o'rinlarda sobiq ittifoq davri adabiyoti va mafkurasining ta'sirida ro'y berganini unutmaslik lozim. P.Qodirov, O.Yoqubov, O.Umarbekov, Sh.Xolmirzayev qissalarining ayrimlarida 60-yillardan keyingi hayot suratlari hamda davrning bejirim manzaralari o'z aksini topadi. Natijada P.Qodirovning ba'zi izlanishlarida masalaning o'sha davr chizib bergan mafkuraviy tazyiqlar ta'sirini unutib bo'lmaydi. Yerni o'zlashtirish, kollektivlashtirish, kolxozlashtirish mavzusi kun turtibidagi asosiy tasvir obyekti bo'lishi muhimligini munaqqidlar bot-bot e'tirof etishgan.

1.2. O'zbek qissalarining adabiy ta'sir doirasida rivojlanishi

Har bir yozuvchi ijodiy kredosida g'oya, mavzu va badiiy mantiq ifodasi bilan "men"i ham uyg'un holda yashaydi. Ijodkor fitratida "men" tushunchasi olam va odam haqidagi tasavvurlarni qayta ishlaydi. G'oyadan-g'oyaga, mazmundan-mazmunga, shakldan-janrga qarab o'sib boruvchi mazkur ilmiy atama – individual uslub poetikasini belgilaydi. Qissalar mundarijasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrning 30-yillaridan yangi asrimizning birinchi o'n yilliklarida shaxs ruhiyati, uning maishiy olamini tasvirlashga keng

²⁰ Mamajanov S. Tanqidchi va adabiy jarayon. –T., "Turon-iqbol". 2011. –B.119-120.

e'tibor qaratilibdi. Qissa inson shaxsi, idroki va taxayul olamining in'ikosi sifatida yanada barqarorlashdi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, ayol obrazining badiiy ifodasi qiyosan talqin qilinsa XV asrning o'zidayoq qanchadan-qancha asarlar dunyo yuzini ko'rdi. Insonga muhabbat va aql-zakovat hosilasi o'laroq qissalarda ona va ayol siyomosining rang-barang talqinlari qabarib ko'rina boshlandi. "Poeziyaning ahamiyatiga va hayotning rivojlanishiga bo'lgan bu ishonch – iymon edi va men uning muhiblaridan biri edim. Bu iymonning muhibi bo'lish qulay va yoqimli edi. Shu ahvolda shu iymonga sajda qilib, uning chinligiga shak keltirmay men ancha yashadim. Ammo ikki yil o'tgach va ayniqsa, bunday hayotimning uchinchi yili boshlangach, men bu iymonning benuqsonligiga shubha qila boshladim va uni tadqiq qilishga kirishdim. Menda shubha tug'ilishiga turtki bo'lgan birinchi omil shu bo'ldiki, bu iymonning muhiblari hamma vaqt ham o'zaro ittifoq emas edilar. Ba'zilar deyishardi: biz – eng yaxshi va eng foydali ustozlarmiz, biz kerak narsani o'rgatamiz, boshqalar noto'g'ri o'rgatishadi. Boshqalari esa bunday deyishadi: yo'q, biz chin ustozmiz, sizlar noto'g'ri o'rgatasiz. Shunday deb ular bir-birlari bilan bahsga kirishadi, tortishadi, so'kishishadi, bir-birlarini aldaydi, bir-birlariga makkorlik qilishadi. Bundan tashqari, ularning orasida shunaqa odamlar ham ko'p ediki, ular kim haqu kim nohakdigini o'ylab ham o'tirishmasdi, balki bizning shu faoliyatimizdan foydalanib, o'zlarining g'arazli niyatlariga osongina erishardilar-qo'yardilar. Bularning hammasi meni iymonimizning chinligiga shak keltirishga majbur qildi"²¹. Keltirilgan manbada Lev Tolstoy o'zi va uni o'rab turgan muhit, odamlar, jamiyat haqida batafsil bayon qila boshlaydi.

Ijtimoiy voqelikda esselashuv prinsipi. Tarix fakt – adabiyot fantaziya, deydi yozuvchi Muhammad Ali. Shu tamoyilga amal qiladigan bo'lsak, P.Qodirovning "Ona lochin vidosi" romanida muallif ongi va dunyoqarashi matn poetikasiga singib, badiiy to'qima shartliliga aylanganining shohidi bo'lamiz. Chunki "muallif

²¹ https://n.ziyouz.com/books/jahon_nasri/Lev%20Tolstoy.%20Iqrornoma.pdf

ongi” va “men”i tarixiy faktlarni saralaydi. Tahlil va tanqidiy ruhda sintezlaydi. Davrning, mafkuraning hamda badiiy niyatning ko‘lamiga qarab syujet voqeligini yuzaga chiqaradi. M.Baxtin olib borgan tadqiqotlarda ham bu jihatga bot-bot murojaat qilingan. Birgina qissa deb nomlanib, keyin roman deyilganda – estetik did va badiiy tafakkurning salmog‘ini tushunib yetamiz. Shuning uchun ham, badiiy talqin va ijodkor fenomeni AYOL obraziga alohida munosabatli nutqni tashkil qiladi. Bu borada tadqiqot olib borgan D.Toshpo‘latova qayd etishicha: “XX asr ibtidosida insoniyat badiiy tafakkurining barcha qatlamlari – esselashuv jarayoniga asta-sekinlik bilan tadrijiy takomillashuv bosqichiga o‘ta boshladi. Unda yozuvchi “men”ining ustuvor qatlamlari borliqni badiiy idrok etish tamoyillarini qorishiq holda bayon qilish borasida yangi janrlar barqarorlashuviga kengdan zamin hozirladi. J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu singari faylasuf-esseist yozuvchilar insonni kashf qilishning – tush, xotira, esse, badia kabi ko‘plab tasvir usullarida muallif ongini va uni ifodalash usullarini joriy qilishga erishdilar. Ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik birinchi jahon urushi yillarida badiiy tafakkurda o‘ziga xos siljishni yuzaga keltirdi. Bular har qanday sharoitda – inson yashashga va yashab qolishga mahkum mavjud ekanligini o‘z asarlarida inkishof qildilar”.²² Olingan manbaga qo‘shimcha mulohaza tarzida fikr bildiradigan bo‘lsak, uchta muhim jihatni yodda tutmoq lozim:

1) Tarixiy qissada polifonik nutq yozuvchi nutqi bilan aralashib, roviy nutqini yuzaga chiqarishga olib kelishi;

2) Ijodkor voqelikning yevosita emas, bilvosita io‘tirokchisi, syujetni barqarorlashtirib, yangi materiya kashf qilishga o‘tish davri;

3) Bosh qahramonga barcha voqeliklarni ulashi, ijodiy niyat badiiy takomilida asosiy vazifa ekanligini anglab qolishi tushuniladi.

²² Toshpulatova D. Zamonaviy o‘zbek nasrida muallif ongi va uni ifodalash shakllari. Filol.fan.falsafa.dok.diss. –Jizzax. 2021.-B.11

Pirimqul Qodirovning “Ona lochin vidosi” nomli qissasi (ilk nashrida qissa deb e’lon qilingan, keyinchalik qayta ishlanib roman shaklida nashr qilindi) tariximizning eng qaltis burilish yillari qalamga olinadi. Tarixiy haqiqat – yozuvchi “men”ida qayta ishlanib, rang-barang obrazlarga boy, polifonik tasvir usullari serqatlam muhtasham obidadek namoyon bo’ladi. Qissa deb nomlanib, o’quvchilarning mehriga, muhabbatiga, “bir zum”da o’qiladigan asarni adib Primqul Qodirov qayta tahrir qiladi. Tarixni ko’z o’ngimizda jonlantirar ekan, uning har bir manzarasidan XV asr ijtimoiy hayoti emas, siz biz bilan bir havodan nafas olayotgan Pirimqul Qodirovning qahramonlari, bir umr o’ziga maftun etgan Temuriyzodalar Shohruh va Gavharshodbegim keladi. Shohruh Amir Temurning to’rtinchi o’g’lidir. Bu o’g’illarga kelin tanlashda Amir Temur Bibixonim bilan “yetti o’lchab, bir kes” maqoliga qattiq amal qilganliklarida ko’rinadi. Adib asar haqida shunday yozadi: “Ijodkor zotining hayoti izlanishdan iborat. Yaqinda “Ona lochin vidosi” romanini qayta ishladim. Asarning to’ldirilgan, boyitilgan varianti “Shohrux va Gavharshod” nomi bilan o’quvchilar qo’liga yetib bordi. Ayni paytda yangi tarixiy asar uchun material yig’ yapman. Bu galgi romanim qahramoni boburiylar sulolasining yana bir yorqin vakili, mashhur Tojmahalning bunyodkori Shohjahon bo’ladi. Xudo umrdan bersa, mana shu asarimni aziz o’quvchilarimga taqdim etish niyatidaman”²³. Darhaqiqat, ijodiy izlanish samarasi o’laroq kitob (qissa-roman) shu choqqacha o’n marotabadan ortiq nashr qilindi. Ijodkor o’zining ustida izlanish olib borganligi, Gavharshodbegimni Ona lochinga o’xshatishi, temuriyzodalar oilasidagi totuvlik, ahllik, o’zbekona yashash tarzimiz, Sharqona iffat va iboga boy rasm-rusmlarimiz tahlil sahniga jalb qilinadi:

“Yazdiy Shohruh Mmirzoning ilk uylanish to’yi Samarqandning Bog’i Bihishtida bo’lganini birgina jumlada aytib o’tadi. Shu birgina jumla Gavharshodbegimning ko’z oldida chindan ham jannatga o’xshaydigan bog’i Bihishitni gavdalantiradi. Navro’z kunlarining

²³ <https://xabar.uz/tahlil/haq-soz-uchun-kesilgan-boshlar-pirimqul>

birida shu bog'da boshiga oq harir ro'mol yopib, Sohibqiron qaynotasiga kelinsalom qilganlarini begim hayajon bilan eslaydi.

O'sha kuni Amir Temurni birinchi barta yaqinginadan ko'rdi. Uning otalarcha mehribon tovush bilan aytgan so'zlarini eshitdi:

– Bizning xonadonga qo'ygan poyi qadamingiz qutlug' bo'lsin, bolam!

Salobatli nuroniy otaning "bolam!" degan so'zi haligacha Gavharshodbegimning qulog'iga eshilib turganday bo'ladi.

O'sha kuni Sohibqiron qaynotasi unga yirik-yirik la'llar qadalgan bir juft oltin sirg'a in'om qildi. Qaynonasi Bibixonim bu sirg'alarni kelinning qulog'iga ta'qib qo'yar ekan:

– Bu in'omning teran ma'nosi bor, – dedi, – Endi hamisha xonadon sohibining gapiga quloq solg'aysiz, aytganlarini so'zsiz ado etgaysiz! Jonim bilan, hazrat onajon, – deb shivirladi *kelin!*"²⁴

Lavhadan ko'rinadiki, o'zbek xalqining Sohibqironi va Bibixonimi kelin tushirish marosimidagi sipolik bilan ulkan saltanatning to'rtinchi farzandiga qallig' bo'lmish Gavharshodbegimga bo'lgan munosabatning qandayligini bilish qiyin emas. Chunki Shohruh Mirzo Xurosonning hokimi. Unga munosib, uy va davlat, din, siyosat ishlarida yelkadosh bo'lishni birgina sirg'a taqish marosimi timsolida oydinlashtiradi. Yozuvchi asarni qissa deb, qayta ishlab roman deyilgan. Biroq uning tahrirlanganidan so'ng, tuzatish va to'ldirishlar, adabiy munaqqidlar munosabatidan keyin boshlangan. Janrga yozuvchi o'zining ijodiy kredosi "men"i talabidan kelib chiqib yondoshadi. Uning syujet va kompozitsiyasi, ko'tarilgan muammoning ko'lami va voqelik izchilligi shularni taqozo etishi tayin. Asardagi Gavharshodbegimning o'ta qaltis bir davrda yashashga to'g'ri kelganligi, Ulug'bek Mirzoning farzandlari Abdulaziz va Abdulatifning tarbiyasidagi adashishlar, ko'ngil mayliga qarab bola tarbiyasida buvining roli nechog'li muhimligini, Ona lochinining vidosi sifatida haqqoniy gavdalandira oladi. Asar 2000-yillar

²⁴ Qodirov P. Ona lochin vidosi. –T.: "SHARQ". 2001. –B.3-4.

miyonasida yozib tugallangan. Dastlabki boblar “Jahon adabiyoti” jurnalida e’lon qilingan. Pirimqul Qodirov Gavharshodbegimning siymosida tarix zarvaraqlarida ochilmay qolgan haqiqiy holatni, faktlarni, Sharafiddin Ali Yazdiy va tarixchilar asarlari timsolida poetik gavdalantira olgan. Asar o’quvchid shu qadar maroq bilan mutolaa qilishni talab qiladiki, Ona, ayol siymosida milliy qahramonlarimizdan ibrat olgulik qator sifatlarga yuzma-yuz kelamiz.

Prof. H.Umurov haqli ravishda qayd etganidek: “Yozuvchi har bir qahramonning ovozini, yuz ifodasini, kechinmasini, so’zlash uslubini berish uchun uning xatti-harakatini, iroda yo’nalishini asoslash uchun, albatta, o’sha qahramonlarning qiyofasiga kirishni shart qilib qo’yadi. Busiz yozuvchi, qahramonning o’sha sharoitdagi, ayni shu vaziyatdagi qalb holatining o’ziga xosligini tasvirlay olmaydi. Darvove, tasvirlanayotgan shaxs bilan yozuvchining shaxsi o’rtasida o’xshashlik bo’lmasa-da, unda yozuvchi avtobiografiyasining unsurlari ko’rinmasa-da, baribr, o’zining yuzlab qahramonlarining ichki tabiatiga mos o’zak nuqtalarni topib tasvirlash qudratiga ega. Chunki yuqorida aytganmizdek, har birimizda yashirin tarzda insoniy xususiyatlarning hammasi mavjud, lekin ulardan qay biri bo’lsin ichki ehtiyoj (qahramon xarakteri) talabi bilan birinchi planga chiqqanida, yozuvchi tasavvurida jonlana beradi. Ba’zilar o’ylaganidek, hamma, dunyoda bor ruhiy kechinmalarni yozuvchi boshidan o’tkazgan bo’lishi shart emas”²⁵. Binobarin, P.Qodirov “Ona lochin vidosi” romanida Shohruh va Gavharshodbegim obrazini tpiklashtirar ekan, bir soniya ulardan ijodiy konsepsiya quvvatini ayro tasavvur etolmaydi. Natijada, adibning bosh qahramon atrofida voqelikni bot-bot sodir bo’lish prinsiplari yorqin ranglarda namoyon bo’la boradi. Asarning o’ndan ortiq o’rinlarida Gavharshodbegimning Tangri taologa nolasi, monologik nutqi bayon qilinadi. Asarning juda ko’p o’rinlarida muallif ijodiy boshqaruvi obrazlilikni tiniqlashtiradi. Munaqqid

²⁵ Umurov H. Badiiy ijod asoslari. –T: “O’zbekiston” .2001. –B. 91.

T.Jo'rayev ta'biri bilan aytganda: "O'zbek ong oqimi nasrida tasvirlanayotgan dunyo butunlay o'zgacha g'oyaviy-badiiy prinsiplarga asoslanadiki, unda "yangi psixologik materiya" qidirish, borliqni mif afsonalar asosida anglash, tashqi olam va insonni sahnalashtirish, hayotning mohiyatini tub "ichki istak" singari ruhiy-g'ayrushuuriyliklar bilan o'lchash tendensiyalari yo'q, balki unda romanning asl mohiyati – shaxsning jamiyat va tarix bilan yuzma-yuz to'qnashuvi "yarq" etib ko'rinib turadi. O'zbek modern yo'nalishi g'ayrushuuriylikni inson faoliyatining yagona stimuli, ijtimoiy, jamoat shart-sharoitlaridan mustasno ruhiy boyligi sanalmaydilar. Shaxsning tarix bilan, jamiyat bilan yuzma-yuz uchrashuvi davr talabi, zamon ruhidir"²⁶. Binobarin, XX asrning 90-yillaridan keyin yaratilgan an'anavi-tarixiy, modern, postmodern yo'nalishdagi asarlarda tarxi va zamonni tipiklashtirish masalasi kun tartibiga qo'yildi. Bu haqda vaqtli matbuotda juda katta bahs-munozaralar tashkil qilindi. Biroq istaymizmi-yo'qmi, allaqachon istiqlol butun shukhi bilan jahon maydoniga bag'rini ochib, erkinlik shabadalarini hamma sohalarda ro'yobga chiqishiga katta imkoniyatlar (badiiy) eshigini ochib bergandi. Duyeyoni tarixchi qanday tiklamoqchi yozuvchi yoki shoir-chi? degan savollar o'rta qayga boshladi. Milliy qahramonlarimiz, xususan, Ayollar obrazini qaysi yo'sinda idroklaymiz va kashf qilamiz qabilidagi masalalar o'z manzillari sari ko'chib bormoqda edi. Buni yozuvchi qaysi janr – qisa yoki roman, epopeya yoki hikoya, novella tarzida bayon qiladi, poetik mahorat bilan bo'lchanishi tabiiydir. Ayni paytda, insoniy iroda va ijodkor fitrati zamon ehtiyojlaridan suv ichmog'i lozim bo'lib ko'rinadi. Shunday bahs-munozara uyg'otuvchi masalalar bugun ham shiddat bilan davom etib kelmoqda:

"Shohruh Mirzo va Gavharshod begim bir yoqadan bosh chiqarib, hokimiyat jilovlarini mahkam tuganliklari, o'g'illarini insof va adolat ruhida tarbiyalaganliklari uchun birortasi - na Ulug'bek,

²⁶ Jo'rayev T. Ong oqimi modern. "Farg'ona" nashriyoti. 2009. –B.162.

na Ibrohim, na Boysunqur, na Jo'qiy Mirzo – bir-biri bilan yovlashgan emas, ota-onalariga qarshi bosh ko'tarishgani ham yo'q.

Bu o'g'illar qiyinchilik ko'rib o'sgan, harbiy yurishlarda mashaqqat chekib chiniqqan, tinch ijodiy mehnatning afzalliklarini amalda ko'rib bilgan edilar.

Ammo farovon zamonlarda ko'proq o'yin-kulgi, ayshu-ishrat bilan o'sgan Shohruhning nevaralari noahil, bir-biri bilan qirpichoq. Bu yoshlarda saflanmagan kuchlar ko'p, ota-bobolari kabi katta g'alabalarga erishib tojdor bo'lish ishtiyoqida yonishadi. Atroflaridagi amiru beklari tog'larga tarmashgan bulutlarga o'xshab ularning boshlariga taxtiparsatlik balolarini yog'dirishadi.

“Davlat mablag'lari madrasa-yu, rasadxona qurilishlariga emas, harbiy yurishlarga sarflanishi kerak! Qilichlarimizni zang bosib ketdi! Jangovar bekdan ko'ra, allaqayerdagi mullabachchalarning nufuzi baland!” deb vaysaydigan urushqoq amirlar ta'sirida yosh shahzodalar ham yangi harbiy yurishlarda qahramonlik ko'rsatib, katta martabalarga erishishni istashadi”²⁷. XX asrning 60-70 yillarida yozilgan tarixiy asarlarda ayollar obrazi sobiq mafkura ta'siriga tushirib tasvirlanar, garchi voqelik XV asrda ro'y bersa-da, yakkahokim ittifoqining biror manfaati nazarta tutilishi lozim edi. Buning natijasida badiiylik o'lchamlari sayozlashib, matn faqat faktlar qurshovida qolib ketardi. Pirimqul Qodirov ham ayni iztiroblarni boshidan kechirdi. Negadir, istiqlol yillarida adib butun hasratini Amir Temur davrini yoritishga bag'ishlamaganida, adibning qariligi, yoshlik sururining o'tib ketishi deb tushunish mumkin. Ayni paytda, ayol obrazi Bobur va Boburiy malikalar, Amir Umarxon, Muhammad Rahimxon Feruz davrlarida ham haqqoniy yoritilish pallasi endi boshlanganini ko'ramiz. Shohruh va Gavharshod begim obrazlari siymosida bugungi kunda jahon hamjamiyatida ayol zotiga nozik bir xilqat deb qarash, ularni nomini asrash va yetarlicha g'amxo'rlik ko'rsatish masalasi kun tartibiga qo'yilgan asosiy vazifalar deb bilamiz. Shu boisdan ham, tarixiy

²⁷ Qodirov P. Ona lochin vidosi.

asarda esselashuv jarayoni hukm surayotgani fikrimiz yorqin dalilidir. Esslashuv bu o'z-o'zidan bo'layotgani yo'q, aslo. Negaki, davrning o'zi shuni taqozo etmoqda. Dunyo hamjamiyatida ayollarga bo'lgan munosabat jahon siyosati darajasida bo'lib, unga har bir mamlakat tegishli dasturlar, konsepsiyalar ishlab chiqargan. Biz o'ta qaltis bir zamonda, urush va nizolar, ziddiyatlar olamida hayot kechirmoqdamiz. Odam savdosi va ayollar mehnatining ba'zi bir davlatlarda qadrsizlanishi ayni haqiqatdir. Shunday bo'lsa-da, yozuvchilar haqiqiy o'zbek ayoli siymosini yaratish yo'lida ham tarix, ham zamon, ham dunyoda ro'y berayotgan silsilalarni tiyraklik va aql-zakovat bilan ifodalay bilishi tayin.

Ta'kidlash o'rinliki, tadqiqotchi F.Radjabova "Istiqlol davri o'zbek qissalarida uslub va poetik til" falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasida qissa janridagi uslub, tadrijiylik, ichki turlar, yangilanayotgan uslubda ruhiyat talqini tamoyillari, qissalar tilining badiiy-estetik va uslubiy vazifalari kabi masalalarni tahlil qilgan²⁸. Masalan, tadqiqotchi hozirgi o'zbek qissachiligini quyidagicha tasniflagan: "Hozirgi qissachilikdagi evrilishlarda janr va uslub munosabati salmoqli o'rin tutadi. Unda an'anaviy va zamonaviy uslub, publitsistik talqin, psixologik tahlil, ijodiy o'ziga xoslik kabi tamoyillarni kuzatish asosida alohida shaxsni ruhiy-ma'naviy rakursda taftish etish kengaymoqda. Shuningdek, realizm imkoniyatlari qissa va uslub tarkibida yangi xususiyatlar va ko'rinishlarni vujudga keltirmoqda. Bu jihatdan qissaning quyidagi ichki turlari mavjud: 1) dramatik qissa; 2) monolog-psixologik qissa; 3) hangoma qissa; 4) esse qissa; 5) sarguzasht-detektiv qissa; 6) maktub qissa; 7) lirik qissa; 8) **kinoqissa**"²⁹. Bu o'rinda janrlar o'z ichki o'zgarishlarga ko'ra turlanib-tuslanib ketganligiga sabab sifatida adabiyotshunos D.Quronovning fikrlarini keltirish joiz. "Epik janrlarning kino ta'sirida shakllangan modifikatsiyalari – kinoetyud,

²⁸ Radjabova F. Istiqlol davri o'zbek qissalarida uslub va poetik til: fil. Filol. b-cha. f-fa. d-ri. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: 2018. – B. 11.

²⁹ Radjabova F. Istiqlol davri o'zbek qissalarida uslub va poetik til: Filol. fan. b-cha. f-fa. d-ri. (PhD) ... dis. avtoref. – Toshkent: 2018. – B. 11.

kinohikoya, kinoqissa, kinoroman kabilar ham adabiyot mulkida fuqarolik olishga haqli”³⁰. Haqiqatan ham epik tur va janrlarning sinkretizmi, boshqa san’atlarning aralashuvi natijasida, janrning yangi-yangi turlari vujudga keldi. Jumladan, E.A’zamning “Zabarjad”, “Farishta”, “Pakananing oshiq ko’ngli” kinoqissalari yaratildi. To’g’ri, bu qissalar kino qilinishi uchun ssenariy tarzida yaratilgan. Ularni badiiy asar sifatida o’qish mumkin. Olimlar o’rtasida shu tipdagi qissalarni adabiy qissa sifatida o’rganish kerak emas, degan bahsli fikrlari ham paydo bo’ldi. Bugungi o’zbek adabiyotshunosligida kinoqissa, kinoetyud, kinoroman, kinohikoyalar ham o’rganilishi kun tartibidagi masalalardandir.

Badiiy asarning syujeti, kompozitsiyasi, shakli, janri va mazmunini uyg’unlashtirib turadigan yetakchi tasvir usullaridan biri kinoyadir. Kinoya har qanday vaziyatda qahramon obrazini shakllantirishda, yozuvchi maqsadini o’quvchiga aniq va tushunarli yetkazishda muhim omillardan biri sanaladi. Mana shu jihatdan olib qaraydigan bo’lsak, zamonaviy o’zbek adabiyotida qissalarning ko’pchiligi kinoyaviy usulda bitilishi 70-yillarda urfga kirgandi. Kinoyaviy-parodik usul qissalar tabiatida 70-yillar alodi M.M.Do’st, E.A’zam, X.Do’stmuhammaddan keyin istiqlol davrida Luqmon Bo’rixon badiiy izlanishlarida katta o’rinni egallaydi. Murod Muhammad Do’stning “Galatepaga qaytish”, E.A’zamning “Pakananing oshiq ko’ngli” qissalarida ijtimoiy dardning faollashuvini ko’rishimiz mumkin. Bu haqda tadqiqot olib borgan M.Sheraliyeva: “70–80-yillar o’zbek nasrida kinoyaning kuchayishiga olib kelgan ikkita asosiy omil mavjud: birinchisi – davrning ijtimoiy shart-sharoiti, ya’ni obyektiv omil, ikkinchisi – ayni shu shart-sharoitlarda yetilgan va ijodkorlarimiz tomonidan shaxsiylangan ijtimoiy dard-kayfiyat, ya’ni subyektiv omildir. Ahamiyati jihatidan sanalganlardan kam bo’lmagan omillarni ham ko’rsatish lozim: 1) ijodiy-ruhiy omil. 70-yillar avlodining o’zini adabiy avlod sifatida qaror toptirishga, o’z so’zini aytish va muayyan

³⁰ Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – B. 375.

adabiy-estetik prinsiplarni shakllantirishga intilishi; 2) adabiy aloqalar. Rus, boltiqbo'yi, gruzin, arman va boshqa milliy adabiëtlardan ijodiy ta'sirlanish, o'rganish; rus tiliga tarjima qilingan jahon adabiëti namunalari; ijodkorlarning bir qismi (xususan, M.Muhammad Do'st) Moskvada o'qigani, ya'ni 60-yillarda ijtimoiy ideallarga ishonch qaytadan tanazzulga uchragan adabiy muhit kayfiyatini intensiv o'zlashtirish imkoniyati"³¹. Ko'rinadiki, kinoya badiiylik modusi sifatida juda katta qamrovni tashkil qiladi. Eng muhimi, obektiv va subektiv omillar natijasida kinoyaning shaxsiylashgan ko'rinishi yetakchilik qilib, hayotning juda katta qismini tashkil qila boshladi. Kinoya badiiy syujet chiziqlarida quyidagi jihatlarni yuzaga chiqishiga katta zamin yaratadi: 1) yozuvchi ijodiy konsepsiyasida muhim sanalgan voqelik zanjirini syujet va kompozitsiyada birikuvini, xarakterning ochilishida hamda davrning manzarasini anglashda; 2) o'tmishning asoratlaridan xulosa chiqarishga olib keluvchi yozuvchi tanlagan davr nuqtai nazarini idroklashga; 3) jamiyatdagi illatlarni bartaraf etishga turtki bo'luvchi ijobiy sifatlarni o'quvchi ongiga singdirishga. Mana shu jihatlari kinoyaviy-parodik usul o'ziga xosligini dalolatlaydi.

Adabiyotshunoslik lug'atlarida atamaga shunday ta'rif beriladi: "Kinoyaviylik 1) komiklik ko'rinishlaridan biri, voqelikka g'oyaviy-hissiy munosabat turi. Bu holda muallif butun asar voqeligiga yoki uning bir qismiga (ayrim xarakterlarga) nisbatan kinoyaviy munosabatda bo'ladi, asar kompozitsiyasi kinoyaviy nuqtai nazarni ifodalashga mos ravishda quriladi. Kinoyaviy munosabat ideal va voqelik o'rtasidagi keskin nomuvofiqlikni anglashdan tug'iladi. Shunga ko'ra k.ning maqsadi faqat kulgi hosil qilishgina bo'lib qolmay, vaziyatning qanchalik jiddiyligi va hatto fojeiyligini ham ta'kidlab ko'rsatishdan iborat bo'ladi. Kinoyada tasdiq orqali inkor yoki inkor orqali tasdiq ma'nosi ifodalanadi"³². Qissa poetikasida

³¹ Sheraliyeva M. Hozirgi o'zbek nasrida kinoya. Filol.fan.dok.diss. avtoreferati. –T.2017. – B.12.

³² Quronov D. va boshqa. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T.: "Akademnashr. 2013. –B.132-133.

kinoya davrning ruhini aks ettiribgina qolmay, qahramon intellektini am jiddiy sinovdan o'tkazadi. Masalan, M.M.Do'st qissalarida ijtimoiy dardning o'ziga xos qirralari yoritilsa, L.Bo'rixonning asarida individual uslub mohiyatini ochishga xizmat qiladi. Hozirgi kunda kinoyaviylik modusi badiiy asarning tuzilishini belgilashdagi ahamiyati ortib bormoqda. Qiyoslab ko'ramiz. Ayol obrazini qay tariq kinoya li muhitning ta'siri, davrning muammolarini nechog'li hal etishga qaratilgani ayonlashadi. M.M.Do'stning "Galatepaga qaytish" qissasida G'aybarova va Samad talabalikdan birga qalin do'st bo'lib, ularning davr muammosiga o'z qarashlari bilan javob beruvchi qahramonlar. Samad o'zini juda yaxshi ko'ruvchi, o'zgalardan ustun turuvchi sifatida umr kechiradi. Bir qarashda ularning munosabatlarida ham bir-biriga achinish hiss yo'q. Har ikkala qahramon davrning ichida, ya'ni sobiq ittifoq ideologiyasida kamolga yetadi. Ular o'zlarini biror ishga mas'uliyatli sifatida ko'rmaydi. Zamonasining tipik vakili sifatida yozuvchi ulardagi xarakterlararo munosabatli nutqni kinoyaviy-parodik usulda idroklab boradi. G'aybarovning ruhiy-falsafiy holati qissaning "Xotiro" nomli 11 bobida bir jumla bilan tahlil qilingan:

"Hamma narsadan hovli sahnini eslash osonroq – tuproqsupa, tepada bir parcha osmon, sahndagi ikki tup tutning uchlariga qaramay ilojing yo'q, boshidan oxirigacha qaraysan va tepada osmon ko'rinadi: so'ng supaning g'arb tarafidagi uy, uning derazalari, devordan chiqqan dudquvur, afsuski, xotiradagi manzarada undan tutun chiqmaydi – xotiro ko'proq yoz mahaliga bog'liq, yozda tutun hovli burjidagi o'choqdan chiqadi; ikki tut orasiga tortilgan sim dor, dorga ilingan kiyimlar, bir xillaridan, deylik, chakmondan, qo'ng'irsiq jun hidi keladi, kechki payt, epkin yo'q, tuproqqa suv urilgan, kechki payt ekani shundan bilinadiki, havoda jun hidi aralash issiq va nam hovur kezadi, bog' tarafdin rayhon bo'yi adashib keladi, otaning o'ng yelkasi, yelkada o'tirgan to'rt yashar bolakay (bu –G'aybarovning o'zi) bolaning sim dorga uzatilgan qo'li, so'ng tutlar, dordagi kiyimlar silkinadi, sustgina,

bolaning kuchi yetgani qadar, ba'zida ular sal keskinroq silkinadi, – otaning ham qo'l uzatgani bilinadi; tutlar hali yosh, nari borsa yetti-sakkiz yillik, tanlari nozik, hali sim dorning uchlaridagi halqa ularning eniga mos, keyinroq borib tutlarning tanasi qiyiladi, keyinroq borib, sim dorni po'stloqlari orasiga yutib yuboradi, lekin bunga hali ko'p yillar bor, ko'p yillar, hozircha bundan yigirma sakkiz yil muqaddam ota to'rt yashar o'g'ilchasini yelkasiga mindirib, hovli sahnini aylantiradi”³³.

Qissadagi polifonik ovoz kinoyaviy nutq yaxlitligini idroklashga yo'l ochmoqda. Mana shu birgina monologik nutq G'aybarovning kim ekanligini to'laqonli asoslaydi. Asardagi o'lim tasviri muqaddimada G'aybarovning Raim oqsoqolning o'limiga arang yetib kelganini hisobga olsak masala mohiyati chandon oydinlashadi. Chunki qissaning “Aza” nomli bobi bilan “Xotirot” orasidagi voqelik syujetning to'laqonli chiziqlarini tashkil qiladi. Onaning yolg'iz o'tishi, ayol boshi bilan farzandlarini katta qilishi, “quloq”larning gapi bilan Raim oqsoqolga yil kesilishi va undan keyingi bola tasavvuridagi barcha hodisalar G'aybarovning xarakterini birgina jumla asosida ochib tashlaydi. E'tibor bering azada ham yurak-bag'ri toshga aylangan G'aybarov ko'ziga otasi uchun yosh olmaydi. Faqat uni atrofdagi tanish-bilishlari, “bir marta yig'lamaysanmi” deyishsa ham javob yermaydi. Bu qahramonning bolaligidan “o'simta”dek o'sib kelayotgan mehr-shafqatsiz bo'lib katta bo'lishida ko'rinadi. Toshbag'irlik, o'zidan boshqani o'ylamaslik, sovet ideologiyasidagi shaxslarning mutelikka va e'tiqodsizlikka, shaxsga sig'inish oqibatlari qanday ko'rguliklarga olib kelishini mana shu asard yozuvchi – kinoyaviy-parodik usul bilan ochilaydi.

Davr va muhit suratini tasvirlash prinsiplari o'tgan asrning 60-70-yillarida yozilgan qator asarlarda juda go'zal tarzda ifoda etilgan. Bu haqda so'z borganda, Stalin qatag'onidan keyin urush va urushdan keyingi, Stalin vafotidan so'ng bo'lib o'tgan voqealar

³³ Murod Muhammad Do'st. Galatepaga qaytish. –T., G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009. –B.181-182.

tizmasida yanada yaqqolroq nazarga olingan. Bilamizki, shaxsga sig'inishning zararli oqibatlarini M.M.Do'st qahramonlari juda teran tahlil qiladi. Falsafiy-polifonik tafakkur asardagi har qanday voqelikni birlashtirishga yo'naltirilgan. G'aybarov va Samad tabiatda bolalikdan o'sib. Kurtak otgan o'ta ayyorlik va o'zidan boshqani o'ylamaslik kaslligi jamiyatdagi shunday avlod yetishib kelganini to'laqonli tasavvur qilishga imkon beradi. Onaizorning nolalari faqat Allohga yetadimi? Jamiyat-chi? Jamiyatdagi ichki ziddiyatlarda maishiy-ijtimoiy turmush yakrangligi, sochilib ketgan millat ruhiyatida kamolotga chiqayotgan avlod kelajagichi? Bunday og'riqli savollar faqat o'sha davrning emas, bugunning ham savollari, mulohazalari ekanligini unutmasligimiz muhim. Negaki, "dolzarb mavzu ham, turmush material ham, romandagi tabiat tasviri ham, ijobiy qahramonlardagi o'z kasb-koriga doir chuqur bilim bayoni ham – agar yetuk xarakterlar, davrning badiiy tiplari darajasiga ktarilmas ekan, asarning umrboqiyligini ta'minlay olmaydi. Davrga hamnafaslik yozuvchidan o'z zamonasining ijtimoiy hayotidagi yetakchi tarixiy voqealarni va yangi ijtimoiy axloqiy ehtiyojlarni yetuk xarakterlarda umumlashtirib, tipiklashtirib, individuallashtirib berishni talab qiladi. Bu barcha davrlar, barcha zamonlar, barcha mamlakatlar yozuvchilari oldidai badiiy adabiyotning qo'yadigan talabi, ijod qonuniyati, g'oyaviy-badiiy barkamolliking taqozo etadigan doimiy mezon va xususiyatidir"³⁴. Shu ma'noda, M.M.Do'st "Galatepaga qaytish" qissasida o'tmish asoratlari va uni tug'ib bergan jamiyat illatlarini mishiy-ijtimoiy muhit suratlarini o'tkir sarkazm bilan dalolatlaydi. Bunday usul yozuvchining "Lolazor" romanida ham o'z aksini topgan. Yozuvchi keyingi lavhada quyidagi tasvirlarni syujetga omuxtalashtirib, har ikki do'stning millat va oila oldidagi burchni, Onaizorning kuyib, kul bo'lib vafot etish holatlarini qalamga oladi. Retrospektiv usul

³⁴ To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. -T.: "Universitet". 2001. –B.28.

qissada voqelikni juda g'aroyib tarzda bayon etilishiga imkon beradi?

“Keyin kampir rostdan ham qazo qilganda, G'aybarov o'sha o'ylari uchun o'zini aybdor sezdi. Onasini yerga berib qaytgan Samaddan ko'ngil so'rashga borib. Uni xushro'ygina bir juvon bilan mast bo'lib o'tirganini ko'rdi. Ta'ziya bildirgani tili aylanmadi. Samad uni ichkariga qo'ymadi hisob, dahlizda turib uzoq yig'ladi, enamni yo'qotib qo'ydik, do'stim, dedi, yaxshi ayol edi, meni oyoqqa turg'azdi, odam qildi, o'zining nasibasidan qiyib, menikiga qo'shdi, endi do'stim, o'lib qoldi, endi men yolg'izman, hech kimim yo'q, yolg'izlik yomon, do'stim, yolg'izlikni unutay deb ichdim, meni kechir, jon do'stim, o'zing ayt, xudolig' yuzasidan ayt, bechora yana o'n yilcha yashasa nima qilardi, axir, boshqalar yashayapti-ku, nega mening bechora enam yashamaydi? Yomon, yomon do'stim, odamning dunyoda biror huzur ko'rmay, qarigani yomon, bechora shu yil saksonga kiruvdi...

G'aybarov Samadga achindi. Uni o'zicha tushungan ham bo'ldi. Ammo yo'lda, ko'ngilda qandaydir, tugun shalvirab ketayotgan mahali bechora kampirning hali yetmishga ham kirmaganini esladi...”³⁵

Xotira – qahramon va muallif nutqini (M.Baxtin) uyg'unlashtirib, syujetning asl voqeligini inkishof qilishga zamin hozirlaydi. Unda qissago'y o'zining ham mushohada, mulohazalarini qo'shib, asosiy maqsadga biriktirib yuboradi. Asardagi xotira leytmotivi yozuvchining qahramonlarning har biri nutqida ro'y beradi. Buni shunday izohlash mumkin.

Prof.A.Rasulov roviy obrazi haqida: “Roviy – yozuvchining ishonchli vakili. Roviy – adibning badiiy asarlaridagi ko'rar ko'zi, eshitar qulog'i, so'zlaydigan tili, ushlaydigan qo'li. Roviy – rakurs nuqtasi, baholovchi markaz. Roviy – asardagi ruh ifodachisi, ayni vaqtda roviy yozuvchining o'zi emas. Roviy – yozuvchi inon-ixtiyorini bajaruvchi, san'atkorlik uquvini ifoda etuvchi vosita.

³⁵ Ko'rsatilgan adabiyot, -B.220-221.

Nihoyat, roviy – soʻzshunos, har bir soʻz holati, imkoniyati, evrilishi, tovlanishlarini oʻta nozik his qiladi”³⁶ deya izohlaydi. Demak, M.M.Doʻst “Galatepaga qaytish” qissasida Gʻaybarovning xayolida boʻlayotgan voqelikni baʼzan Samadning tasavvuri bilan berishga bel bogʻlasa, baʼzan Ona obrazi timsolida eslash, xotirlash, achinish hissi bilan toʻyintiradi. Mavjud usullar negizida qahramonning intellekti namoyon boʻladi. Jamiyatdagi boʻlayotgan illatlarga, muhitdagi oʻzgarishlarga asardagi qahramon sabachimi yoki boshqa bir asrori bormi degan tizginsiz oʻylar syujetni birin-ketin harakatlantirib boradi. Yani bir muhim jihatga eʼtibor qaratamiz. Nega aynan “Aza” va “Xotirot” orasidagi bob asarning 90 foizini tashkil qilmoqda? Buning mohiyatida F.Dostoyevskiyga oʻxshab, yoki L.Tolstoy anʼanalarini sarkazm, kinoya bilan ochib berish masalasi turibdimi? Bu savollar har qanday munaqqid-tadqiqotchini oʻylantirishi tabiiy. Asarda ayon-ayonda koʻrinib qoladigan Ona orazi aslida asarning yadrosidagi barcha voqelikning asosiy figuralaridan biridir. Agar ona boʻlmaganida ular tugʻilmasdi. Ota qamalib, Ona bilan yolgʻiz kechirgan hayot sobiq ideologiya bilan toʻyintirilayotgan “ong” va “tafakkur” yuvilib yetilayotgan jamiyatning faol ishtirokchisi boʻlib gavdalanadi. Mana shu jihat davrning achchiq xarakterli jihatlarini namoyish qilib, oʻquvchini falsafiy mushohadaga, oʻylar girdobiga chorlashda davom etadi.

“Qissa janrida roviy – “qissanavis” obrazining ahamiyati katta. Kompozitsion-hikoya usuli shakllarining oʻziga xosligini qissanavis obrazi orqali ajratib olsa boʻladi. Maʼlumki, asarda ishtirok etayotgan koʻplab obrazlarning har biriga yozuvchi alohida sayqal beradi. Qissanavis esa asardagi qahramonlarni birlashtirib turadi. Asarda qissanavis obrazi masalasini birinchilardan boʻlib maxsus oʻrgangan rus olimi V.V.Vinogradov hikoyanavis obraziga “asar mohiyatining jamlangan tarzda namoyon boʻlishi”³⁷, deya izoh

³⁶ A. Rasulov. Badiiylik – bezavol yangilik: Ilmiy-adabiy maqolalar, talqinlar, etyudlar. – T.: “Sharq”, 2007. 310 - b.

³⁷ Vinogradov V.V. O teorii xudojestvennoy rechi. - M., 1971. - S.118.

beradi. Rus adabiyotshunosligida ushbu muammo akademik V.V.Vinogradov, M.Baxtin, M.P.Brandes, Y.M.Lotman, B.O.Korman singari olimlarning ishlarida chuqur o'rganilgan bo'lsa, qissanavis obrazi bilan bog'liq masalalar taniqli o'zbek olimlari – O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, N.Karimov, U.Normatov, S.Mamajonov, S.Mirvaliyev, A.Rasulov va boshqa tadqiqotchilarning ishlarida ham o'z aksini topgan³⁸. Binobarin, tadqiqotchining mulohazalarida jon bor. Negaki, qissadagi roviylik yukini M.M.Do'st va uning salaflari izlanishlarida qahramonlar xatti-harakatida "ko'chib turuvchi" tarzida baholash mumkin. Shuningdek, asardagi har bir ishtirokchi o'z nutqiga ega. U davrni ham, mavjud muhitni ham, siyosatni ham puxta anglagan, ziyoli, fikrlovchi insonlardir. Syujet asosan shahar va qishloq orasida xotiralar, ayrilishlar, sog'inchlar, hijronlar motivi bilan o'rin almashinib, kompozitsiyaning muvofiqligini ta'minlashga qaratiladi.

Qissada kinoya qilinayotgan dard ham, jumboq ham, muammo ham – jamiyat a'zolarining ruhiyatida avloddan-avlodga ko'chib yurgan ko'rinishlaridir. Faqat muhitning suvratini ochiq-oydin tasvirlab bo'lmaydi. G'aybarov bilan Samad ruhiyatidagi evrilishlar N.Eshonqul ta'biri bilan izohlaganda "yovvoyi illatlar og'ushida umr kechirishga to'g'ri kelganligida seziladi"³⁹. Demak, G'aybarovning kayfiyatidagi o'sish-o'zgarishlarni tarbiyalab yetishtirgan muhitning asl suvratini tasavvur qilib ko'rish mumkin. Masalan "Ham do'sti, ham sevgan qizining xiyonati tufayli G'aybarov his qiladigan iztirobning unga qizig'i yo'q: G'aybarovning o'zi aybdor. Do'stining xiyonatidan hozircha G'aybarovning bexabarligi hisobmas, voqeaning aslini Samad o'zi yaxshi biladi-ku, qilmishi uchun ma'naviy javobgarlik his qilishga shuning o'zi yetarli. Ammo Samadda vijdon azobi sezilmaydi. Boshqa bir do'sti, ko'zi ojiz bo'lib qolgan Qobilning xotini Mazlumaga jazman ekanini ham Samad

³⁸ Boboxonov M. O'zbek qissachiligida badiiy psixologizm. Filol.nomzld.diss.–T. 2012. – B.102.

³⁹ Eshonqulov N. Ijod falsafasi. –T.: "Akademnashr". 2018. –B.24.

xuddi yuqoridagi sxemada talqin qilsa ehtimol, ya'ni: "Qobilning ko'r bo'lib qolgani uchun men aybdor emasman-ku" tarzida"⁴⁰. Qissada Qobil ham yoshligida qor tagida qolib ko'r bo'lib qolgani haqida voqealar keltiriladi. Biroq u asosiy figura sanalmaydi. Yozuvchi voqelarni xuddi ipak qurti ip o'rgandek qilib, bir-biriga chirmovuqdek chuvalashtirib tashlaydiki, asarni diqqat bilan mutolaa qilmasangiz adashib ketish mumkin. Bu yozuvchining uslubiy yutug'i hamdir.

Umuman, qissaning o'ndan ortiq o'rinlarida kinoyaviy-parodik usulning o'ta murakkab tasvirlarini, asardagi voqelikning goh shiddatli, goh tiniq oqimini bir-biriga payvandlab turadigan yengil piching tarzida namoyon bo'lishini anglayJarayon shuni taqozo etadiki, yozuvchikechagi kundan qanday xulosa chiqarsak ham, uni o'zgartiradigan katta bilim va tafakkur kerak degan konsepsiyani G'aybarovning ma'ruzalari tarzida "asosiy voqelikka" qistirib o'tadi. Mana shu prinsip, adibning mahorati benihoya yuksakligidan dalolat beradi.

Davr va qahramon birligi. Iste'dodli yozuvchi Luqmon Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan", "Ayol ko'z yoshlarga ishonmaydi" kabi qissalarida matonatli ayollar obrazini M.M.Do'stning qissalaridagi tasvir usullariga xamohang tarzda go'zalligi, jozibasi bilan kashf qilgan. Asarlarida kinoyaviy-parodik usul qahramonlar ruhiyatini tartibli ravishda inkishof qilishga yo'l ochadi. Masalan, "Quyosh hali botmagan" qissasida ikkila do'stning buyuk muhabbatni jismoniy kuch bilan emas, ma'naviy kuch, qalb sezgilari bilan zabt etish mumkin degan konseptual g'oyani ilgari suradi. Prof. Q.Yo'ldoshev L.Bo'rixon ijodi haqida shunday tasvirlaydi: "Odatda, jabr tortgan kishilar tasvirida mayin ranglardan ko'p foydalanilardi. Chunki har bir odam tortayotgan jabrining o'zi bilanoq boshqalarni hamdardiga aylantiradi. Milliy adabiyotimizda chuqur ildiz otgan ana shu an'anani Luqmon ilk bor

⁴⁰ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/murod-muhammad-dostning-galatepaga-qaytish-qissasidagi-ikki-obraz-tahlili.html>

buzishga jur'at etdi. U ulkan baxtsizlik komiga tushgan opani ham, Fayzulla akani ham tabiatiga mos tarzdagina ko'rsatish yo'lidan boradi. Taqdirning kutilmagan siylovlariga ham, nogoh sinoviga ham duch kelgan bu kishilarning Lolaxon holatini tushunadigan darajada sezgir, uning tabiiy istaklariga mayl bildiradigan darajada insofli emasliklari asarda boricha ko'rsatiladi"⁴¹. Prof.Q.Yo'ldoshevning bu mulohazalari haqiqatdan ham o'rinli. Chunki ilk ijodini hikoya yozishdan boshlab, qissa va romanlari bilan boyitgan yozuvchi matonatli o'zbek Ayoli obrazini tipiklashtira oldi. Bu tipiklashtirish L.Bo'rixonning barcha asarlarida o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi:

“Biz hali Absal polvonni tanimas edik.

Ming to'qqiz yuz sakson ikkinchi yilning bahorida, erta-indin jahon urushi boshlanar emish degan mish-mishlar xo'b avj olgan kunlarning birida usta Abilning uyida qoramag'iz, to'zg'in sochlari jingiltob, qoshlari qiyg'och, kipriklari uzun-uzun, ko'zlari mayus, yetti-sakkiz yashar qizaloq paydo bo'ldi. Jangu jadal boshlanib, atom bombalari kasofatidan dunyoning kuli ko'kka sovrilsa, molu mulkim kimga ham qolardi degan o'yda iztirob chekib yurgan usta Abil sahar chog'i bisotidagi bor-yo'q ikki bosh oriq qo'yni bir paytlar pochtachi Tog'ay tog'adan sotib olgan mototsikli aravachasiga yuklab viloyat markazi biqinidagi bozorga yo'l olgan va kechga yaqin ko'rganlarni hangu mang qoldirib shu qizchani olib qaytgan edi. Kimdir uni shahardagi tashlandiq bolalar internatidan xatlab olibdi de-sa, tag'in birov usta qizchani bir bosh sovliq evaziga lo'lilardan sotib olgani haqida gap-so'z tarqatdi, ya'ni allakimning qasamlar ichib pichirlashicha, har-biy xizmat chog'i Abil bilan do'st tutingan marilik bir turkman chavandoz qiyomatlik birodari ko'p yillardan beri tirnoqqa zor, aziyat chekib yurganiga chidayolmay o'zining besh qizidan birini jo'rasiga farzandlikka beribdi. Alqissa, bunday mish-mishlarning, shivir-shivirlarning uch-quyrug'i yo'q edi. Kimning gapi chin, kim-niki o'trik, birov aniq-tiniq bilmaydi. Ammo

⁴¹ Yo'ldoshev Q. Yoniq so'z. –T.: “Yangi asr avlodi”. 2006. –B.504-505.

bir hol aniq ediki, o'sha kuni Uldon checha eri boshlab kelgan qizaloqni ko'z yoshu siniq tabassumlar bilan bag'riga olgan, manglayidan o'pib, sochlarini silagan, yuz-ko'zida mamnunlik, minnatdorlik zohir bo'lgan"⁴².

Qissa avval jurnal varianti "Yoshlik" jurnalida chop qilinib, kitob holida 2016 yil nashr qilindi. Qissaning muqaddimasidagi kinoyaviy-parodik usulga e'tibor bering. Voqelik o'tgan asrning 80-yillari miyonasida bo'lib o'tmoqda. Tanzila ismli qizni asrab olgan tafsilotlar bilan boshlanadi. Demak, afg'on urushi yillariga to'g'ri keladi. Tanzila ismli qizning qishloqqa kirib kelishining o'zi bir to'p oilani baxtini ochilishiga sabab bo'ladi. Yozuvchi syujetni shu qadar tiniq bir chiziqlarda tasvirlaydiki, o'quvchi maroq bilan huzurlanadi. Qissadagi Norsaot va Davron obrazlari tilidan aytilayotgan **"Biz hali Absal polvonni tanimas edik."** Jumlasining o'ziyoq hali Absal polvon bilan bog'liq voqeliklar oldinda ekanligiga ishora berilmoqda. "Oriyat toji" deya maqola bitgan O'rolboy Qobil: "Qissasini mutolaa qilar ekansiz, beixtiyor bolalik va o'spirinlik paytlaringiz yodingizda qayta jonlanadi. Asarda tilga olingan barcha qahramonlar siz uchun begona emas, siz ularni yaxshi taniysiz. Norsoatning Tanzilaga bo'lgan ilk muhabbati yuragingizda ajabtovur xotiralarni uyg'otadi. Qizga yuragidagi otashin sevgisini izhor etmoqqa ma'shuq uchun naq besh yil ketdi. Qiz bechora birgina shu so'zni qanchalar intiqib kutmadi, deysiz. Shu o'rinda siz Davronni ham yoqtirib qolasiz. Uning qaysarligi, dangalligi, mardligi va metin irodasiga qoyil qolasiz. Uning ba'zida haddan oshirib yuborgan xurmacha qiliqlari ham o'ziga qanchalik yarashgan. Shu qiliqlari bo'lmasa, obraz to'laqonli chiqmas *edi*".⁴³ Darvoqe, qissada bu ikki do'stning bir-birlari bilan kurash tushishlari, oldinda quyosh hali botmasdan porlab turishlari haqqoniy chiqqan. Qissada poetik talqin yozuvchining milliy adabiyotimizda oldindan bor qoliplarni

⁴² <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

⁴³ <https://kh-davron.uz/kutubxona/multimedia/luqmon-borixon-qissa.html>

parchalab, yangicha, zamonga mos tarzda idroklaganida ko'rinadi. O'tgan asrning yetakchi tasvir usuli deya e'tirof etilgan kinoyaviylik L.Bo'rixonning barcha asarlarida o'z ifodasini ko'rsatadi. Masalan, cho'lquvarlar hayoti aks etgan ushbu qissa badiiyatida sizni bizga tanish odamlar ruhiyati fikringizni quvvatlaydi. Sababi L.Bo'rixon hayotning o'zidek qilib tasvirlash usulini butun kinoya modusiga joylaydi. Kinoya modusi – Luqmon Bo'rixon ijodida xalqning orzulari, iztiroblari, sobiq yakkahokimlikning yetkazgan moddiy-ma'naviy, ruhiy-ijtimoiy zararlari, odamlarning tashvishlari sifatida namoyon bo'ladi.

“Quyosh qoq manglayimizda tantanavor porlab turardi. U go'yo bu yerlarda besar yurgan bahorni jizg'anak qilishga bel bog'lagandek chor-atrofnı ayovsiz qiz-di-rardi. Bahor esa dov-daraxtlarning quyuq, yam-yashil yaproqlari qatidan, ariq-sayxonliklar chekkasida ko'm-ko'k ko'kargan chechaklar, o't-o'lanlar orasidan qo'r-qa-pusa mo'ralaydi. Qaldirg'ochlar havoda charx urib, chumchuq-chug'urchuqlar bezovta chirqillab go'yo uni qo'-riq-la-gan bo'ladi.

Tanzila ikkimiz shodon kayfiyatda qishloqqa qayt-dik. Uning kulishlariyu to'satdan mayus tortib qolishlari ham, yuz-ko'zini qoplab tushgan jingil soch---larini qo'lchalari bilan tez-tez orqaga tarab qo'-yishlari ham, hamma-hammasi o'ziga yarashardi. Men un-ga qarab to'ymasdim. Tanzila goh men bilan qo'l ush-la-shib olar, goh yo'l chekkasidagi mayda toshchalardan terib qator tutzor tomon otar, goho o'rmalab yurgan hashoratlarni, uchib-qo'nayotgan qushlarni uzoq tomosha qilib qolardi. Sen aslida kimsan, bu yerga qanday kelib qolding, o'zing qayerliksan, deb so'ragim kelardiyu ammo botina olmasdim. Nazarimda bunday so'rovlar Tanzilani qattiq xafa qilib qo'yadigandek tuyulardi. Men esa uning xafa bo'lishini, yirik-yirik ko'zlari jiqqa yoshga to'lishini sira-sira istamasdim.

Bir payt qishloq tomondan lo'killagan ko'yi chopib kelayotgan usta Abilga ko'zim tushib qoldi. Tanzila yalt etib menga o'girildi.

Uning qaroqlariga yana xavotir soya soldi. Men jilmaydim. Bosh barmog'imni havoga nuqib, so'ng yalab qo'ydim. Tanzila yana kulib yubordi"⁴⁴.

Qissaning o'tgan asr voqeligi bilan uzviy tutashuvi yurtimizda olib borilgan cho'llarni o'zlashtirib, tog'liklarni ko'chirib olib kelib hayot kechirishga o'rgatishga ham borib tutashadi. Negaki, adibning qalb iztirobi qissada Tanzila siymosida boshqa bir millat vakilini emas, o'zbek xalqining bag'rikengligini, oilaparvarligini ham ifodalashga qaratiladi. L.Bo'rixonning "Quyosh hali botmagan" qissasidagi ideallashtirishga olib kelgan tuzumning kirdikorlari asar muqaddimasidayof o'quvchiga fosh qilinadi. Absal polvonni bilmagan ikki do'stning taqdirini "bilish" malakasi tubdan o'zgartirib yubordi. Omadsizlik ularni elga taniqli polvon, o'zaro ahdlashgan oshiq sifatida ko'kka olib chiqadi. Qissada folklor an'analaga xos qahramonlik xarakterlarda ham kurash tushish jarayonlarida ko'zga tashlanadi. YA'ni "Ideallashti-rilgan obraz soxta ideal asosida yuzaga keladi, soxta ideal esa mavjud shart-sharoitlar bilan hisoblashgan, ularga moslashgan holda ideal talablarini tanlash va amal qilishni anglatadi. Bu o'rinda mavjud holatning nobop jihatlariga qarshi qo'yilgan (haqiqiy) ideal bilan ana shu nobopliklarga moslashish, ular bilan kelishuvga borish asosida tanlangan (soxta) idealni farqlash kerak bo'ladi. Inson nobop sharoitga moslashganligi (mavjud "men") haqidagi tasavvurni ongli hayotidan quyiga – ong ostiga tushirib yuboradi, o'zini faqat ideallashtirilgan obraz holida ko'radi. Ideallashtirayotganidan bexabar holda o'z holatini meyor deb hisoblaydi. Demak, inson ongidagi ideallashtirilgan obraz o'z ijtimoiy-axloqiy meyorlaridan chekinmaganlik illyuziyasidan boshqa narsa emas"⁴⁵. Haqiqatdan ham, o'tgan asrning idealga asoslantirilgan soxta mafkurasi negizida qanchadan-qancha asarlar yaratilgandi. Buni teran payqagan yozuvchi L.Bo'rixon idealni

⁴⁴ <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/luqmon-borixon/luqmon-burihon-quyosh-hali-botmagan-hikoya/>

⁴⁵ <https://adu.uz/fayl/ilmiy-bolim/avtoreferat/sheraliyeva.pdf>

kinoya bilan tavsiflab chiqadi. Qahramonlarning turush-turmishi, ma'naviy bo'liq va soxta qarashlarning inson ruhiyatini o'rab olishi alaloqibatda qanchadan-qancha fojealarni yuzaga chiqishiga sabab bo'lishini bo'rttirib tasvirga oladi. Qissada Tanzilaning yum-bm ko'z yoshlari ham bejiz emas! U o'z tabiatiga xos umr kechirishni xohlardi. Afus davr va muhit, atrofdagi odamlarning "or-nomusi" deb chidashi shular jumlasidandir. Qahramonlar bu qismatning asl ildizi nimalarga borib tutashuvini juda kech anglaydi.

Umuman, hozirgi o'zbek qissachiligida yuzaga kelgan yetakchi tasvir predmetlaridan biri kinoyaviy modus davr va muhit haqida tayinli xulosalarni aniqlashtirishda qo'l keladi. Shuning uchun ham tarixga baho berishda davrning yetaki tendensiyalarini, zamonning ilg'or g'oyalarini, ko'tarilga muammoning dolzarbligini hisobga olish zarur. Ayol obrazini yaratishda M.M.DO'st, E.A'zam, L.Bo'rixon kinoyaviy-parodik usuldan o'rni-o'rnida foydalangan bo'lsa, N.Eshonqul, U.Hamdam, I.Sulton ramziy-majoziy, metaforik yo'sinda kashf qilishga katta ahamiyat berishadi. Har bir yozuvchi hayot materialini o'z ifoda uslubi, talqin yondashuvi, olam va odamni anglash modifikatsiyasi o'ziga xosligi bilan qayta kashf qiladi. Ana shu tamoyil istiqlol davri qissalarida ayol obrazining poetik olamini qiyoslab aniqlashtirishda katta ustqurma vazifasini bajaradi.

BOB BO'YICHA XULOSA

Insoniyat badiiy tafakkurini rivojlanishi o'z-o'zidan taraqqiy etgan emas. Buning uchun har bir davrning o'z daholari va yozuvchilari bo'ladiki, ana o'shalarining ijodiy izlanishlari, bir xalqning boshqa xalq ruhiyatiga ta'siri negizida ro'y beradi. Jumladan, o'zbek va rus qissachiligida badiiy psixologizm va ijodkor fitrati, konseptual qarashlar tufayli barqarorlashdi. Ayniqsa, ijod o'ziga har qanday sharoitda yo'l izlaydi. Yozuvchi ayni shu yo'lni topsagina iste'dodini, badiiy mahoratini namoyon qiladi. O'zbek qissachiligida psixologizm ildizlari va shartlari, prinsiplari bo'yicha birinchi bobda quyidagi xulosaga keldik:

1. Qissa janriga oid tadqiqotlarning aksariyatida badiiy psixologizmning turlari, shakllari har bir yozuvchining badiiy uslubi bilan chambarchas bog'liq ekanligi ayonlashdi. XIII asrga oid o'zbek adabiyotida qissanavislik an'anasining vujudga kelishi, har bir yozuvchi (shoir)ning badiiy izlanishlari maznaviy, she'riy, hasbi hol tarzida bayon etilgani sir emas. Keyinchalik XIX asrning ikkinchi yarmida, Turkistonda vaqtli matbuotning yuzaga kelishi ocherk va hikoya, qissa va romanlarning tez suratda yaratilib, taraqqiy etishiga zamin yaratdi. Mana shu izlanishlar o'zbek qissachiligining tamal toshini qo'yilishiga olib keldi.

2. Lev Tolstoy an'alarining o'zbek qissanavislarda aks etishi XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, A.Qahhor, Pirimqul Qodirov, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov singari yozuvchilar badiiy izlanishlarida qissa janrining komik, tragik, psixologik, avtobigorafik shakllari qabarib ko'rinadi. Birgina Lev Tolstoyning "Bolalik" qissasining o'zbek adabiyotida bo'y ko'rsatgan turli hil shakllarining o'ziyoq yuqoridagi mulohazalarimizni dalolatlaydi.

3. Har qanday adabiy ta'sirning o'z tarixi, ildizlari va shakllanish mexanizmi mavjud. Tarjima va mutolla tarzida ham o'zga xalqlar yozuvchilari ulardan yaxshigina asar yozishni o'zlashtira olishi mumkin. Shu ma'noda yozuvchi Lev Tolstoyning badiiy izlanishlari

o'nlab yozuvchilarga katta g'oya berganligini unutmaslik lozim. Mana shu tamoyilga amal qiladigan bo'lsak, Lev Tolstoyning boy ma'naviy merosi o'zbek nasrida (qissa) badiiy psixologik yo'sinda go'zal asar bitish manerasining yuzaga kelishiga katta zamin yaratdi. Buning tarixiy sharoit va milliy ong va tuyg'uda aks etish jihatni bugungi adabiyotshunoslik fani e'tirof etishi tayin. Zero, badiiy nasrning hikoya va roman o'rtasida turgan qissachilikda hali ko'plab "ochilmagan qo'riq"larning mavjudligini unutmaslik lozim.

IKKINCHI BOB:

QISSADA SYUJET BILAN BOG'LIQ KOMPONENTLAR DINAMIKASI

2.1. Qissa badiiyatini ta'minlovchi unsular

XX asr o'zbek va rus qissalari badiiyat olami haqida so'z ketganida, avvalo, davr sindromi, mafkura, ziddiyatli kechmishlar uyg'unlashuvi ko'z oldimizda gavdalanadi. Negaki, badiiy til hamisha uslub tashuvchi emas, shakl hamda mazmunni ham barqarorlashuviga zamin hozirlaydi. Lev Tolstoyning, Feodor Dostoyevskiyning badiiy izlanishlari ana shunday tasavvur uyg'otishga imkon beradi. chunki Shukur Xolmirzayevning falsafiy-ijtimoiy hayot tartibotlari Xurshid Do'stmuhammad ijodida ham bo'y ko'rsatib, inson konsepsiyasi, mustaqillikka intilish zarurati qabarib ko'rinadi.

Qissa poetik olamida komponentlar dinamikasi. Dunyo antik zamonlardanoq badiiyat haqida so'z borganda, dastlab, Arastuning "Poetik" talqini bilan oziqlana boshlaganini e'tirofetishadi. Keyinchalik rus munaqqidi V.G.Belinskiy qayd etishicha: "Munaqqid V.G.Belinskiy ta'biri bilan aytganda: "Narsalarning qadri – bir-biriga qiyos qilinganda bilinadi. Agar ikki yozuvchi bir turda ijod qilib, bir-biriga qandaydir o'xshashligi bor ekan, binobarin, ularni parallel joylarga qo'yib bir-biriga qiyosan baholashdan boshqa iloj yo'q; eng odil tarozi shu. Balzakka e'tibor bering: povestlarida biri ikkinchisiga pich o'xshab ketadigan loaqal bitta xarakter, loaqal bitta shaxs uchramasligiga qaramasdan bu zot qanchadan-qancha asarlar yozib tashladi. O, xarakterlar individualligining jami qirrlarini tasvirlashdagi aql bovar qilmaydigan darajadagi mahoratni qarang!"⁴⁶. Demak, dastlab yozuvchi obrazlilikni ta'minlashda xarakterga katta ma'no tashuvchi sifatida qarashi, inson idroki bilan sug'oriladigan har qanday og'riqlarni, iztiroblarni yuzaga chiqarishda shu kabi masalalarni hal etishga e'tibor bermog'shi shart bo'ladi. Rus yozuvchisi Feodor Dostoyevskiyning olib borgan izlanishlari hamisha kishi

⁴⁶ Belinskiy V.G. Adabiy orzular. –T., Adabiyot va san'at nashriyoti. 1978. –B.70-71.

ruhiyatining sira anglab bo'lmas tuyg'ular bilan to'yintirilganini ta'kidlaydi. Chunki yozuvchi birlamchi masala – xarakterlarni ochib berish, ularni yuzaga chiqarish borasida katta izlanishlarni sinovdan o'tkazadi.

Rus yozuvchisi F.Dostoyevskiyning "Oydin tunlar" qissasidagi voqelik yetti tunda sodir bo'ladi. Uning jozibadorligini shu qadar mahorat bilan yoritadiki. Natijada yozuvchi inson tuyg'ularining ajralmas bir qismini talqin estetikasi sifatida yuzaga chiqaradi:

"Jozibali ajoyib bir tun edi, shunday bir tun ediki, bunaqa tun faqat yosh paytlarimizdagina bo'lishi mumkin, muhtaram kitobxon. Ko'kda yulduzlar charaqlab turar, osmon shunchalik yorug' ediki, unga qarab beixtiyor o'zingdan-o'zing: nahotki shunday osmon ostida ham har xil serjahl va tajang odamlar yashasa? – deb so'raging kelardi. Bu ham yangi savol, marhamatli kitobxon, juda ham yangi savol, lekin bunday savolni xudo tez-tez ko'nglingizga solib tursin!.. Har xil tajangu serjahl janoblar to'g'risida gapirarkanman, shu kuni kun bo'yi avzoyim g'alati bo'lganini eslatmay o'tolmayman. Ertalabdan o'zimdan o'zim yuragim siqilib, ta'bim xira bo'ldi. To'satdan, meni – so'qqabosh bir bechorani tashlab ketayotgandek, hama mendan o'zini chetga tortayotgandek tuyuldi. Albatta, hammaning ham so'rashga haddi bor: kim o'zi bu hamma? Chunki Peterburgda boshlaganimga mana sakkiz yil bo'ldi, birorta tanish orttiraolganim yo'q hali. Tanish orttirishning nima ham keragi bor menga? Bularsiz ham butun Peterburg tanish-ku; butun Peterburg qo'zg'olib, to'satdan bog' hovlilarga jo'nab qoldi, shuning uchun hamma meni tashlab ketganga o'xshadi. Meni yolg'izlik vahmi bosdi, yuragim judayam siqilib, nega shunday bo'layotganini tushunolmay, uch kun muttasil shahar kezdim"⁴⁷.

Ruhiy sarzanishlardan o'z qalbini poklab borayotgan qahramon o'ylarida yolg'izlik hukmi g'olib keladi. U o'z tuyg'ulari bilan andarmon bo'lar ekan, tunning jozibadorligini teran his etadi. Ayniqsa, inson ruhiyati chiqib bo'lmas darajada xilma-xil

⁴⁷ www.ziyouz.com. Dostoyevskiy F.M. Oydin tunlar. –T., -B.1.

kechinmalarni boshidan o'tkazgan qahramonning orzularini o'ziniki deb biladi yozuvchi. Shunday ekan, u tunni sokinligini, jozibasini, hayot haqidagi orzularni qanchalik muhabbat bilan eslashini sinovga yo'naltiradi. Natijada psixologik konflikt yuzaga keladi. Qahramon – o'z-o'zi bilan olishgani-olishgan. Chunki hayot beshafqat, tun esa xarakterlarni namoyon etish uchun bir vositaga aylanadi.

Psixoanalitik Erix Fromm nazariyasiga e'tibor bersak, botiniy kayfiyatini aniqlab olish mumkin: "Ta'kidlash joizki, jismoniy yolg'izlikka chidab bo'lmagani singari (ma'naviy-ruhiy) yolg'izlikka ham toqat qilib bo'lmaydi. Buning ustiga agar jismoniy yolg'izlik o'z ortidan axloqiy (ma'naviy) yolg'izlikni yetaklab kelsa, bunga aslo chidab bo'lmaydi. Olam bilan ma'naviy aloqadorlik turlicha shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: xonaqohdagi so'fi (darvesh), xudoga e'tiqod qiluvchi dindor, siyosiy kurashda o'rtoqlari bilan g'oyaviy birdamligini his etib turgan kameradagi yolg'iz mahbus ruhiy jihatdan yolg'iz emas"⁴⁸. Darhaqiqat, E.Fromm hayot haqiqatini teran anglatgan ruhshunoslardan biridir. U inson yolg'izligini ta'kidlar ekan, o'ziga hamisha talabchan bo'lishini namoyon etishi zarur deydi. Chunki insonning chohga qulab tushishi, bir zumda kayfiyati ko'tarilib, o'zini baxtli his etishi mumkin, biroq bularning barchasi yolg'izlikka griftor bo'lgan qalbning haroratini bosishi tayin deb hisoblaydi. Qissadagi yigit va qiz orasidagi muloqot ana shu bo'shliqni to'ldirishi tabiiydir:

"Bo'pti, – dedi qiz, – men ertaga shu joyga soat o'nda kelaman. Sizga yo'q deyolmayman... Men shu yerda bo'lishim kerak; lekin uchrashamiz deb va'da berdi deb o'ylamang yana, ogohlantirib qo'yay, o'zim uchun shu yerda bo'lishim kerak. Mana... sizga rostini aytaman: siz ham kelavering, menga halaqit bermaysiz, birinchidan, bugungidek ko'ngilsiz biror voqea yana ro'y berishi mumkin, lekin bu gapni qo'yib turaylik... qisqasi, sizni shunchaki ko'rgim keladi... ikki og'iz gapim kerak-ku sizga. Faqat meni ayblab o'tirmang.

⁴⁸ Erix Fromm. Ozodlikdan qochish. –T.: "Yangi asr avlodi". 2021. –B.38-39.

Uchrashishga osongina va'da qilyapti, deb o'ylamang... va'da qilmasdim ham, lekin, lekin mening sirim bo'lib qolsin! Bir maslahat bor...

– Maslahat! Ayting, aytavering oldindan: nima desangiz roziman, hammasiga tayyorman, – dedim xursand bo'lib, – o'zimni bilaman, gapingizga kiranman, hurmat qilaman... ko'rasiz hali... bilib olasiz...

Sizni bilganim uchun ham ertaga taklif qilyapman-da, dedi qiz kulib. – Judayam yaxshi bilaman. Lekin shartim bor: birinchidan, faqat, xudo xayringizni bersin, aytganimni qiling, – ko'ryapsizmi, tortinmay ochiq gapiryapman sizga, – meni yaxshi ko'rib qolmang... Bu mumkin emas, iltimos. Do'st bo'lsak, bunga tayyorman, mana qo'lim... lekin sevish mumkin emas, o'tinaman!"⁴⁹.

Bir-birilariga ko'ngi lqo'ymaslik haqida qiz yigitga maslahat solyapti. Lekin qahramonning yolg'izligi – tun, bo'lganda ham oydin tunlar bilan qolishi, qizning samimiyligi oldida o'zini tutib turishi muhimligida ko'rinadi. Yigit ham qizning iltimosini iymanibgina qabul qilarkan, ichkarida unga bo'lgan pokiza muhabbati bunga yo'l qo'ymasligi aniq. Chunki qiz yigitga faqat do'stlik taklifidan boshqa tuyg'u bo'lmasligini uqtirmoqda. Tunning qarorgohi – oppoq, oy kabi balqqan onda sodir bo'lishi tayin. Ayni damda, qahramonlar bir-birlari bilan ochiq muloqot qiladi. Ko'ngillarini bir-birlariga beradi. Ular rad etib bo'lmas darajada, bir-birlarini sevishadi. Insoniy munosabatlar tig'izlashuvi ayni shu lahzalarda yuzaga chiqadi.

“Yozuvchi qaysi shaklda fikrini ayta olsa, o'sha janrdir. Prust xuddi shaxtyorga o'xshaydi. Farqi shuki, shaxtyor yer ostini tobora chuqurroq kavlab boradi. Prust esa inson qalbini o'z asboblari – psixoanalitik uslub bilan chuqurroq kavlaydi. Prust inson qalbini kavlashtirishda bitta shaxtyor vazifasini o'tamaydi. Bir necha shaxtyor sifatida ish ko'rib inson tafakkurining qo'rong'u burchaklaridagi “ashyo”larni qazib oladi. “Zavol topgan vaqt izidan”

⁴⁹ www.ziyouz.com. Dostoyevskiy M.F. Oydin tunlar. –B.164.

– romani agar yetti kitobdan iborat faqat kechinmalar va hislar, kayfiyat, mayllar va xotiralarga qurilgan asarni roman deyish mumkin bo'lsa – jahon adabiyotini yana bir pog'ona yuqori ko'tardi; uning tasvir imkoniyatlarini kengaytirdi. Prust adabiyotni inson hayoti va faoliyati in'ikosi degan qarashni adabiyot inson mayllarini, kechinmalarini o'rganuvchi fan va bu fan inson haqida eng to'g'ri xulosa bera oladi degan tushuncha bilan boyitdi. Uning asarlarida ruhshunoslik adabiyot bilan jozibali tarzda uyg'unlashib ketdi"⁵⁰. Haqiqatdan ham, M.Prust bilan F.Dostoyevskiy poetik izlanishlarida – so'z zalvori juda teran. Psixologik taranglik kuchli. Umuman, inson hamisha o'z tuyg'ulari bilan yolg'iz qolishi mumkin. Feodor Dostoyevskiy qahramonlari esa ana shu muhabbat bilan kamol topadi. Chunki "Oydin tunlar" qissasi o'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayev, X.Do'stmuhammad kabi yozuvchilar ijodiga ta'sir etiganligi, ular yaratgan qahramonlar ruhiyatida pokiza va samimiy muhabbat chizgilari bo'y ko'rsatganligini ko'rishimiz mumkin. Mana shu tizimlilik o'zbek va rus qissalarida badiiy til normalarini ham oydinlashtiradi. Chunki badiiy tildan unumli foydalanish yozuvchi uslubini ham, davr manzarasini ham, insoniy tuyg'ular tarannumini ham yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etishi mumkin.

Mifologiyaning o'zbek qissalarida aks etish tamoyili.

Insoniyat badiiy tafakkurining ajralmas halqasi sifatida azaliy qadriyatlar in'ikosi sanalmish folklor qadimiy ohanglar jamuljamini o'zida aks ettirgan san'at turlaridan biridir. Antik yunon va turkiy xalqlar adabiyotidagi eposning zamonaviy yozma adabiyotga ta'siri XX asr nasrida alohida o'rin tutadi. Mifologik kiritmalar, maqol va matallar, topishmoq hamda ertaklarning yozma adabiyotda ifodalanishi, qariyb ming yillik an'analar sintkzini o'zida singdirganligi bilan quvonarlidir. Demak, folklor o'z-o'zidan har qanday badiiy adabiyotning tagzamini, ilk debochasidir. San'atning turlari ko'p bo'lganidek, uni ifodalash "izm"lari ham turfalanadi. Mana shu mavjudlik jumbog'i, insonning hayot tarzi hamda umriy

⁵⁰ Eshonqulov N. Mendan "men" gacha. –T., Akademnashr. 2015. –B.349-350.

mazmunini inkishof etish faqatgina yozuvchi badiiy mahorati bilan tutashuvini yodda tutmoq joiz. Insoniyat badiiy tafakkuri asrlar davomida sayqallanib, rivoj topdi. Uning yetib kelgan manzilu makonlarida ruhiy kechinmalar tadriji o'z-o'zidan sodir bo'lgani yo'q, albatta! Buning zamirida topishlaru yo'qotishlar, izlanishlaru qanchadan-qancha toleteranlik an'analari singdirildi. Mantiq va estetik chorrohasida folklor an'analari badiiy adabiyotning o'q tomiriga aylanayozdi desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ibtidoiy qarashlar va mifologik olam manzarasi. Yangilanayotgan badiiy tafakkurning shu choqqacha erishilgan yutuqlari zamirida azim qadriyatlar (xalq og'zaki ijodi) in'ikosi aks etganligini hech bir davr inkor qilolmasa kerak. G'arbu Sharq an'alarining yozma adabiyotda ifoda etilishi, yangi inson konsepsiyasining mohiyatini tashkil qiladi. Jumladan, folklordagi obrazlar hamda motivlarning bir-birini to'ldiruvchi ahamiyat kasb etishi, asrlar davomida milliy qadriyatlarning sayqallanib, takomillashib kelayotganini dalolatlaydi. Har qanday badiiy asarning mohiyatida – voqelik yotadi. Voqelik o'z-o'zidan xarakterlar sistemasining ro'yobga chiqish manerasini belgilaydi. "Xalq og'zaki ijodidagi obraz va hodisalar ham xuddi shunday. garchi har qanday obraz va hodisa zamirida voqelik yotganini inkor etmagan holda shuni ta'kidlash joizki, obraz va hodisalardan to'liq reallik izlash asarni yuzakilashtiradi. Obrazning tarixiyligi eng avvalo, unda mujassam etilgan ifoda va tasavvurda ko'rinadi. Bu ifoda hamda tasavvur turkiy xalqlarning birlamchi tasavvurlariga mos va hozirgi kunga qadar ham shu tasavvurni tashiydi. Uni antogonistik sinfiy nuqtai nazardan ifodalab bo'lmagani kabi quriq xayolot deb ham bo'lmaydi. Bu kabi obrazlar xalq tafakkur tarixining, xayoloti va dunyoqarashining bir bo'lagi sifatida tadqiq qilinmog'i shart. Shundagina biz an'anaviy obrazlar va xalq og'zaki ijodiga to'g'ri baho bergan bo'lamiz"⁵¹. Binobarin, hayotiy haqiqat hamda badiiy to'qima orasida mifologik talqin qamrovi hiyla

⁵¹ Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin. –Qarshi. "Nasaf".1999. –B.7.

kengaya boradi. Shu ma'noda, badiiy adabiyotning inson taqdirini talqin etishga qaratilgan kommunikatsion birligi hayotiy ziddiyatlar teranligi bilan o'lchanadi. XX asrning tongotarida yozma adbiyotga folklor an'analarini mohirlik bilan singdirgan ilk o'zbek romani muallifi Abdulla Qodiriy bo'lsa, keyinchalik bu an'anani boshqa-da yozuvchilar tadrijiy davom ettirdi. Asosan, tasvir va talqindagi yangilanishlar sintezi hayotning puchmoqlarigacha kirib borishni dalolatladi. Demak, folklor – yozma badiiy adabiyotning tasvir ekzistensiyasini hamda modusini yangiladi. Uning miqyoslarini: tasvir hamda tasavvur chegaralarini kengaytirdi. Undan yangidan-yangi mifologik kiritmalar, inson shaxsini talqin etishdagi ifoda madaniyatining rang-baranglashuviga jiddiy zamin hozirladi.

Aleksandr Genisning qayd etishicha: "G'arb va Sharq poetikalari o'rtasidagi tafovutning mohiyati shundan iborat deb belgilamoq mumkinki, ularning birinchisi metaforaga, ikkinchisi esa metanimiyaga tayanadi. Buning ma'nosi shuki, G'arb san'ati obraz tevaragida quriladi. Sharq san'ati esa iz tevaragida quriladi. Agar G'arb muallifi bu narsa – boshqa narsa desa, Sharq muallifi, qismni butun deb ko'rsatadi. Ana shunday metonimik fikrlash tarzining namunasi sifatida quyidagi xitoy maqolini ko'rsatish mumkin: "bitta yaproq uzilib tushsa, butun dunyo kuz boshlanganidan xabardor bo'ladi"⁵². Ko'rinadiki, estetik idrok hamda falsafiy qamrov sintezi har ikki hududning tutashuviga sharoit hozirlamoqda. G'arbu Sharq an'analari negizida, asosan, folklor motivi turadi. Chunki xalq og'zaki ijodining muayyan davrlarni o'zida aks ettirish an'anasi XX asrda nihoyatda ranginlashdi. Insonga munosabat ham, davrning mafkuraviy tazyiqlari ham, zamon talabi ham shuni taqozo etdi. Deylik, folklor namunalari ta'sir qilmagan birorta zamonaviy adabiyot yo'qki, uni yozuvchi chetlab o'tgan bo'lmasin. Maydonning kengligi va tasvirning quyuqligi azim an'analarning traditsion rivojlanishiga katta turtki bo'lishi tabiiydir.

⁵² Aleksandr Genis. Qlb fotografiyasi. –T: "Ma'naviyat". 2010. –B.122.

Arastu bu haqda shunday mulohazalarni ilgari suradi: “Vazn vositasida tasvirlovchi hikoya qilish san’ati haqida gapirsak, shunisi ravshanki, bunday poeziyani (ham) dramatik ruhda – yaxlit va tugal, ya’ni boshlanishi, o’rtasi va oxiri bo’lgan, mukammal hamda jonli mavjudot kabi zavq beruvchi muayyan bir voqea atrofida qurish kerak. Epos asarlari oddiy tarixlarga o’xshamasligi kerak. Oddiy tarixlarda birgina voqea tavsiflanmaydi, ularda bir vaqtning o’zida yuz bergan, goho bir-biri bilan faqat tasodifiy bog’lanishga ega bo’lgan, bir odamning yoki ko’p odamlarning boshidan o’tgan barcha voqealar tavsiflanaveradi”⁵³. Darhaqiqat, XX asr o’zbek nasrida dramatik, tragik vaziyatlar talqini nasriy polotnolarda keng qamroqda namoyon bo’ldi. Uning fojeaviyligi hamda sahnaviyligi keskin ziddiyatlar qurshovida qolgan bani bashariyat taqdiri bilan bevosita uyg’unlashib ketdi. Zulm va kufr urchigan jamiyatda insonlik sha’nini asrab qolishning o’zi katta san’at, mahorat, mardlik ekanligini tushunib olish lozim. Dunyo adabiyotining mohiyatida – folllkor turadi. Uni istifoda qilish yozuvchi yoki shoirning iste’dodi hamda mahoratiga bog’liq ekanligi namoyon bo’ladi.

O’zbekiston xalq yozuvchisi Tog’ay Murod o’tgan asrning 70-yillarda adabiyot maydoniga yashindek kirib keldi. Dastlab ixcham hikoyalar yozib yurgan bo’lsa-da, barchasi milliyligimiz, azaliy qadriyatlarimiz zamirida yuzaga keldi. Asarlarida iste’dod jilolari mavjudligini kimdir payqadi, kimdir bilmadi. Yozuvchi 1976-yil “Yulduzlar mangu yonadi” qissasi “Sharq yulduzi” jurnalida e’lon etildi-yu birdoniga uning nomi el og’ziga tushdi, muhokamalarda, maqolalarda asar yilning eng yaxshi qissasi deb e’tirof qilindi. So’ng birin-keyin “Ot kishnagan oqshom” (1979), “Oydinda yurgan odamlar” (1980), “Momo yer qo’shig’i” (1985) qissalari chiqdi. Bu qissalari uchun adib Respublika yozuvchilar uyushmasi Oybek nomidagi mukofoti bilan taqdirlandi. Tog’ay Murod 1986-1991 yillar “Otamdan qolgan dalalar” romani ustida qattiq ishladi. Roman 1993-yil dunyo yuzini ko’rdi. Bu asarning aynan mustaqillikning

⁵³ Arastu. Poetika. –T: “Yangi asr avlodi”. 2018. –B.59.

dastlabki tillarida nashir etilgani ham quvonarli holdir. Roman 1994-yili istiqlol davri o'zbek adabiyotining ilk yetuk namunasi sifatida A.Qodiriy nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Shundan keyin Tog'ay Murod 1994-1998 yillarda "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanini yozdi va uni 2001-yil nashr qildirdi. Tog'ay Murod mazkur asarlarining barchasida el-yurt, keng xalq ommasi, ularning qalb kechinmalari ijtimoiy tiplar orqali ifoda qilib, davr qiyofasini badiiy dalillab bera oldi. Ulardan teran ma'no nozik psixologizm orqali o'sha davr ustidagi o'z ko'z-qarashlarini o'z fikrini, o'z so'zi bilan oshkor eta oldi. Ushbu asarlarining yaratilishida o'ziga xos tarixi bor, adib ularni shunday xotirlaydi: "Men o'rta maktabni bitirib shunday niyat yetdim: o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha uylanmayman, oila qurmayman, biror yerda faqat tarixchilik uchun ishlayman. Men faqat bir maqsadni ko'zladim: faqat jahon adabiyotini o'qish. Faqat o'qish, o'qish, o'qish, qo'l qotib qolmasini uchun mayda hikoyalar mashq yetib turish. Men shu niyat yo'lida imorat solmadim, mashina olmadim, mansab egallamadim, shon shuhrat qozonmadim. Nihoyatda... nihoyatda sanoqli kunlarda "Yulduzlar mangu yonadi" nomli birinchi qissamni yaratdim. Men bu qissam bilan g'animlarimga: "Mana men kimman degan bo'ldim"⁵⁴. Qissa elga manzur bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, Tog'ay Murod o'ziga ishongan qat'iyatli va mag'rur inson bo'lgan. U ko'zlagan maqsadi yo'lida barcha qiyinchiliklarga bardosh berib ijod qilgan.

Prof. B.Sarimsoqov alohida ta'kidlaganidek: "Adabiyotning xalqchilligi masalasi nuqtayi nazaridan qaralsa, bilingvizm – ijobiy hodisa. Chunki Chingiz Aytmatov ijodi orqali butun dunyo qirg'iz xalqining kundalik va o'tmish hayoti, bu xalqning tarixi va ruhiyati, dunyoqarashi va intilishlari bilan tanishdi. Endi qiyoslang, agar Chingiz Aytmatov faqat qirg'iz tilida ijod qilganda, bu qadar tez olamga tanilmagan bo'lardi. Chunki uning asarlari rus tilida yozilishi orqali keng xalqchillik kasb etdi. To'g'ridan-to'g'ri rus tilida ijod qilish uni dastlab sobiq Ittifoq miqyosida tanishga olib keldi, uning

⁵⁴ Tog'ay Murod. Otamdan qolgan dalalar. –T: "Zukko ritobxon". 2024. –B.380.

asarlaridagi xalqchillik miqyosi esa ana shu paytda juda kengaydi. Rus tilidan G'arb va Sharq xalqlari tillariga tarjima qilish esa adib xalqchilligini butun dunyo miqyosiga olib chiqdi"⁵⁵. Haqiqatdan ham, badiiy adabiyotning xalqchilligi, folklor an'analarning singdirilishi natijasida Ch.Aytmatov butun ittifoq bo'ylab keng miqyosda o'qila boshlandiki, bizning adabiyotimizda ana shunday yo'sinda ijod qiladin adiblarning yo'qligi ham yuqoridagi mulohazalarimizni quvvatlaydi. Demak, xalqchillik, xalq og'zaki ijodining sintezlashuvi, yangi badiiy nasr istiqbolini ham belgilab berishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu ma'noda, O'zbekiston xalq yozuvchisi Tog'ay Murodning ko'pchilik asarlarida folklor an'analarning ink'osi muayyan janrlarning yo'qolib ketmasligiga, aksincha, ifodalanish xususiyatining turfalanishiga olib keldi. Yangi davr odamlarining ruhiyatini folklor tabiatidan kelib chiqib tasvirlash modusi ijobiy hodisadir. Bir qarashda juda oddiydek tuyulgan voqelikning mohiyatiga teran nazar tashlansa, hayot haqiqati o'zining yorqin qiyofasini namoyon etishi tayin. Dissertatsion tadqiqotimizda Tog'ay Murod ijodida folklorzimlaning qo'llanilishi hamda yangilanishlar sintezidagi adib badiiy mahoratini tadqiq qilish ekan, unda milliy va umuminsoniy mezonlar tabiatidan kelib chiqib yondashish zarurligini unutmazlik lozim. Negaki, milliy koloritni o'zidek qilib berish, iste'dod hamda mahorat, talant bilan bog'liq ijodiy jarayon ekanligini yodda tutish muhim.

Abdulla Qodiriy asarlarida folklorzimlarning ifodalanishi, "doston va ertak" o'qib yuruvchi xalqning ko'ngliga yaqin hayotiy voqealarni ifodalash uchun ham katta salohiyat zarur edi. A.Qodiriy buning uddasidan chiqa oldi. Bu an'ana keyinchalik A.Qahhor, Oybek, G'.G'ulom, P.Qodirov, O.Yoqubov, O'.Hoshimov, Sh.Xolmirzayev, O'.Umarbekov asarlarida davom ettirilgan bo'lsa, Tog'ay Murod badiiy olamida alohida bir sahifa bo'lib yuzaga chiqdi. Tog'ay Murodning aksariyat asarlarida – qo'shiq xirgoyi qilganidek, ruhiyat va inson tuyg'ulari uyg'unlashib, yangicha bir shaklda

⁵⁵ Sarimsoqov B. Badiylik asoslari va mezonlari. –T: "BOOKMANY PRINT". 2022. –B.154.

inkishof etiladi. Mana shu an'anaviylik va hayotiylik mezonlari adib izlanishlarining konsepsiyasini belgilab beradi.

Folklorizmlarni badiiy asarda qo'llash mifologik talqin bilan bevosita bog'lanib ketadi. Chunki mif – universal hodisa. Jahon adabiyotini chuqur o'rganish, Tog'ay Murod avlodining eng katta yutug'idir. U koinot, osmon, jonivorlar hayotini chuqur o'rgandi. Shuning zamirida katta konseptual aqidalarni ilgari surdi.

“Adabiyotda mifologik tasvirga ehtiyoj hech qachon pasaymagan. A.Navoiy asarlarining asosi mifga qurilgan. Buyuk shoir mifga o'z g'oyalarini, inson haqidagi tadqiqot va ta'limotni singdirdi. Yevropada XIX asrda bunyodga kelgan mifologik nazariyalar adabiyotni yana mifga yuz burishini boshlab berdi. Nitsshi birinchi marta mif va insonni yaxlit holda tadqiq etdi. Freyd, Yung, Adler mifshunoslikning, mifga bo'lgan munosabatning yangi nazariyasiga asos soldilar. Bu nazariya mif bilan adabiyotning aloqasini mustahkamlab berdi: bu nazariyaga ko'ra, mif ajdodlarimizning timsollar tiliga asoslangan ong-osti hiskechinmalari in'ikosidir”, – deya yozadi prof. J.Eshonqulov. Ko'rinadiki, folklor an'analar sintezi har bir davr. Ayniqsa, XX asr nasriy mahsullari uchun g'oyat murakkab fragmentlarni namoyon qildi. Unda din, axloq, tarix va zamon mafkurasi sinkretik ifodalandi. Jamiki mavjud an'analar mifologik maktab, qadriyatlar kesishgan chorrohada obrazli aks ettirildi. Har bir xalqning fetishi sanalgan mifik qadriyatlar yanada xilma-xillashdi. Aksariyat yozuvchilar mifni, folklor an'analarni atayin ifoda usuli sifatida o'z asarlarida aks ettirish yo'lidan bordi. Biroq zo'raki talqin o'zining istyedodini namoyon qilishga soya soldi. Mana shu konsepsiya Tog'ay Murod ijodida boshqacha rakursda inkishof etilib, hayot haqiqatini “qadriyatlar tig'iz”ligida akslantirish yo'lidan borishga zamin hozirladi. Yozuvchi buni sitqidildan uddalay oldi. O'zi mifik qarashlar sistemasida yangicha olamni idrok etishga erishdi. Buning yorqin namunasi sifatida “Oydinda yurgan odamlar” qissasini keltirish mumkin.

“Ma’rifatparvarlik prozasi uchun hayotiy va ijtimoiy masalalarni keng ko’lamda, dunyo miqyosida qo’yish va tasvirlash xarakterlidir. Inqilob oldi adabiyotida Turkistonning hayoti bilan bir qatorda boshqa xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odatleri badiiy aks ettirildi. Ma’rifatparvar yozuvchilarning asarlarida rus, azarboyjon, tatar, Yevropa, hattoki Amerka va Yaponiya xalqlarining turmushi ham tilga olindi. Ularning qahramonlari Rossiya, Yevropa, Amerkada va boshqa yerlarda yashaydigan turli mamlakatlariga borib, ta’lim oladi va malakasini oshiradi. Turkiston xalqlari turmushi umumbashariy hayotning bir qismi sifatida tasvirlanadi. Bu hol ma’rifatparvarlik prozasining epik janrida yozilgan asrlarning eng yirik yutuqlardan edi. Proza janridagi asarlarda hayot keng ko’lamda va butun murakkabligi bilan muayyan bir falsafiy konsepsiya nuqtai nazaridan badiiy aks ettiriladi”⁵⁶. Darhaqiqat, mana shu konsepsiya XX asrning 60-yillar prozasida yaqqol namoyon bo’ldi. Chnonchi, 60-70 yillar avoldining yutug’i ham, kamchiligi ham umuminsoniylik tamoyiliga katta e’tibor qarata olmaganida ko’rinadi. Masalan, Ch.Aytmatovning juda ko’pchilik asarlari turkiy xalqlarning og’zaki ijodi, xususan, miflar, rivoyatlar, afsonlar asosiga quriladi. Adib ana shu katta mezonni yangiladi. O’zining o’tmishi va tarixini, kelajagini shu asosda bino qilgan badiiy polotnolarni yarata oldi.

O’zbekiston Qahramoni Said Ahmad yozuvchi haqida shunday e’tirof etadi: “Biz Abdulla Qodiriyning salkam yetmish yildirki, boshimizga ko’tarib kelamiz. Bunga sabab, Qodiriy milliy qahramonlar yaratdi. Otabek ham, Yusufbek hoji ham, Oftob oyim ham, Solih mahdum ham aslo takrorlanmas obrazlardir. Bu kishilar Qodiriy ta’kidlamasa ham o’zbekligini bilamiz. Turgenev, Gogol, Tolstoy rus xalqini butun bor bo’yi bilan tasvirlagan buyuk ijodkorlardir. Nexlyudovga do’ppi kiydirsang, Kareninaga paranji yopintirsang, o’zbek bo’lib qolmaydi. Tolstoy ularni qon-qoni bilan, o’y-xayollari bilan, gap-so’zlari bilan rus qilib yaratdi.

⁵⁶ Adabiy turlar va janrlar. –T.: “Fan” nashriyoti 1991.1 –B.36.

Bunday asarlar yaratish uchun adib rassomdek ranglarni bir-biridan farq qiladigan, bastakordek tovushlarni tiniq eshitadigan bo'lishi kerak. Tog'ay Murod ana shunday rassom adibdir.”⁵⁷ Haqiqatdan ham, Tog'ay Murod o'zbek prozasida “o'zbek xalqiga haykal qo'ygan” noyob iste'dod sohiblaridan biri edi. Adibning mungli va hazin ohangdek eshitiluvchi “qo'shiq”larida dard, alam, iztirob, eng muhimi katta millatning qayg'usi, yurt obodligi, xalq faravonligi ufurib turardi. Said Ahmad to'g'ri e'tirof etganidek, oila nafadar muqaddas dargoh ekanligini, Vatan oiladan, er-xotinning o'zaro munosabatidan boshlanishi, tarixiy ildizlarimiz qayerlarga borib taqalashini ko'rishimiz mumkin.

Adibning birin-ketin nashr qilingan asarlarida – G'arb va Sharq badiiy tafakkurining sinkretik mahsulini uchratamiz. O'tgan asr boshlarida J.Joys, F.Kafka, A.Kamyu yoki E.Xemingueylar badiiy asarlarida ramzlar, ishoralar, metaforalarni hayrantlanarli tarzda inkishof qilgan bo'lsalar, bugungi kun adabiyotida Tog'ay Murodning xizmatlari alohida bir o'rinni egallaydi desak, aslo mubolag'a bo'lmaydi. Adibning ilk hikoyalarida jahon adabiyotining, ayniqsa, novellistlarning uslubiy-shakliy izlanishlari ta'siri hiyla sezilsa-da, keyinchalik xuddi qo'shiq kabi o'qiladigan qissa va romanlarida folklorizmlarning yangicha qiyofasini uchratamiz .mana shu modifikatsiya adib yaratgan epik mahsulotning bir-biriga uzviyligini taqozo etadi.

XX asrning 80-yillarida turg'unlik davriga to'g'ri keladi. Adib o'zi alohida ta'kidlaganidek, o'ttiz-o'ttiz besh yoshlargacha jahon adabiyotini, o'zbek mumtoz asarlarini diqqat bilan mutolaa qiladi. Bu o'qish, izlanish, yozuvchining badiiy tafakkurini yanada kengayishiga olib boradi. Natijada, g'oyadan – g'oyaga qarab o'sish, ifodaning ranginlashuvini dalolatlaydi. Jamiki, hayotning ikir-chikirlaridan ko'ngli to'lmagan adib, folklorning o'ziga xos tasvir kriteriylariga murojaat qilishda davom etadi. Ayni paytda, yozuvchi inson konsepsiyasiga – milliy ruh va milliy qadriyat negizi sifatida

⁵⁷ Said Ahmad. Tog'ay Murod qo'shiqlari. –T: “Sano-standart”. 2017. –B.3-4.

baholash yo'lidan boradi. Ana shu tamoyil yozuvchi izlanishlarining pirovard maqsadida, yangilanishlar muntazamligiga qo'yilgan ilk tamal toshi edi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Jahonning ilg'or metodlari ramziy-falsafiy tasvir ekzistensiyasi Tog'ay Murod izlanishlarida katta bir o'zanni tashkil etadi. Mana shu tamoyilga amal qiladigan bo'lsak, E.Tomson, J.London boshlab bergan an'analar Tog'ay Murod ijodida alohida bir sahifani tashkil qiladi. Tog'ay Murod ijodiy izlanishlarida realistik talqin ustuvorligi borasida ko'plab nazariy-ilmiy mulohazalarni bayon qilish mumkin. "Adabiyot tarixidan ma'lumki, har qanday adabiy usuldagi yangilik o'z-o'zidan paydo bo'lmaydi: adabiyotdagi yangi oqimlar ,an'analar o'z dvrining estetik, ijtimoiy, g'oyaviy, mafkuraviy, tafakkur ehtiyoji, in'ikosi sifatida so'z san'atida bo'y ko'rsatadi. Qadimgi davr adabiyotimi yoki keyingi yuz yillik adabiyotmi, qaysi davr adabiyoti bo'lishidan qat'i nazar, yangi bir oqimlar, so'zga munosabat, shakliy va badiiy izlanishlar aslida o'sha jamiyatda paydo bo'layotgan ijtimoiy fikr va ijtimoiy ong ostining ehtiyojini namoyon qiladi".⁵⁸ Darvoqe, ijtimoiy ehtiyoj shaxsning maqsadlarini belgilaydi. Unda millat sajiyasi o'z ifodasini topadi. Inson o'zining ehtiyoji yonida yashashga mahkum xilqat. Biz ayni paytda sobiq ittifoqining nayrangli siyosatini bilib, shunga ich-ichidan qarshi bo'lgan avlod ijodi bilan tanishar ekanmiz, nega o'sha vaziyatda jahonning ilg'or an'analari tamomila kirishga ruxsat berilmaganiga xos javob olgandek bo'lamiz. Negaki, insoniyat hamma davrlarda mafkura va siyosat orasida umr kechiradi. Bunga misol xalqimiz ham, adabiyot va san'atimiz ham, sobiq sho'rolar mafkurasi tomonidan bir yoqlama olib borilgan siyosatni ko'rdi. Uning jabridan, zulmidan bir avlod aziyat chekdi. Nechalab ziyolilar qtag'on qurboni bo'ldi. Millatparvar adiblar yo'q qilindi. Tog'ay Murodni qattiq yozishga undagan tarix ham, aslida zamonni ifoda qilishning yangicha mezonini topishga urinish bilan belgilanadi.

⁵⁸ Luchanov M.F.Istoriya mirovoy literaturi. – Omsk, 2004.

Badiiyat hodisasi folklor an'analardan oziqlanar ekan, unda o'zbek xalqining shajarasi, nasl-nasabi, taraqqiyoti, ajdodlarimizning shonli tarixi o'z aksini topadi. Tog'ay Murod o'z asarlarida folklorning barcha qatlamlarini sintezlay oldi. Demak, hayot haqiqatini yuzaga chiqishida qadim an'analar ham o'z ahamiyatini singdirar ekan, insoniyatning tamaddun quyoshi asrlar osha porlab turayotganini dalolatlaydi. Tog'ay Murod ana shu konsepsiyani o'z asarlarida keng qamrovli motifda yuzaga chiqargan alohida bir fenomendir.

Qissada badiiy polifonizm talqini. Ayonki, ko'pchilik ijodkor bitta g'oya asosida bir necha xarakterlarning dardu hasratlarini o'zaro jipslashtirar ekan, ayoni paytda, mahoratning sayozligi yoki o'rtamiyonalik yo'lidan borib, eng asosiy g'oyani oxiriga qadar olib chiqishda rosa qiynalishadi. G'oya avval tug'iladi, rivojlanadi, u xarakterlarni shakllantiradi, xarakterlar personajga aylandi ana shu tariqa asr dunyoga keladi. Mavzu o'z-o'zidan g'oyani ichidan ochilib chiqadiki, xuddi tog' bag'ridan shildirab pastga enayotgan shalolani, buloqni eslatadi. Ana shu buloq suvining ohanglari toshlarga urilib, turli joylarda turlicha ovoz chiqaradi. Odamlarning ahvol-ruhiyasi ham xuddi shunaqa qilib shakllarda, mazmunlarda, tasavvur va taxayul dunyosida yuzaga chiqadi. Tog'ay Murod o'zbek o'quvchisiga voqelikni shunchaki gapirib bermaydi, yo'q, qo'shiq xirgoyi qiladi. Bu qo'shiq o'quvchi qalbiga singib go'zal bir dardli manzarani, shodlikni, iztiroblarni, yo'qotishlarni, odamiylikni paydo qiladi. Demak, yozuvchi nigohi olamga qadalgan ekan, u olam va odam manzarasini sitqidildan his etadi. Bu his etishlar tevaragida har xil kayfiyatdagi odamlar aylana yasaydiki, asar syujeti va kompozitsiyasini yuzaga chiqaradi. Biz tanlagan dissertatsion tadqiqotimizda yuqoridagi bob va fasllarda follorizmlarning yozuvchi ijodidagi inkishofi, ibtidosi, yuzaga chiqish situatsiyalari, bu holatlarning paydo bo'lishga olib kelgan – sabab hamda oqibatlari haqida atroflicha ilmiy asoslashga erishdik. Mazkur faslda

asar mavzusi va mundarijasini to'laqonli qamrab olgan nutqiy polifonizm hodisasi xususida o'z mulohazalarimizni bayon etamiz!

Badiiy adabiyotda – monologik nutq tabiati inson qalbida aks-sado bergan obrazlar tipini tartiblashtiradi. “Adabiyotshunoslik lug‘ati”da qayd etilishicha: “Monolog – (yun. monos – yakka, logos – so‘z) – yakka shaxsning ayni javob berilishi talab qilmaydigan, o‘zgaralar replikalari bilan bo‘linmagan nutqi. monologik nutq og‘zaki shaklda (turli yig‘inlardagi nutq, ma’ruza, hisobotlar) ham, yozma shaklda (publitsistika, memuarlar va hakoza) ham keng qo‘llaniladi. Badiiy adabiyotda monologlardan turli maqsadlarda foydalaniladi. Ayniqsa, dramatik asarlarda monologlarning badiiys-estetik vazifasi ancha keng”⁵⁹ deya e’tirof etiladi. Darhaqiqat, monologik nutq taibatan inson psixologiyasining ayni vaziyatdagi holatini ham belgilab berish barobarida, jamiyatda san’atning roli nechog‘li ko‘rinishda bo‘lishini, siyosiy-ijtimoiy o‘zgarishlar ta’sirida shakllanayotgan muhit suvartining so‘zdagi aksi sifatida yuzaga chiqayotganini ham belgilab beradi. Bunday tadrijiy takomil nutqiy ong va hissiy shuur modifikatsiyasini ham bir ipga tizilgan marjondek aks-sado berishini tayin etadi. Jumladan, XX asr boshlarida bu nutq tipi XX asr boshlarida Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanidagi Otabek va Kumush monologlarida yorqin ranglarda yuzaga chiqadi. Keyinchalik Oybek, Abdulla Qahhor, Shukur Xolmirzayev, Murod Muhammad Do‘st, Xurshid Do‘stmuhammad , Nazar Eshonqul va Isajon Sulton, Ulug‘bek Hamdam badiiy izlanishlarida G‘arbu Sharq an‘analari chorrohasida idrok etilganini ko‘ridik. Monologik nutq tipi monologik kechinmalar uyg‘unligini kafolatlaydi. Insonki bor, o‘z-o‘zi bilan doimiy ravishda kolloziyada bo‘ladi. Tashqi va ichki sabab-oqibatlar negizida inson o‘zining jamiyat bilan murosasiz jangini mutlaqlashtiradi. O‘z-o‘zidan nutqning paydo bo‘lmasligini ham tadrijiy takomiliga diqqat qilinsa, masala mohiyati yanada oydinlasha boradi. XX asrning 90-yillarida o‘zbek adabiyotiga kirib kelgan juda ko‘plab yozuvchilar

⁵⁹ Qur'onov va boshq. Adabiyotshunoslik lug‘ati. –T: “Akademnashr”. 2013. –B.179.

bo'ldi. "O'tish davri"ning iztiroblari: ohanglari bilan baqamti bo'lish yolg'iz qolgan inson kayfiyatini anglash negizida yuzaga chiqqanligini idroklaydi. Mana shu potensial hatti-harakatlar odam va olam munosabatlarining sarzanishlarini yuzaga chiqishida darvning ruhi ham o'z ta'sirini o'tkazganligini namoyon etadi. Shu ma'noda, yozuvchi Tog'ay Murodning "Momo yer qo'shig'i" qissasida monologik nutq yozuvchi nutqi bilan uyg'unlashib, polifonik nutq tushunchasini yuzaga chiqishiga zamin yaratadi.

Tog'ay Murod "Momo yer qo'shig'i" qissasining muaqaddimasini juda tez suratlarda voqelikning asosiy bayoni – g'oyaning ijrosiga ko'chib qo'yadi. Serjant Orziqulov (Bahrom) askarlikdan kelib qarasa, ota onasi ko'z tikib uylantiramiz deb o'tirgan bo'ladi. Biroq oraliqda urush boshlanib. U urushga ketadi. Urushdan ikki yilcha yurib, sog'-omon qaytib kelsa, guldek ikki singlisi bilan alpqomat chin dunyoga ketgan bo'ladi. Yolg'iz o'g'il, va ona ikkisi qishloqda dehqonchilik bilan kun kechira boshlaydi. Qissa voqeligi ana shu yerda Bahrom Orziqulovning uylanishidan davom etadi:

Shunda... shunda, urush boshlandi.

Serjant Orziqulov urushga ketdi.

Urushdan yeson-omon qaytdi.

Tevarakka olazarak boqdi.

Otasi bechora rahmatlik bo'libdi.

Gul deb atalmish bir dard ikkita qizini-da olib ketibdi.

Cholidan ayrilmish onasi bilan farzandlaridan judo bo'lmish ayoli mung'ayib qolibdi.

U urushdan ajabtovur bo'lib keldi.

Miq etmadi. Olis-olislarga termildi.

Qarindosh-urug' bolalari ko'ksidagi orden-medallarga qol tegizib ko'rdi.

– Bularni qayerdan oldingiz? – deya surishtirdi.

– Urushga borsak, biz ham orden olib kelardik, – dedi.

Shunda, serjant Orziqulov qirg'inbarot kunlardan bor-yo'g'i bir marta gap lchdi:

– Urushning oti o'chsin, bolam – dedi. – Sizlar so'ramanglar, men aytmayin. Bundaychikin ohangjamolarni men taqdim, sizlarga taqish nasib etmasin..."⁶⁰

Qissa muqaddimasida serjant Orziqulov xuddi Dehqonqul kabi o'z dardi-yu, tashvishi bilan andarmon yashagan oddiy mehnatkash xalq vakili. Romanning qissadan o'sib chiqqan syujet badiiyatida monologik nutq roviy (yozuvchi nutqi) bilan uyg'unlashib, yagona estetik ahamiyat kasb etadi. Qissa badiiyatini ta'minlovchi yana bir muhim jihat – qahramonlarning o'z mustaqil ovozi bor. Bu ovoz asar so'ngiga qadar davom etadi. Adib buni o'zining xalqona va shirali, xuddi qo'shiq kabi quyilib keladigan naqoratlaridan bino qiladi. Bunday uslub badiiy nuqtani nafaqat individuallashtiradi, balki syujet komponentlarini joriyligini ham ta'minlashga xizmat qiladi. Adibning yana bir muhim yutuqlaridan biri shuki, inson taqdiriga yangi nom berar ekan, oila va Vatan oldidagi xizmat burchini o'tab. Yoshini yashab kelayotgan polvonlar dunyoqarashini ham oydinlashtiradi. Qissaning 6 faslida tugun paydo bo'ladi. Butun Serjant Orziqulov (Bayram)ning yagona o'g'li bilan boshlanib, yangicha qiyofa kasb etadi:

"Kolxoz raisi Orziqulovni yaxshi-yaxshi ishlarga qo'ymoqchi bo'ldi.

Ammo serjant Orziqulov rad etdi. Tag'in o'z podasini so'radi.

Ikki yilda farzand ko'rdi.

Bunisi-da qiz bo'ldi.

Qiz bo'lsa-da umri bilan bo'lsin edi, bunisi-da ketdi.

To'rtinchisi o'g'il bo'ldi.

Xumor momo nevarasi uchun ism o'yladi.

Aqlarga maslahat soldi. Oq-qorani taniganlarga kitob ko'ridirdi.

Olis o'yladilar.

O'ylamay bo'ladimi, ketma-ket uchta farzand ketdi!

Oxir-oqibat, hayot sohibi bo'lsin, hayotda tursin, deya Tursun deb ism qo'yidilar.

⁶⁰ Tog'ay Murod. Momo yer qo'shig'i. –T: "Pharos-ambition"2024. –B.17-18.

Ota-ona orzusi bajo bo'ldi.

Tursun hayotda turdi"⁶¹.

Yozuvchi xarakter ruhiyatini yuzaga chiqarishda qisqalik prinsipidan unumli foydalanadi. Masalan, badiiy xarakter haqida gap ketganda, avvalo, uning yuzaga kelish omillari, ijodiy konsepsiya tig'izligini ham nazarda tutish joizdir. Shuning uchun ham Tog'ay Murod qissalarida quyidagi qismlarga bo'lib tasniflash maqsadga muvofiqdir.

1. Aniqlik va qisqalik prinsipi. Abdulla Qahhor hikoyalari, va qissalariga e'tibor berilsa, voqelik birdaniga shiddatli tus olib, tugundan boshlanadi. Ana shu taxlit voqealar rivoji polifonizmni ham o'z ichiga oladi. Dialoglar, monologlar va poliloglar negizida yozuvchi ijodiy konsepsiyasi oydinlashadi. Tog'ay Murod voqealar rivojida o'z tabiatidan (uslubidan) kelib chiqqan holda inson qalbining ochilmagan qo'riq ekanligini namoyon etadi. Folklorga xos tug'ilish, yashash va o'lish orasidagi masofani jiddiy tejaydi. Masalan "Momo yer qo'shig'i" qissasida muqaddimaning o'zida voqealarni Tolstoy yoki Dostoyevskiychasiga uzundan-uzun bayon qilib o'tirmaydi. Chunki yozuvchi asl maqsadni birdaniga reallashtiradi. Serjant Orxiqulovni qisqa muddatda armiyaga jo'natadi. Urdan kelgach urushga jo'natadi. Keyin otasidan judo qilib, yetimlik gashtiga eshik ochib beradi. Uylantirib, bolalarini ham birin-ketin hayot sinovidan o'tkazadi. Yuqoridagi Tursun bilan bog'lif voqealarda aniqlik va qisqalik prinsipining qissa to'qimalarida aks etish modusini tartiblashtiradi. O'zbek folkloridagi ertaklaru dostonlarimizda bu xususiyat hozirgacha saqlanib qolgan. Qisqa muddatda bola shahsodaga aylanadi. Yetti xil vodiyni kezib, yettita sinovni boshidan kechiradi hamda malikaning muhabbatini zabt etadi. Shon-shuhrat hamda boylik uning qo'liga ko'chib o'tadi. Tog'ay Murodning qissalarida esa, aniqlik va qisqalik konseptual xarakterga evirilib, jamiyat hayotining ajralmas muammosiga

⁶¹ O'sha qissa, -B.18

aylanib, qishloq odamlari ruhiyatidagi o'sish va o'zgarishlarni anglashga katta imkon beradi:

“Bir ta'tilda ota-onasi Paxlavon Dahoni uylantirmoqchi bo'ldi.

Daho oyoq tiradi. O'qishni o'rtaga soldi.

– Hali yoshman, – dedi.

Ammo asl boisini aytmadi.

Ota-ona niyati qat'iy bo'ldi.

Oxiri Doho ko'ndi.

“Mendan nima ketdi, bir o'ynab qolay. O'qishni biturguncha kim bor, kim yo'q”, dedi.

Ota-ona qarindoshlari qizini kelin qilmoqchi bo'ldi:

– O'zimizniki yaxshi-da, yolg'izgina bolam bo'lsa...

Daho o'sha daftardagi qizni aytdi:

– Olsam, o'shani olaman, bo'lmasa yo'q! – dedi.

Ota-ona yolg'iz o'g'il ko'ngilga qaradi.

To'y bo'ldi.

Kelin ota-ona oldida qoldi.

Kuyov boshqa oyda o'qishiga qaytdi.

Bayram ta'tillarda-kelib ketib turdi.

Bir o'g'il, bir qiz ko'rdi.

O'qishlar bitdi.

Daho o'z viloyatiga ishga yuborildi.

Daho shaharda qolmoqchi bo'ldi. Shaharda qolish uchun pinhona urinib ko'rdi.

Ammo ish masalasi qiyin bo'ldi.

Daho ichini it tirnadi.

Ongsiz qoldi. Qishlog'iga qaytib bordi.

O'zi o'qib ulg'aymish maktabida o'qituvchi bo'ldi”⁶².

Keltirilgan parchaning o'zi bitta asar bo'lgulik voqelarni qisqalik prinsipiga evriltirishda ko'rinadi. YA'ni yozuvchi folklorizmlardan unumli istifoda qila olgan. Monologik nutq qissa to'qimalarida shu qadar sochilib ketganki, Tursun o'qiyotgan she'rlarda bu hol yaqqol

⁶² O'sha qissa, -B.23-24.

ko'zga tashlanadi. Ayni paytda, inson ruhiyati bilan bog'liq qator kechinmalar sintezi qissa arxitektonikasida yanada jilvalanadi.

“Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor reprezentativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni ko'zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro'yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo'lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik bo'lishi tabiiy”⁶³.

Prof.D.Quronov so'z qo'llashdagi normadan og'ishlarda kuzatiluvchi badiiy-estetik maqsadlar quyidagicha umumlashtirishni tavsiya qiladi:

1. *Davr ruhini aks ettirish.*
2. *Joy koloritini berish.*
3. *Personaj nutqini individuallashtirish.*
4. *Tasvir predmetiga munosabatni ifodalash*⁶⁴.

Manbaga tayanadigan bo'lsak, Tog'ay Murodning aksariyat asarida ana shu prinsip o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, ilk qissalaridan to romanlarigacha davr ruhi bilan yonib-yashash yozuvchi ijodiy konsepsiyasining o'ziga xosligini tayin etadi. Nutqiy polifonizm yozuvchi ijodining eng go'zal usullaridan biridir. Yozuvchi qissaning 40 faslida ana shu daho Tursunning o'ziga xos qismatini ochiqalaydi. Shu qisqalik ichida uning hech kim emasligini, nomdorlik, mashhurlik ilinjida qalam surib, na siyosatda, na adabiyotda tuzukroq ovoza bo'lganini isbotlaydi:

Saroy odamga to'ldi.

Hayallab kelmishlar deraza tokchalarida o'tirdi, devor bo'ylab tizildi, ostonada tik turdi.

Davra ikki ko'zi to'rda bo'ldi.

Shoirlar birin-ketin minbarladi.

⁶³ Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. –T.: “Sharq”. 2004. –B.59-60.

⁶⁴ Quronov D. Nazariy qaydlar. –T: “Akademnashr”. 2018. –B.70.

Daho gali keldi. Daho avval-avval dovdiradi. Keyin-keyin o'zini o'nglab oldi.

O'zini sipo tutdi. Qulochlarini katta ochdi.

Ko'zlarini yumib she'r aytdi.

Menga qarab

Titraysan, daraxt

Izg'irin o'ramish

Sening-da

Bag'ringni.

Mening ham kurtaklarim

Ichimda o'rtanar

Ko'ksimda to'lg'anar

Teshib yuborguday bag'rimni!.

Daho ko'zlarini ochdi. Davraga nazar soldi. Davrada yelka qisdi. Birov lab burdi.

Birov eshikka ravona bo'ldi!"⁶⁵

Nutqiy polifonizm hodisasi qissada ana shu o'rinda ham o'ziga xos tarzda yuzaga chiqadi. Ayniqsa, Daho Tursunning she'rlaridagi kayfiyatni, eshitadigan quloqning o'zi yo'qligi ayon bo'ladi. Chunki bu asarda yozuvchi Daholikka davogarlar, o'zbek adabiyotini mensimasdan, jahon (G'arb) adabiyotiga sho'ng'ib ketib, millat sajiyasini, ruhiyatini, didini o'tmaslashtirishga qaratilgan degan xulosaga kelishi tabiiy. Negaki, o'sha davrda G'arbgga taqlid qilib, o'z uslubini topolmay, nomdor sanab, medallaru shon-shuhratga burkanib qalam surayotganlar nihoyatda ko'payib bormoqda edi. Bu qissada yozuvchi ana shularni nazarda tutgan bo'lsa, ajabmas. Bugungi kunda modernizm atalmish hodisaga, oqimga ko'nikib, tushunib bo'lgan katta bir avlod eksperimentlar qilib turibdi. YA'nibadiiy adabiyotning yashovchanligini – milliy zamin bilan bog'lab olib borish zarur degan g'oyani adib Daho Tursun xarakterida yaxlitlashtiradi. Biroq ko'pchilik qissa nashr qilinganida tanqid qilishgan. To'g'r tanqidiy o'rinlar ham mavjud. Qissalaridagi

⁶⁵ O'sha qissa. –B.72-73.

bir-biriga o'xshash syujetlar ham uchraydi. Ammo yozuvchi o'z ijodiy konsepsiyasini namoyon qilishda uslublararo sintezni ham kafolatlashga harakat qilgan.

Prof. Q.Yo'ldoshev shunday yozadi: "Badiiy bitik mazmunining asl mohiyati muayyan asarda tasvirlangan olam, badiiy nutq, kompozitsiya va syujet singari tarkibiy qismlardan iborat shakl unsurlari birligida namoyon bo'ladi. Tahlil amaliyoti uchun adabiy asarni tekshirishni shu unsurlarning qaysi o'zaro chambarchas bohliq va ular birgalikdagina badiiy shaklning g'lyat mug'im va qimmatini estetik xususiyatini yuzaga chiqaradi.

Tasvirlash olami. Badiiy asarda tasvirlangan olam deganda, ijodkor tomonidan real borliqqa o'xshatib chizilgan odamlar, ularning xatti-harakatlari, narsa-hodisalar, tabiat hamda kechinmalar tasvirining yig'masi to'shiniladi. Shu tariqa badiiy asarda birlamchi real borliqning modeli yaratilganday bo'ladi. Adabiy asarda tasvirlangan olam manzarasi alohida badiiy tafsillardan iborat bo'ladi. Badiiy tafsil peyzaj yoki portret unsuri, biror narsa, harakat, tutum, ruhiy holat manzaralari va boshqa son-sanoqsiz tasviriy yoki ifodaviy unsurlarni o'z ichiga oladi"⁶⁶. Darhaqiqat, qassadagi ana shu kriteriyga mos tasvir usullari yagona estetik qamrov nisbiyligini namoyish qiladi. Ruhiy sarzanishlardan o'sib chiqqan tuzalmas dard – sobiq itifoq yakka hokimligining nashidasi ekanligi ayondir. Inson qalbi bilan hazillashgan muhit va makon yo'rig'ida hamisha fojea, inqiroz, mutelik hukmrondir. Mutelik hukmron bo'lgan joyda hech qachon rivojlanish ro'y bermaydi. Qahramonning o'y-xayollari ham, uning umidlarining chippaka chiqishini ham, orzulari sarob bo'lishini ham tushunib yetgan kitobxon yozuvchining ojiz va qudratli fabula yaratish fragmentlarini ham teran talqin eta oladi. Tog'ay Murod ana shu fojeaviylikni tasvirlashda ko'ngil mehvari bilan ish tutishi ko'pincha yaxshi ifoda madaniyatining teranlashuviga soya solgandek

⁶⁶ Yo'ldoshev Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. –T.: "Kamalak" nashriyoti. 2016. – .194.

tuyuladi. Katta romaniy tafakkur o'quvchi miyasida ro'y berishi mumkin bo'lgan "portlash"ni butunlay boshqa o'zanga burib yuborishi tayin. Ana shuni iste'dodning g'unchalari yanglig' qabul qilish muhim ahamiyat kasb etadi:

Daho guruhbozlik bilan-da Adabiyotni ololmadi!

Xalq, oting nima, demadi!

"Uh, qo'ylar! – deya ijirg'andi Daho. – O'tlab yurgan qo'ylar! Qarab tur, hali hammangni ketimdan qo'yday ergashtiraman ko'rasan!"

Daho o'yladi-o'yladi, bir yumalab, vatanparvar bo'lib oldi!

Avvalo, o'z maqsadi uchun vosita topdi. Ilk vositasi Orol bahrikamoli bo'ldi. tabiatni asrash qo'mitasi odamlari bilan Orolga bordi.

Orol bo'yida sharshara sochlarini silab xayol surdi.

Poyida zangoridan-zangori bir olam chayqalib-chayqalib turdi. Qadimdan qadim bir olam to'lqinlanib-to'lqinlanib turdi.

Orol buyuk Amir Temurni ko'rdi. Orol jahongashta Chingizxonni ko'rdi. Orol alloma Beruniyni ko'rdi...

Daho yendi ana shu qadimdan qadim Orol oti bilan jalloblik qiladi! Daho yendi ana shu ko'hnadan-ko'hna bahrikamol nomi bilan jalloblik qiladi!

Daho kerga qaradi, Daho ko'zlarini yashirdi!.."67

Keltirilgan lavhada yozuvchi-roviy va qahramon nutqi uyg'unlashib, yagona bir konsepsiyaga aylanganligini his etamiz. Dahoning xarakteri ushbu lavhada yanada ochiqqlanadi. Chunki Daho o'zining muborak maqsadlariga erishish uchun qanchadan-qancha odamlarni qurbon qilishga ham tayyordir. Bu xususiyati bilan u mashhurlik pog'onalariga qadar ko'tarilmoqchi bo'ladi. Demak, yozuvchining maqsadi shuki, har bir personaj ruhiyatidagi azim evrilishlarni anglatish manerasining ustuvorligida qabarib ko'rinadi. Shu tariqa hayot haqiqatini badiiy haqiqatga, monologik talqin

⁶⁷ O'sha qissa. –B.79-80.

negizida olam va odam muammolarini ham tizginlashtirishga zamin yarata boradi.

“Ijodiylik zarur degan gapdan ijodkorlik oson ish ekan degan fikr kelib chiqmaydi. San’atdagi ijodkorlik ruhi shaklsiz voqelikka qat’iy munosabatdan tug’ilgan uslubning mukammalliligiga suyanadi. U o’z davri ehtiroslarini shaklga solgan sayin o’zi ham shakllanib boradi. Boshqa tomondan esa biz oshiq-ma’shuqlikning jo’shqin ehtiroslaridan uzoqlashar ekanmiz, bugungi san’atkordan de Lafayyet xonim bo’lish talab etilmaydi. Shaxsiy g’am-hasratlar ommaviy ehtiroslar tagida ko’rinmay qolgan bugungi kunda san’at faqat oshiq-ma’shuqlarning jo’n ehtirosi bilan shug’ullanolmaydi. U yangi tarixiy kurashlar jarayonida ommaviy ehtirosni o’rganishi zarur bo’ladi. Ehtiroslar aqlga bo’ysungan, dunyo qiyofasi mavhumlashgan ayni paytda san’at uchun o’zini taqdir qo’liga topshirishdan boshqa chora qolmadi; shunday bo’lsa-da, u hamon mustabidlikka qarshi birlikka da’vat qilayapti. Xuddi shu da’vati bilan o’zini-o’zi xavf ostiga tashlayapti. Bugun ijod qilish – o’lim bilan yonma-yon yashashga o’xshab qoldi. Ommaga xos ehtirosni ifoda etmoq uchun hech qursa uni o’z jismida sinab, boshidan kechirib ko’rish kerak. Biroq bu ehtirosni boshidan kechirmoqchi bo’lgan san’atkorga uning ichida yo’qolib ketish xavfi ham mavjud, zero zamonamiz san’at asaridan ko’ra kundalik matbuot oldi-qochdillari izidan quvib yuradi”⁶⁸. Darhaqiqat, har bir davrning o’z olomonchilik kayfiyati bo’ladiki, buni “Momo yer qo’shig’i” qissasi qahramonlari bilan ham taqqoslash mumkin. Polifonik nutq tabiatidagi o’sish-o’zgarishlar ijodiy kamolotga ko’tarilayotgan yozuvchi uslubining individualligini ham, sjet va kompozitsiya tuzishdagi o’ziga xosliklarini ham namoyon qila oladi. Buni inkor qilib bo’lmaydi. Shuning uchun ham adib qissa mohiyatiga davr va zamon mafkurasini ustalik ila singdirib borganligini payqash qiyin emas. Bugun Orol ham quridi, daholar ham o’zgardi, avlodlar ham almashindi. Ammo bu kabi Daholar istiqlol davrida ham bir

⁶⁸ <https://ziyouz.uz/jahon-nasri/alber-kamyu/alber-kamyu-izhod-va-in-ilob-esse/>

yumalab, mustqillikni biz qo'lga kiritdik deya xalqning boshini aylantirib she'ru romanlar yozib yurganliklari sir emas. Yangi jadidlar paydo bo'lgan uchinchi renessansda ham o'zlarini mustaqqillik uchun jonini fido qilganlar safida ko'rishini istashlik zamonaviy daholik qusuridan sira kam emas.

Prof.V.Alimasov shunday yozadi: "Isyonda g'oya bo'lmaydi, unda odamning o'z istaklariga hissiy ergashishi hukmron, revolyutsiya esa g'oyalarga asoslanadi va uning o'zi hodisalar ustidan hukmron bo'lishga intiladi; isyon aniq voqeaga, shaxsga qaratiladi, revolyutsiya-xalqqa, sinflarga, tuzumga; isyon o'z begunohligini himoya qilsa, o'zaro kelishuvni ko'zlasa, revolyutsiya boshqalarni gunohkor deb biladi, ularni yo'q qilishni ko'zlaydi; isyonning o'z chegarasi, doirasi bor, revolyutsiya hudud, sarhad bilmaydi; isyon mavjud kuch va imkoniyatga tayanadi, revolyutsiya yangi-yangi kuch va imkoniyatlar qidiradi; isyon o'z maqsadiga yetgach to'xtaydi, revolyutsiya hal etib bo'lmaydigan vazifalarini o'z oldiga qo'yadi; isyon pastdan yuqoriga qarab yo'naltiriladi, revolyutsiya — yuqoridan pastga; isyon reallikka asoslanadi, revolyutsiya-romantizmga; isyonning quroli so'z, e'tiroz, mubohasa, revolyutsiyaning quroli do'q, o'q, mabohasadir"⁶⁹. Isyonda g'oya bo'lmaydi degan jumlaning o'ziyoq – har qanday ezgu isyon g'oyaning bag'rida pishib yetilishiga ishora qilinmoqda. Daho "Momo yer qo'shig'ida" isyon qilib, maqsadiga erishish uchun qadam tashlaydi. Shuning uchun adib bu kabi obrazlarni qissa poetikasiga olib kira olgan. Bizningcha, qissada hali maromiga yetmagan o'rinlar borligi ayon. Shunday bo'lsa ham, qissa o'z davrining adabiy mahsuli ekanligini unutmaslik lozim. Davr ruhi va shukuhi qissa poetikasining ham, yozuvchining o'z oldiga qo'ygan maqsadining ham ajralmas halqalaridir desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Umuman, o'zbek va rus qissachiligida adabiy mushtaraklik va badiiy til meyorlari inson ruhiyatini qayta idrok etishga zamin yaratadi. Chunki insoniy munosabatlar tig'izlashuvi har qanday davr

⁶⁹ <https://kh-davron.uz/yangiliklar/viktor-alimasov-isyonkor-odam.html>

va sharoitda yolg'lik afsonasini talqin etishiga ham olib keladi. F.Dostoyevskiy va Lev Tolstoylar ana shu motivlarni namoyon etgan. O'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayev va Tog'ay Murod surxon koloritini olib kirgan bo'lsa, X.Do'stmuhammad esa Toshkent adabiy hayotini o'z asarlarida yuzaga chiqara oldi. Qissalarida monologik nutq va tushkunlik xronotopi uyg'unligi shunday konseptlardan biridirki, yozuvchi va jamiyat, muhit va makon, zamon va isyon talqinini ifodalashga qaratiladi. Yozuvchi Tog'ay Murodning mashhurlikka erishish uchun turli razilliklardan tonmaydigan "Momo yer qo'shig'i" negizida – qahramon juda katta sinovlarni boshidan o'tkazadi. Bu qahramonning hayotini tubdan o'zgartirib yuborgan hodisalarning turli xil vaziyatlardagi kechinmalaridir. Yozuvchi ana shu monologik nutqni individ shaxs, o'z-o'ziga gapirayotgan inson sifatida ham yuzaga chiqarishga katta ijodiy tendensiyaning "kashf" etadi.

2.2. Qissa arixtektonikasida ritm va pafos talqini

Butun koinot o'z ritmi asosida harakatlanadi. Zarradan to eng katta sayyoragacha ritmik qurilishga ega. Nafas olishimiz, yuraklarimizning marom bilan urib turishi vujudimizdagi muvozanatning bir xil ishlashini belgilaydi. Badiiy asarning kompozitsion xususiyatlari o'sha ritm bilan o'lchanadi. Ritm buzilgan joyda yozuvchi mahorati bo'y ko'rsatmaydi. Azim an'analar va qadriyatlar modusining tabiatini ham ritm belgilaydi. Ritmsiz hayot yo'q. Pafos o'sha ritmning tartiblanishidan hosil bo'ladi. Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi ritmik birliklar folklor sarchashmalarining bir uzvi ekanligini dalolatlasa, ayni chog'da, umummilliy qadriyatlar mezonining ajralmas halqasi ekanini kafolatlaydi. Qoplon va Oymomo o'sha ritm bag'ridagi mungli qo'shiq, hazin kuy, dardu hasratini sizni bizga hirgoyi qilayotgan bir bandai ojiz, o'tmish va kelajak orasidagi ko'priq, qadriyatlar gulojidir.

Sizib turgan buloqning, tundagi Oyning oydinligi, muhabbatning olovrang tusda jilvalanishi, nafsning to'qligi, Allohga so'zsiz iltijo etishi, ichki hissiyotlarining hech kimga bilinmaydigan og'riqlarida millat sajiyasiga xos mental xarakterlar aks-sado beradi. Asardagi o'lim tasvirini ham yozuvchi mahorat bilan syujet bag'rida jilvalantiradi. Follkorga xos, dostonona qo'shiqlar simfoniyasi dialektik qonuniyatlar tegrasida tartiblashadi. Buni hech kim inkor qilolmasa kerak deb, o'ylaymiz. Yuqoridagi fasllarda adibning hozirgi adabiy jarayonda tutgan o'rni va uslubiy-shakliy izlanishlari xususida so'z yuritilgan bo'lsa, ushbu faslda ritmdan ibtido olgan hamda pafosning kompozitsion strukturasiga oydinlik kiritishni maqsad qildik.

Prof. S.Melining ushbu mulohazalariga e'tibor beraylik: "Badiiy adabiyot – alal-oqibat ruhoniya hodisasi. Shunday ekan, yaratilgan va yaratilajak asarlardagi voqea, qahramon va his-tuyg'ularga ruhoniya nuqtai nazaridan yondashish, ruhoni quvvat, ruhoni tuyg'u, ruhoni ta'sir degan atama-tushunchalarni ilmiy iste'molga faol kiritish lozim. "Injil"da yozilganidek, "Moddiy jismlar bor bo'lganidek, ruhiy jismlar ham bor" (Русчаси "Yest telo dushevnoye, yest i telo duxovnoye")⁷⁰. Binobarin, ushbu hikmatdan foydalanadigan bo'lsak, badiiy adabiyotning bosh belgisi va mohiyati moddiy jismlar – tashqi voqelik, unda umrguzaronlik qilayotgan odamlarni ruhiy jismlarga aylantirish, ya'ni badiiy qayta tiklash deyishimiz mumkin⁷¹ degan xulosani beradi. Badiiy shartlilikni va butun muallif ideali, dunyoqarashi, ongu shuurida kechayotgan voqelikni **ritm bilan tartiblanishi** bu boshqa masala. Aynanlik badiiylik modusini yagona estetik markazda jipslashtirib, voqelikni mustaqil boshqaruvini tayin etadi.

"O'zbekiston territoriyasidagi o'zbeklarning to'y marosim folklorida bu janrning saqlanib qolmasligi esa juda ko'p sabablar

⁷⁰ Aziz Havoriy Pavlusning Korinfliklarga birinchi maktubi. 15:44.

⁷¹ Miliyev S. Global ilmiy-badiiy talqin poetikasi. Filol.fan.dok.diss.si. –Toshkent. 2020. – B.51.

bilan izohlanadi. Mana shu sabablardan biri sifatida shuni aytish kerakki, O'rta Osiyoning qadimdan tortib to o'rta asrlarga qadar yetakchi madaniyat o'choqlaridan biri ekanligini nazarda tutsak, bu territoriyadagi Samarqand, Buxoro, O'rganch, Quva, Termiz, Shosh kabi katta shaharlar asosan hozirgi O'zbekiston territoriyasida joylashganligini ko'ramiz. Bu shaharlardagi savdo-sotiq, madaniyat hamda ilm-fanning rivoji shu shaharlarning aholisigagina emas, balki ularning atroflaridagi aholiga ham ta'sir etmay qolmas edi. Mana shu serqirra, murakkab ta'sir o'zbek folkloridagi turli janrlarning turlicha yo'nalishda rivojlanishiga, ularning tabiatida turlicha transformatsiyalar yuz berishiga olib keldi. Ehtimol, mana shu jarayonda "Olqish" hozirgi O'zbekiston territoriyasida yashovchi o'zbeklarning to'y marosim folklorida iste'moldan chiqib, asta-sekin unutilgan bo'lsa kerak"⁷². Darhaqiqat, – olqish mustaqil janr sifatida bugungi kunda yangi davr badiiy solnomasida Isajon Sulton, Luqmon Bo'rixon izlanishlarida ham ko'zga tashlanadi. Biroq ularda ham kelin tushirish, qiz uzatish marosimlarida ham kayvonilar tilidan kuylanganligi, Qashqadaryo, Farg'ona tomonlardagi rasm-rusmlarda sahlaniib kelinayotgani ifodalangan. Masalan, Isajon Sultonning "Onaizorim" qissasida Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlaro" qissasidagi kabi uslubiy yaqinlik ko'zga tashlansa, Luqmon Bo'rixonning "Jaziramadagi odamlar" romanidagi Lola borazida namoyon bo'ladi. 80-yillarda yozilgan "Oydinda yurgan odamlar" qissasidagi "Olqish" janri, kelin salom kabilar ham bugungi zamonaviy badiiyat durdonalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Mana shu jarayonda ritm va pafos o'zining yorqin namunlalarini ifodalashga xizmat qiladi. Syujet va kompozitsion birliklar adib yaratgan obrazlarda aks-sado beradi.

Qissa poetikasida kelin salom marosim folklorining o'ziga xos tabiatini dalolatlaydi. O'zbek xalq urf-odatlarida kelin salom masalasi o'ta nozik hamda olijanoblik, mehr-muruvvatlilik rishtalarini dalolatlaydi:

⁷² Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. –T: "Bookmany-Print". 2022. –B.198.

“Kayvoni momo kelinni to’ylovchilarga salom berdira berdi:
Soydan ho’kiz suvlatgan,
Do’mbirasini kuylatgan,
O’g’illarini uylatgan –
Qaynotamga salom!

Osmondagi yulduzday,
Qoshi qora qunduzday,
Dili oydin kunduzday –
Qaynonamga salom!

Baytlar kayvonidan bo’la berdi, ta’zimlar kelindan bo’la berdi:
Qozonlarning qopqog’i,
Ayollarning oppog’i,
Misli olma yonog’i –
Gulgun opamga salom!⁷³

Marosim folklori o’zbek xalqining azal-azaldan ajdodlardan o’tib kelayotgan boy madaniy merosimizning bir uzvi hisoblanadi. Tog’ay Murod ana shu yo’qolib, yoki unutilib ketayotgan udumlarni turli shakllarda saqlab qolish umidida matn tarkibiga singdirib, yangicha ohangda jilvalanishiga hissa qo’shgan adibdir. Bir qarashda, oddiydek tuyulgan hayot haqiqati, aslida ota-bobolarimizning asriy orzulari ekanligini kafolatlaydi. Sobiq ittifoq davrida tarix, din va tildan judo qilish, azim qadriyatlardan mosuvo etish, sho’ro siyosatining asosiy maqsadlaridan biri ekanligini yaxshi bilamiz. Adib umumturkiy xaqlarning etnografik joylashuvi, har bir hududning o’ziga xos folklori mavjudligini, ayniqsa, Surxondaryo koloritini asarlarida aks ettirganligini yaxshi tushunamiz. Demak, adib Denov, Termez. Boysun mintaqalaridagi urf-odatlarining avangard shaklu shamoyilini qissa hamda romanlarida “bulbuligo’yo”dek sayrata oldi. “Qadimda mavjud bo’lgan keyingi davrlarda unutilib qayta tiklangan urf-odatlar shartli ravishda yaxlit

⁷³ Keltirilgan qissa. –B.40.

hisoblanadi. Chunki uning tarkibiy qismlari bir-biriga mutlaqo mos kelmaydi, marosim tarkibidagi elementlar semantikasiga qarama-qarshi tushunchalar singib qoladi. O'zbek nikoh to'ylarida kelin va kuyovning olov aylanishi marosimi qadimgi ajdodlarimizning otashparastlik e'tiqodi rudementlari sifatida baholanadi, biroq, islomiy nikoh to'yi marosimi tarkibida uchraydi. Bu o'rinda olov aylantirish motivi, kelinning chimildiqqa solgandagi chiroq yoqishlar va ular bilan bog'liq olqishlar garchi bugungi kunimizda uchrayotgan bo'lsa-da, islomiy nikoh to'y marosimining tarkibi bo'la olmaydi. Bu yerda diniy qarashlar, diniy falsafiy mantiqning o'zaro zid tushunchalari aks etgan"⁷⁴, – deya yozadi Z.Kasimova. Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida ana shu an'analar asar kompozitsiyasida muhim o'rin tutadi. Ritmik bo'laklar, pafosning kuchayishi, folklor motivlarining o'ziga xos tizimini joriylaydi.

Nasrdagi ritm borasida salmoqli tadqiqotlar yaratgan prof. H.Karimov: "Nasrdagi ritmni asar garmoniyasidan qidirish lozim, ya'ni asardagi har bir vaziyatning umumiy birligi, har bir holatni, har bir voqea-hodisaning silsilasidan, xarakterlarning xatti-harakati, gapirish manerasi, ularning asarda bajargan ishi, qilgan harakatning mantiqiy asosining uyg'unligidan, shuningdek, xarakter faoliyati, uning tutgan ishi saviyasi, bilimi, psixologiyasiga mos yoki mos emasligidan, xullas, yozuvchi mahoratini belgilaydigan badiiy komponentlarning kompleksidan qidirish lozim"⁷⁵ ekanini ta'kidlaydi. Tog'ay Murod ana shu ritmni uslubiy jihatdan yuksak pog'onaga olib chiqadi. Muallif-kitobxon-obraz birligida qissa badiiyati yanada ravshanlashadi:

"Qoplon diltang bo'lib o'tirib edi, otasi kirib keldi. U, otasi maqsadini bildi.

⁷⁴ Kasimova Z. Shamborak janri xususida. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/download/27875/28698>

⁷⁵ Karimov H. Ritm –asar yuragi. –T: Turon-Iqbol“. 2011. –B.270.

– Bor, mol-hollarga qara, - dedi ayoliga. Otasi choylashib o'tirdi. Fotiha qildi. Yerga qarab gap ochdi:

– Enang aytgan gapni nima qilding? – dedi.

– Qanday gap? – talmovsiradi Qoplon.

– Nevara-chevara orzusi.

Qoplon haminqadar kuyib-yondi.

– E-e-e-, ota! – dedi. – Ayol meniki! Buyog'ini o'zimga qo'ying-da, endi!

– Aytmasang-da, ayol seniki, bari gap senda.

– Bo'pti-da!

– Bir og'iz gapni aytib, javobini berib yuborish shuncha qiyinmi?

– Tinch qo'ying, ota, tinch qo'ying!

Qoplon o'rnidan turib ketdi"⁷⁶.

Qissadagi o'lim tasviri ayni shu faslda yechim topadi. Shu tasvirdan keyin Qoplon va Oymomoning bir-birlariga muhabbati yanada mustahkamlana boradi. O'zbek xalqida farzand ko'rish, farzand ko'rmaslik taqdir yozug'i kabi, ertaklarda, dostonlarda ham variantlari verballashuvi kuzatiladi. Sababi, cholu kampirning o'g'li yo'qligi, yoki ular bir umr dehqonchilik, chorvachilik qilib umr kechirishi, bolasizlik oqibatlarida bir-birlariga dalda, suyanch bo'lishi tabiiydir. Shu o'rinda, cholning qishdan omon chiqmasdan omonatini topshirishi, Qoplonning o'z otasiga taqdirimga aralashmang deyishi ham bir tomondan o'rinlidek. Oymomoning javobini berib boshqasini xotin qilishga ko'ndirish hech kimning qo'lidan kelmaydi. Asardagi ritm ana shu konsepsiyani boshdan oxiriga qadar marom bilan ifodalanishiga zamin hozirlaydi.

Qissada irim-sirim folklori. Qissada farzand ko'rish umidida bir-birlarining ichki ishonchlarini tasdiqlash uchun qo'shni qishloqda fol ochadigan Hojar ko'r huzuriga boradilar. Qoplon bilan Oymomo ana shu tamoyilga ham amal qilsa, xuddi farzand ko'rib ketadigandek. Hozirgi kunda ham qandaydir toshu daraxtlardan, shirk sanalmish udumlardan hazar qilmaydigan odamlar oramizda

⁷⁶ Ko'rsatilgan qissa. –B.55.

topiladi. Yozuvchi bu yerda qadriyatlar – rim-sirimlar ham qon-qonimizga singib ketganligini ko'rsatib berishni maqsad qilganligidadir. Adib ayni damda, hayotning o'ziga xos murakkabliklarini talqin etarkan, Hojar ko'rning fol ochib. Bola ko'rish mumkin yoki yo'qligini ham dalolatlaydi. Ana shu mantiq Hojar ko'rning turli vajlar bilan kelin-kuyov, ko'z tegish, alahsirash, jin chalish bilan og'riganlarni davolash usulini ham yuzaga chiqaradi. Bu ham qissadagi mumkin bo'lmagan narsalarga o'quvchini ishontirish taktikasining o'ziga xosligini namoyon etadi. Qissada irim-sirimlar bilan bog'liq o'nlab folklor motivlari mavjudki, ayniqsa, kelin-kuyovni bir-biriga qovushtirishdan boshlab, ularning farzand ko'rishgacha bo'lgan oraliqdagi bajarishi lozim bo'lgan odatlarni idroklaganida seziladi:

“Bir armon folchiga borish bo'ldi. Fol ochirish bo'ldi...

Qoplon bilan Oymomo tong saharlab keldi.

Oymomo yolg'iz o'zi ichkariladi. Tevarakka alangladi. Hayron bo'lib qoldi. hovli to'la oq tovuq bo'ldi! tovuqlar biri qo'yib biri qoqoladi. Oymomo ketidan ergashdi.

Oymomo tovuqlarni kishkishlab haydadi. Ko'nglidan: “o'zi, bu yer uymi yo tovuq fermami?” degan gap o'tdi.

Nimqorong'i uyga kirib bordi.

Uy to'rida oppoq bir momo o'tirdi. Momo oppoq kiyimda bo'ldi. yelkalariga tashlab olmish ro'molida oppoq bo'ldi. ro'moli chetlaridan ko'rinmish sochlari-da oppoq-oppoq bo'ldi. oppoqlikda yuzlarida sochlaridan qolishmadi.

Hojar ko'r yuzlarini yuksak tutdi. Yuzlarini mag'rur tutdi, ulug' tutdi. Go'yo, shipga yuzlanar bo'ldi. go'yo, bir nuqtaga tikilar bo'ldi. uy nimqorong'iligida ajab bir sehr bo'ldi. hojar ko'r o'tirishida ajab bir salobat bo'ldi.

Oymomoni nimqorong'i sehr bosdi. Hojar ko'r salobati bosdi. O'tirishini-da, turishini-da bilmadi. Bo'sag'ada serrayib qoldi!”⁷⁷

⁷⁷ Ko'rsatilgan qissa. –B.55.

Irim-sirim folllkori qissa poetikasida muhim o‘rin egallaydi. Adib ushbu tasvirda “chiqmagan jondan umid”ligini o‘quvchiga tushuntirish uchun kiritgandek. Negaki, Qoplonning otasi vafot etgach, chorasizlikdan – chora izlash ham muhimligi ayonlashadi. Mana shu ritmik bo‘laklar obrazlarning yorqin ranglarda namoyon bo‘lishini ham ta‘minlashga xizmat qiladi. “Har qanday xalqning ma‘naviy dunèqarashi uning ijtimoiy haèti, maishiy turmush tarzi, an‘analari va rasm-rusmlari, folklori bilan belgilanadi. Folklor xalqning etnik o‘ziga xosliklari va milliy belgilarini so‘z orqali ifoda etuvchi muhim manba sifatida xarakterlidir. Jahon folklorshunosligida marosimlar va ularning aytimlarini o‘rganishga ishtièq XX asrdan oldinroq maydonga kelgan edi. G‘arbda XIX asrladanoq marosimlar va ularning mifologik mohiyati bilan bog‘liq tadqiqotlar yaratilgan edi. Britaniyalik antropolog Djeymis Djordj Frezeyer magiya va dinga doir yaratgan ulkan tadqiqotida birinchilardan bo‘lib, inson tug‘ilishi, soch olishi va tirnoqlarini olish bilan bog‘liq irimlar tadqiq etilgan edi”⁷⁸. Darhaqiqat, irim-sirimlar bilan bog‘liq tadqiqotlar azaldan mavjud bo‘lib, yozma adabiyotga ko‘chib o‘tganligi fikrimizni to‘laqonli quvvatlaydi. Har bir xalqning o‘z rasm-rusumi bo‘lganidek, irim-sirimlar ham muayyan xalqning eposlarida yuzaga chiqadi:

“Olamda Oymomo uchun bor-yo‘g‘i bitta savol bo‘ldi... Savol berguvchi odam-da birov bo‘ldi.

Savol til bilan emas, boqish bilan aytildi:

“Endi nima qilamiz, momosi?”

Savolga javob berguvchi-da birov – o‘zi bo‘ldi.

– So‘fi Olloyor bovani ziyorat qilib kelaylik. Kim biladi, o‘sha kishi og‘rindilarmi... – dedi. Qoplan otlandi. Ketiga ayolini mindirdi. Oldiga chori qo‘y o‘ngardi. Vaxshimor yo‘l oldi.

So‘fi Olloyor ziyoratgohi bodomzor bog‘ot qo‘ynida bo‘ldi.

⁷⁸ Burikin A.A.Tungusskiye shamanskiye zaklinaniya XVIII veka v zapisyax Y. I. Lindenau//Sibirskaya Zaimka (material Galushko.ru saytidan olindi) [2.B.2.]

Qoplon Olloyor mozori poyida qo'y so'yib qon chiqardi⁷⁹.

Prof.D.Quronov: "Badiiy muloqotga kirishayotgan ijodkor representativ, ekspressiv va appelyativ maqsadlarni ko'zlarkan, asarning tashkillanishi (struktura) shu uchala maqsadning ro'yobga chiqishi uchun optimal imkoniyat yaratadigan bo'lishi lozim. Anglashiladiki, gap qurilishi bilan adabiy asar qurilishi orasida yuqoridagicha maqsadlardan kelib chiqadigan tipologik umumiylik bo'lishi tabiiy. Demak, adabiy asar strukturasini gap qurilishi model(konstruksiya)lariga tayangan holda tushunish va tushuntirish mumkin bo'ladi"⁸⁰. Binobarin, bularning barchasi – ritmda o'z aksini topadi. Demak, ritm asar kompozitsiyasida o'lchovni, janrni, g'oyani, ijodiy konsepsiyasini bir maxrajda tartiblashtiradigan muhim komponentlardan biri ekanligi namoyon bo'ladi.

"Manbalarda kompozitsiya badiiy asar qismlarini yagona badiiy konsepsiya asosida joylashtirish, ma'lum badiiy-estetik maqsad yo'lida biriktirish, degan terminologik ma'nolarni anglatish qayd etilgan. Shuning uchun asar kompozitsiyasini shakillantirishda, avvalo, syujet va uning tarkibiy qismi, konflikt, fabula, peyzaj, portretlar bilan birga asar tili, obrazlar tizimi, yozuvchining uslubi ham o'ziga xos o'rin tutadi. Lekin bir narsani aytish kerakki, qismlar ma'lum niyatni amalga oshirishda meyordan chiqib ketmasligi kerak. YA'ni kompozitsion komponentlardan foydalanishda biriga ortiq darajada e'tibor qaratish boshqalarining asardagi badiiy-estetik vazifasi ochilishiga soya solishi mumkin"⁸¹. Ko'rinadiki, yozuvchi Tog'ay Murodning "Oydinda yurgan odamlar" qissasida badiiylik modusi folklor an'analari negizida to'yintirilgani bilan tahsinga loyiqdir. Buni quyidagi 5 ta tasnifda talqin qilish mumkin:

1. Qissadagi folklorizmlar yozuvchi badiiy olamining rosa pishib yetilgan ko'rinishini namoyon qilsa, ikkinchidan hayot haqiqatini

⁷⁹ Ko'rsatilgan qissa. –B.60.

⁸⁰ Quronov D. Cho'lpon nasri poetikasi. –T: "Sharq" .2004.-B.73.

⁸¹ Yo'lchiyev Q. Nurali Qobulning prozaik maxorati. –T: "Ma'rifat bitiklari" 2021. –B.67.

Qoplon va Oymomo timsolida tipiklashtiradi. Insonning badiiy tafakkuri hissiy estetik qamrov nuqtai nazarida parda orqasida qolib ketmasligi lozim. Yozuvchi qahramonlariga sir va sehrli bir magik tuyg'ularni singdirib yuboradiki. Unda olam va odam munosabatlar bir-birini uyg'unlashtirishga keng imkon beradi.

2. Qissadagi qo'shiqlar, marosimga doir janrlar dialektikasi farzand dog'ida ado bo'layozgan voqelikning ajralmas halqalari sifatida bo'y ko'rsatadi. Ayniqsa, Qoplonning ayoli Oymomoga bo'lgan hurmati, ertakmonand tasvirlar negizida yuzaga chiqadi. Oddiy, to'pori, qishloq odamlarining soddaligi. Ishonuvchanligi va ulardagi kayfiyatning ob-havo kabi turlanib turishi ham tabiiy tasvirlangan.

3. Magik tragizm, sehr va jodulik, farzandlarni katta qilishdagi Surxon koloritining o'ziga xos o'rni mavjudligi, xalq eposining baxshiyona xarakter kasb etishi milliy madaniyatimizning oltin beshigi ekanligida seziladi. Mana shu tamoyil qissadagi ritm va pafosni bir-biriga uyg'unlashtiradi.

4. Epizodik obrazlar – kotibning Qoplonga ish taklif qilib kelishida ko'rish mumkin. Yozuvchi kotibning oshga diqqat qaratishi, o'z nafsini deb, millat sajiyasiga e'tiqodiy qarashi, mafkuraning roli benihoya kattaligini ramziy ishoralaydi. Sho'ro kotibining Qoplonni yo'qlashida ham qandaydir bir sirli tovushlarni uchratamiz.

5. Insoniyat taraqqiyoti davomida "Alpomish" kabi turkum eposlarga qattiq ishonishgan. Milliy va qahramonlik, mardlik, olijanoblik dostonidagi tasvirlar tizimida hayot haqiqatini axtarishgan. Qissada ana shu xususiyatlar ham o'z tajassumini topganligini inkor etib bo'lmaydi. Mavjudlik jumbog'i, oila va farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratish Tog'ay Murod ijodining va uslubining asosiy fragmentlari desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Tabiat va inson munosabati. 60-yillar boshlarida qirg'iz yozuvchisi Ch.Aytmatov urush va urushdan keyingi davr hayoti manzaralarini insoniy muhabbat timsolida yoritib berishni

uddasidan chiqqan bo'lsa, o'zbek adabiyotida O.Yoqubov, P.Qodirov, Sh.Xolmirzayev, O'.Hoshimov singari adiblar turli xil ijtimoiy-maishiy, umuminsoniy mavzular tipida yuzaga chiqarishga urindilar. Demak, biror xalqning muammosi o'z qobig'ida qolib ketsa, u san'at o'sha xalqning ichidan nari ko'tarila olmaydi. Sh.Xolmirzayev jahon klassik yozuvchilarini sintez qildi. Puxta o'rgandi. Ulardan tayinli xulosalar chiqardi. Bu xulosalari negizida "O'n sakkizga kirmagan kim bor" nomli o'zbek xarakterining yorqin timsoliga munosabat tarzida javob bera oldi. Qissa o'sha vaqtlari juda ko'pchilik adabiyotshunos, olimlar, munaqqidlar, talabalar tomonidan katta bahs-munozaralarga sabab bo'lganini ko'ramiz.

Munaqqid A.Rasulov yozishicha: "Psixologik belgilar portret tasvirida aniq ko'rinadi. Mohir san'atkor qahramonning portreti orqali uning qalbini chuqur yoritadi. Portret chizilmagan yirik bir asarni uchratish qiyin. Lekin har bir yozuvchi portret masalasini o'zi hal qiladi. Ayrim san'atkorlar asarni portret tasviridan boshlasalar, boshqa birlari qahramonning xatti-harakatlari orqali portretini yaratadilar. Yana bir guruh yozuvchilar portret va harakatni parallel ko'rsatadilar. Demak, portretni qachon, qanday tasvirlashning aniq ko'rsatmasi yo'q. Ammo portret bilan xarakter yo'nalishi orasida birlik bo'lishi, portret qahramon qalbini yoritishga xizmat qilishi lozim. Lev Tolstoy muayyan obraz ustida ishlar ekan, avvalambor, xarakter "kalit"ni topishga intilgan. Shu maqsadda u qahramonning hayoti, xarakteriga oid ko'p materiallarni o'rgangan. U butun diqqatini "qalb dialektikasi"ga jalb etgan holda qahramon portretini chizgan"⁸². Munaqqid A.Rasulov keltirib o'tgan ta'kidlar juda o'rinli ekanligini hisobga olib, ikki jihatga yana to'xtalish lozim: birinchidan, har qanday portretni jiddiy ishlash uchun yozuvchi hayot materialni puxta bilishi bilan o'zi anglagan olam (ijodiy arxetip)ni o'ziga xos tarzda idroklashi muhim; ikkinchidan, o'sha konseptual qarashlar negizida mavjud voqelik ming bora qayta-qayta ishlanmasin, unda obrazlilik bo'lmog'i shart. Mana shu muhim

⁸² Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. –T., Sharq. 2007. –B.186-187.

belgilar – tabiat haqidagi tasvirdami, insonning ichki psixologik holati xususidagi ifodalardami yaqqol seziladi. Demak, qahramonning hayotiga daxldor asarda nimaiki mavjud uni “yangidan kashf” qilish uslubini ham sayqallashi shartligi ayonlashadi. Bir tomondan, insonning “yashash mantiqi” uning o‘z hayot prinsiplarini yuzaga chiqaribgina qolmay, tarixiy ildizlarga ham borib tutashuvini taqozo etadi:

Yozuvchi L.Tolstoyning “Hojimurod” qissasidagi badiiy bo‘yoqdorlik negizida u doim tinchlik tarafdori ekanligini, insoniyat bir-biriga dushman emas, do‘st va kamarbasta bo‘lib yashash lozimligini uqtirib, shunga amal qilib yashaganligida ko‘rinadi. Savol tug‘iladi? Graf Tolstoy ni nega bunchalik Hojimurod qismati qiziqtiradi? Uningsiz ham ko‘plab mashhur asarlar yozib, elga ancha tanilib ulgurgan, o‘z qo‘llari bilan Nobel mukofotini keskin rad etganligining sabablari nimada? Yozuvchi butun insoniyatga bo‘lgan muhabbatini o‘z asarlari bilan izhor qilarkan, hali ko‘nglining kemptikliklarida bu qadar ayanchli iztiroblar izlari yashayotganini bilish qiyin emas:

“Hojimurod, o‘z qahramonliklari bilan dong chiqargan, biror yoqqa borganida tug‘ ko‘targan, atrofida ot o‘ynatib, uni kuzatib boruvchi o‘nlab muridlarsiz yurmaydigan Shomilning noibi edi. Hozir u, ostidan miltiq turtib chiqib turgan kigiz chakmonga o‘ralgan, quloqchinini bostirib kiygan holda, mumkin qadar o‘zini tanitmaslikka tirishib, yo‘lda uchragan ovul ahllarining yuzlariga o‘ynoqi qora ko‘zlari bilan yashirin nazar tashlab, bittagina muridi bilan bormoqda edi.

Hojimurod ovulning o‘rtasiga kelgach, guzarga chiqadigan yo‘l bilan ketmasdan, chapga – tor ko‘chaga burildi. U, tepalikdagi ikkinchi uyning oldiga kelgach, atrofiga qaranib to‘xtadi. Uy oldidagi bostirmada hech kim yo‘q, tomda esa yaqindagina suvalgan mo‘rining orqasida po‘stinga o‘ralgan bir kishi yotar edi. Hojimurod u kishini qamchisining sopi bilan turtdi va qattiq yo‘taldi. Po‘stin ostidan boshida tungi qalpoq, ustida yag‘iri chiqib ketgan eski

nimcha kiygan bir chol ko'tarildi. Cholning kipriksiz ko'zlari qizil va namli edi, u yopishqoq ko'zlarini ochmoqchi bo'lib pirillatdi. Hojimurod odatdagi salom alaykumni aytgach, yuzini ochdi"⁸³.

Keltirilgan lavhada yozuvchi mard va jasur, ozodlik uchun kurashgan, bosqinchlarning qo'lida shahid ketgan Hojimurod xarakteriga badiiy chizgilar berarkan. Mana shu adabiy portret ham yozuvchining kuchli ruhiy teranlikka kirib borish qobiliyatini ko'rsatadi. Biz bu yerda o'zbek va rus qissachiligidagi badiiy psixologizm va ijodkor fitrati haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Inson qanchalik sermulohaza bo'lsa, shunchalik tasvirni quyuqlashtirish qobiliyatini o'zlashtiradi. Sistematik tarzda bir-biriga matndagi uzilishlarni ham ikkilnishsiz bog'lay oladi. Insonning har bir xatti-harakati uning shaxsiyatini belgilaydi. Hojimurod ham o'zining so'filik rutbasi bilan millat va xalqi uchun qahramonona jang olib borgan. Lev Tolstoy buni "Urush va tinchlik" nomli muhtasham epopeyasida ham batafsil ko'rsatib bera olganlar. Hojimurodning ovozidan sergak tortib qoladigan qatlam esa uni doim muhofaza qilib yuyeradi. Qissadagi muhim fragmentlardan biri – tasvirdagi polifonik nutqning mustaqil ovozlar, roviy nuqti bilan qo'shilib ketishidir. Prof.H.Umurov haqli ravishda ta'kidlaganidek: ""Ko'rinadiki, psixologik tahlil qonuniy badiiy hodisa bo'lib (N.G.Chernishevskiy), ijodiy talantning kamoloti darajasini, uning ta'sir doirasini belgilovchi sifat belgisidir. Bu belgi yozuvchini inson qalbidek keng va sirli, ko'p qirrali va bepoyon olamning bilimdoni va bu olamning sir-asrorini ochib beruvchi kashfiyotchisi ekanligini namoyon qiluvchi kuch-qudratga ega. Shuning uchun ham, inson psixologiyasi (demakki, uning ichki dunyosi, kechinmalari)ni tasvirlovchi san'atkor, o'zini har qanday kishining ruhiy holatida tasavvur eta olishi, uning qalb va qiyofasini ko'rsata bilishi kerak"⁸⁴. Binobarin, o'zbek va rus qissachiligida badiiy psixologizmning

⁸³ Lev Tolstoy. Hojimurod. –T., G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 1978. –B2-3.

⁸⁴ Umurov H. I. Saylanma. Birinchi jild. Risolalar. – T.: "Fan", 2007. 7-bet.

shakllanishi, bir-biridan oziqlanishi, sayqallanishi qariyib bir asardan oshgan bo'lsa-da, ilk ildizlari o'zbek nasrida folklor an'analari borib tutashuvini inkor qilib bo'lmaydi. Darvoqe, badiiylilikning muhim sharti inson psixikasini qanday va qay tarzda keng turda ochib berish manerasi bilan ham belgilanadi. Yozuvchi Sh.Xolmirzayev "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasida Jamshid xarakterini ochib berishga alohida diqqat qaratadi. Asardagi badiiy konflikt, o'zaro ikki do'stning Umida haqidagi mulohazalarida kelisha olmasliklari tabiiy edi. Bunday vaziyatda Jamshid ham o'z munosabatli nutqini (ichki ovozi) idrok qiladi:

"Tilov chiqqach, Jamshid yana tizzalariga suyandi. O'yladi, o'yladi. Tunov kuni Umida suv olib kelib yiqilganida, bular turg'izishdi. O'shanda Umida Jamshidning qo'lini siltab tashlagani va favqulodda Tilovning qo'liga tayanib turgani, yana Jamshidga kinoyali kulimsirab, Tilovga mayingina "rahmat" degani – bular achchiqdan, alamdanda ekanini Jamshid o'sha paytdayoq yaxshi tushungandi va bundan so'ng ham shu qabilda ishlar qilishini kutgandi Umidadan. Lekin bunaqa ishni... Yo'q, bu Jamshidning aqliga sig'madi"⁸⁵.

Mazkur lavhada Jamshidning haqqoniy orzulariga olib boradigan yo'lning mazmunsizligini payqash qiyin emas. Yozuvchi ushbu ifodani "boricha" ko'rsatishga uringan. Yozuvchi bu qissani yozganida 24 yoshga endigna to'lgan esa-da, hali yoshlikning suronli kayfiyatini uchala obraz ruhiyatiga atayin bo'lib-bo'lib singdiradi. Isajon Sulton oradan yigirma besh yil o'tib "Munojot" qissasini yozadi. Har ikkala yozuvchi uslubiga xos ikki jihat e'tiborga shoyondir: inson va tabiat, jamiyat masalasi, bilim va kitobsiz hatto hech qanday narsaga erishib bo'lmaslikni ifodalashdir. Xo'sh, Tilov bilan ham Umida manguga qola oldimi? Albatta, yo'q! Demak, inson har qanday muhabbatni kuch bilan tortib olish mumkin, lekin unga ichki bir ehtiyoj bilan borilmasa umri qisqa bo'lishini ko'rsatish falsafasi qabarib ko'rinadi. Bunday holat L.Bo'rixonning "Quyosh

⁸⁵ Ko'rsatilgan adabiyot. (SH.X). –B.54.

hali botmagan” qissasidagi Davron va Norsoat o’rtasidagi Tanzila uchun jang tarzida yorqin ranglarda namoyon bo’ladi. Shunday ekan, haqiqiy muhabbat o’z istaklari bilan mangu ishq oldida har ikki tomonning bosh egishi bilan zabt etilishini ko’rsatish masalasi asosiy diqqatga evrilgan. Kuchli, tarang psixoanalitik vaziyatda qahramonlar jiddiy sinovdan o’tarkan, o’z tabiatiga sodiq qolib Umida ham Tilovni oxir-oqibat tashlab ketadi. Yozuvchi o’z maqsad-iddaosini baholiqudrat idroklay oldi. Undan tayinli xulosalar chiqarish munaqqid va o’quvchilar zimmasidagi vazifalardan biridir. Prof.D.Quronov ta’biri bilan aytganda, “badiiy asar mazmuni ko’p qatlamli hodisa bo’lib, ulardan ikkitasi – aktual va tub estetik qatlamlar universal xarakterga ega. Aktual qatlam deyilganda asarning ijtimoiy-siyosiy maqsadlariga qaratiladi. Tub estetik qatlam esa asar yaratilgan davrgangina qaratilgan emas – u davr kontekstidan ayro holda ham tushunilaveradi⁸⁶. Har qanday badiiy asarning yuzaga kelishi uchun psixologik zamin⁸⁷ bo’lishi muhim. U qahramonning ichki ruhoniyligini aniqlab, chegaralab olishga qisman bo’lsa-da, qandaydir sharoit hozirlaydi. Mana shu jihat L.Tolstoy, F.Dostoyevskiyda ham aniq-tiniq ko’zga tashlanadi. L.Tolstoyning – ilk jumlaning qanday boshlashi, keyingi tafsilotlarning qanday yechim topishiga yo’l ko’rsatadi. Shundan kelib chiqib mulohaza yuritadigan bo’lsak, Sh.Xolmirzayev uslubiga xos har qanday davr ruhini berishda: tabiat va inson birligi yaqqol ajralib turadi. Bu yozuvchining ijodiy konseptual qarashlarini ham, o’z o’quvchisiga, auditoriyaga nima demoqchiligini ham aniq ravshan ko’rsatishga zamin hozirlaydi.

Shuni qayd etish mumkin, Sh.Xolmirzayev L.Tolstoy haqida yozgan “Tanholik” hikoyasida ham graf Tolstoyning uslubiga xos va shaxsiyatiga mos so’zlarni juda mahorat bilan yig’adi. Bu jihat keyinchalik o’z asarlarida namoyon bo’lganligi seziladi. Uslubiy-

⁸⁶ Quronov D. Cho’lpon nasri poetikasi. –T., Sharq. 2004. –B.139.

⁸⁷ Qarang: D.Quronov. Rus adabiyotshunosligida «psixologicheskaya predistoriya» istilohi qo’llanadi. Cho’lpon nasri poetikasi. –T., Sharq. 2004.–B.159.

shakliy jihatdan, kuchli tragik tasvirlar fragmentlarida ham astaskinlik bilan o'sib boradi. "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" qissasidagi voqelik bugun uchun ham muhim. jamiyat o'z yoshlarini kitobga oshino qilsagina kelajakda o'rnini topishi muqarrar. Gap asar tahlili haqida borarkan, bunday eskirmas mavzularni 60-yillar avlodining aksariyati o'z qurbi idroki yetganicha uddaladi. Zero, tasvirning jonliligi esselashib borayotgan har qanday janr tabiati mutassil rivojlanishda davom etadi. Uni o'qib ko'rgan mutaxassis hech ikkilanmasdan bizning qarashlarimizga qo'shilish tabiiy. Dunyoning o'zi yolg'izlik iskanjasida yashayotgan inson obrazini xilma-xil rakurslarda idrok qilish yo'lidan borayotgani hech bir mutaxassis yoki kitob o'quvchisiga sir emas.

Pafos – xarakterni individuallashtirish usuli sifatida. Hayotninng ikir-chikirlarigacha tasvirlash yozuvchi uslubiga xos xususiyatlardan biri desak, mubolag'a bo'lmaydi. Negaki, Tog'ay Murod jahon adabiyotini o'ttiz besh yoshlariga qadar sinchiklab o'rgandi. Bir qator tarjimalarni amalga oshirdi. Jahon antik adabiyoti-yu, zamonaviy nasr badiiyatidan boxabar bo'lishlik har qachongidan ham o'z mevasini bera boshladi. Insoniyat yetib kelgan manzilu makonlarda, mafkuralashgan badiiy adabiyotning "tuzoq"da ushlab turilishi, yozuvchiga katta og'riqlarni keltirardi. Ana shu tamoyil Tog'ay Murodni konseptual jihatdan rivojlantirdi. Azim folklor an'analari puxta o'rganish, sintezlash. O'z uslubini yaratishni namoyon qildi. Buni teran tushunib yetgan adib – o'z mungli qo'shig'ni, dardini xalq og'zaki ijodi ohanglaridan topdi. Demak, izlanishlar uzviyligi sistembutunlik kasb etib, yagona estetik markazda uyushdi. Oymomoning mozor aylanishi ham irim-sirimlarning hamon qonimizga singib ketganligini izohlaydi:

"Oymomo mozor sig'indi. To'lib-toshib sig'indi. Qon-tani bilan sig'indi. Yod bo'lib qolmish nolasini naqorat qildi:

– Aylanayin So'fi Olloyor hazratim, sadag'angiz ketayin hazratim, bir umr qulingiz bo'layin, hazratim, menga shafqat qiling...

Ko'pga bergan tirnoqni mendan-da ayamang. Men sizga nima gunoh qilib edimki, meni munchalik xoru zor qilasiz?

Bilib-bilmay ayb qilgan bo'lsam aybimdan o'ting, hazratim. Men bechoraga rahmingiz kelsin, So'fi Olloyor hazratim...

Ziyoratdan murod hosil bo'lmadi!"⁸⁸.

Irim-sirimlar bilan bog'liq folklor motivlari qissa badiiyatida o'ziga xos mavqe kasb etadi. Chunki badiiy pafos hamda ritmik bo'laklar nutqning sofligini dalolatlaydi. Monologik nutq va roviy birligi qahramon intellektini namoyon qiladi. Qissa arxitektonikasini go'zallashtiradi. Insoniy munosabatlar tig'izligini yuzaga chiqaradi. Hayot haqiqati va xalq og'zaki ijodining ajralmas halqasi ekanligini kafolatlaydi. Prof. D.To'rayev ta'biri bilan aytganda: "Adabiyotshunos M.Baxtining kuzatishicha, avtor pozitsiyasini aniqlashga yordam beruvchi g'oya monologik tipdagi asarlarda uch xil funksiyani ado etadi: birinchidan, u borliqni ko'rish-tushinishning naq o'zi va ifodalash prinsipi, ya'ni asardagi barcha elementlarning yagona mafkuraviy ruhda bo'lishi prinsipi, ikkinchidan, g'oya tasvirlangan materialning biron-bir darajadagi yaqqol yoki ongli natijasi tarzida berilishi mumkin, nihoyat, pozitsiyasida bevosita ifodalana oladi"⁸⁹. Binobarin, mana shu o'rinda badiiy g'oya psixologik tahlil qamrovini kuchaytiradi. Xarakterlarar kechadigan muhit va jamiyat suvrati yozuvchi maqsadlarini tartiblashtiradi. Shuningdek, g'oya va yozuvchi maqsadi syujet qismlariga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Qoplonning qishloqdan chiqishi va boshqa bir odamlar orasida yashashi, o'zini begonasirashi ham ma'lum ma'noda yozuvchining o'ziga xos dunyoqarashining poetik mahsuli ekanligi, badiiy to'qimaning reallashuviga olib keladi. Xuddi o'quvchi o'sha voqea ishtirokchisiga aylanib qolishi tabiiy bir holat bo'lib yuzaga chiqadi. Ayniqsa, tok ishlashi, odamlarning dardiga darmon bo'lishi, soddalik, beg'uborlik

⁸⁸ O'sha qissa, -B.67.

⁸⁹ To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat masalasi. -T., Universitet. 2001. -B. 42.

nashidasi o'laroq, Qoplonga kuch va g'ayrat, iztiroblarini bir dam bo'lsin unutishga imkon beradi:

“Otamiz sahar mahali, otamizni uyg'otdi.

Otamiz bozor otlandi.

Onamiz zim-ziyo olamga boqdi...

Oy hali tug'madi. Shu bois, olam zimiston bo'ldi.

Onamiz oy tug'ajak tarafga qarab turdi-turdi-da...

O'zini oyga mengzadi, taqdirini olamga mengzadi!

“Oy-da mendayin tug'madi. Olam-da taqdirimdayin zim-ziyo bo'ldi...” deya o'ksidi.

Onamiz otamiz bilan xo'shlashdi.

– Mayli, xush borsin, xush kelsin, – dedi.

Otamiz zim-ziyoga singib ketdi.

Onamiz darvoza qirrasiga peshonasini qo'ydi.

O'ksib-o'ksib yig'ladi...

Ko'chada echki ma'radi.

Onamiz qayrilib qaradi.

Echkilari ko'chaga tizilib chiqdi.

Onamiz echkilarni ichkari qaytardi. Darvozani ichkaridan zanjirladi. Zanjirdan cho'p o'tqazdi.

Supaga kelib o'tirdi. Peshanasini tizalariga qo'ydi.

Tag'in yig'ladi...”⁹⁰.

Qissadagi eng kulminatsion nuqtalardan biri yig'i bilan bog'liq tasvirlarda ko'zga tashlanadi. Chunki yig'i – orqali odam o'z dardni aritadi. Bu yig'i shodlik yig'isi emas, aksincha mozoru bozorlarni ham aylanib, taskin topmagan Oymomoning yig'isidir. Qoplonning sabru toqatiga tahsin aytmay ilojimiz yo'q. Agar ularning oralarida boshqa birov bo'lganida, allaqachon ikki qalb ikki tarafga burilib ketgan bo'larmidi? Tog'ay Murod ana shu konsepsiyani, bir-biriga ishonch tuyg'usini reallashtiradi. Yozuvchiga katta umuminsoniy motivlarni bergan ham xalq og'zaki ijodining yorqin janrlari desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hech qachon hayotidan nolimagan Qoplon va

⁹⁰ O'sha qissa, -B.143.

Oymomoning sabru bardoshi oldida – o'zbeklarga haykal qo'yaman degan yozuvchining butun umr talpinib o'tgan ideali bo'lsa, ajabmas!

“Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati”da Pafos (gr. Pathos – hissiyot, ehtiros so'zidan) jo'shqinlik. Asar pafosi – yozuvchini maftun etadigan va butun asarga singib ketgan g'oya, his va hayajonldadir. Pafos bilan yozilgan asar deganda xuddi shuni anglash lozim. V.G.Belinskiy, badiiy asarni o'rganish va tahlil etishda, hammadan ham avval undagi pafosni belgilab olish ma'qul, deb hisoblaydi. Pafosli nutq jo'shqin, hayajonli nutqdir”⁹¹. Darhaqiqat. Tog'ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” qissasida ana shunday hayajonli nutq o'z tajassumini topgan.

Pafos haqida shuni qayd etish joizki, u asarda butun boshli voqelikni o'zida aks ettirish yo'sinida namoyon bo'la boradi. O'quvchini notanish bir hayot manzarasi bilan tanishtirish bobida yozuvchi hech ikkilanishsiz qadam tashlaydi. “Yolg'izlik”ni bir maxrajda aks ettirishda pafos benihoya katta vazifa bajaradi. Prof. D.Quronov “Gegel estetikasida pafos juda muhim o'rin tutadi, u san'atning o'zagi, “san'at saltanati”ning asosi sifatida talqin qilinadi. Hegelga ko'ra, pafos inson mohiyatini tashkil etuvchi obyektiv mavjudlik, qalbni harakatlantiruvchi qudratli kuch bo'lib, ijodkor o'z asarida uni ifodalashni maqsad qiladi, ya'ni muayyan pafosni ifodalash san'at asarining muaddaosi, ijodning motividir. Shu asosda Hegel ijodga turtki beruvchi motivlar, pafos ko'rinishlari sifatida “oila”, vatan, davlat, cherkov, shon-sharaf, do'stlik, g'urur, nomus, muhabbat” kabilarni ko'rsatadi. Hegel ta'rifidagi pafos ko'proq asar personajlari bilan bog'liq bo'lsa, V.Belinskiy uni ijodkor shaxsi bilan bog'laydi”⁹².

Qissadagi o'lim tasvirida ham, farzand ko'rish istagida folu mozorlar oralab yurishlarida ham Qoplon va Oymomoning ichki staklari bajo bo'lmadi. Psixologiyada shunday instinkt borki,

⁹¹ Homidiy H., Abdullayeva Sh., Ibrohimova S. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. –T: “O'qituvchi”. 1967. –B.162.

⁹² Quronov D. va boshq. Adabiyotshunoslik lug'ati. –T: “Akademnashr”. 2013. –B, 220.

Yozuvchi buni o'z ko'zi bilan ko'rgandek o'quvchiga tanishtiradi. Badiiy to'qima shiddati inson ruhiyatidagi ajib evrilishlarni idroklashga imkon beradi. Mana shu konsepsiya "Oydinda yurgan odamlar" asarida yangicha mohiyatga aylanadi. Demak, hayotning har bir mo'jizasi – Allohning inoyati bilan sodir bo'lishiga inontirishdir. Yozuvchi asar boshidan –oxiriga qadar ana shu konsepsiyani darajalaydi.

Xulosa shuki, Tog'ay Murod hayotning mayda detallariga qadar jonlantirishga ahd qilgan adiblardandir. Uning tasvirlarida folklorzimlar jahon va o'zbek xalqlariga xos maishiy mdaniyatdan, umuminsoniy qadriyatlargacha qamrab oladi. Qisqalik, lo'ndalik hamda ritmning ziddiyatli tovlanishlarida badiiylik qiymati yanada ortib boradi. Qoplon va Oymomoning sirli hayoti, o'z o'quvchisini befarq qoldirmaydi. Yig'i va kulgi orasidagi hayot konsepsiyasi asar qahramonlarining botiniy olamini katta umumlashmalar bilan ochib berishga xizmat qiladi. Farzand dog'ida bir umr iztirob chekkan er va xotin taqdiri milliy qissachilikda katta bir sahifani ochib bera oldi. Buning zahirida xalqimizning urf-odatlar-yu, yashash tarzi o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Mana shu tamoyil "Oydinda yurgan odamlar" poetikasini chamalashga imkon beradi. Hayotning murakkabligi, oilaviy muammolar tizimli talqini qissa modusini yanada qiymatlashtiradi. Zero, kuzatish va tahlillar shunday xulosaga kelishga asos bo'lmoqda.

BOB BO'YICHA XULOSA

O'zbek rus qissalarida folklorzimlarning qo'llanilishi bo'yicha olib borgan ikkinchi bob bo'yicha quyidagi xulosaga kelindi.

1. F.Dostoyevskiyning "Oydin tunlar" qissasidagi tun obrazi asarning sentimental kayfiyatda bitilganini to'laqonli dalolatlaydi. Yozuvchining ijodiy usuli o'zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayev va U.Hamdami badiiy izlanishlarida yaqqol bo'y ko'rsatgan. Binobarin, Sh.Xolmirzayevning asarda visolsiz ishq haqida so'z borsa,

U.Hamdanning ijodida butun jamiyat manzaralari qamrab olinadi. Har ikki asar ham o'z davrida yozilganligi bilan qadrlidir.

2. XX asrning 70-yillarida kirib kelgan yozuvchi hayoti va ijodining shakllanish manerasini ikki qismda ko'rish mumkin, birinchisi o'zbek xalq og'zaki ijodini teran o'rganish, ikkinchisi Moskva dorilfununida jahon adabiyoti namunalari bilan yaqindan tanishish imkonining mavjudligi. Ayni shu izlanishlar yozuvchining 80-yillarga qadar yozgan asarlarida shakllangan dunyoqarashida katta g'oyalarning badiiy ifodasiga keng imkon beradi. Dunyo adabiyotidan boxabarlik inson konsepsiyasini yanada murakkablashtiradi. Demak, yozuvchi hayotining ajralmas qismi, Surxon koloritini, ayniqsa, folklor ijodidan ilhomlanishni dalolatlaydi.

3. "Uslub – bu odam", - deganida Gyote ijodkor hayoti va haqiqatining mahsulini tushuntirgan bo'lsa, ajabmas. Chunki uslubda g'oya ham, shakl ham, mazmun ham, syujet ham birlashadi. Tog'ay Murod – qo'shiqlarida azim qadriyatlar jilvasini namoyon eta oldi. Odamlarning dardu tashkishini yaqindan his qilish, ijodkorga katta kuch berdi. Dunyo adabiyotining ko'plab maktablaridan oziqlantirdi. Bular "Oydinda yurgan odamlar" qissasida ham o'ziga xos tarzda yuzaga chiqdi desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

4. Qissa arxitektonikasidagi ritmik kriteriylar pafos darajasiga ko'tarildi. Mana shu konsepsiya Qoplon va Oymomo obrazlarida yanada tiniqlashadi. Yozuvchi farzandsizlik dog'ida qolgan er-xotinning hayoti va yashash tarzini xilma-xil epizodlarda yuzaga chiqaradi. Ayni damda, odamlarning ularga bo'lgan munosabatida ham, sabru toqat qilishini namoyon qiladi. Yozuvchi Oyning – momoga, termulishi, tirnoqqa zor onaning faryodlari kabi tushunish lozim. Zero, yangi tug'ilgan oy tirnoq kabidir. Biroq u ko'rinish bermaydi. Yozuvchi asar davomida ana shu konsepsiyaga amal qilganligida seziladi.

UMUMIY XULOSA

Har qanday janr o'zining tadrijiy rivojlanish, shakllanish va taraqqiy etish yo'sinlariga ega. O'zbek qissachiligining azim tarixi folklor an'alariga, eposning taraqqiy etgan davrlariga borib tutashsa-da, rosmiyan yangi qiyofada poetik namoyon bo'lishi XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlanib, XX asrning 20-yillariga to'g'ri keladi. Biz olib borgan o'zbek va rus qissachiligida badiiy psixologizm hamda ijodkor fitrati konsepsiyasini o'rganib quyidagi xulosaga keldik:

1. Qissa janri genezisi epik turning o'rta shakli bo'lgani bois, XX asrning tongotarida A.Qodiriy, Cho'lpon, Oybek, G'.G'ulom, A.Qahhor singari yozuvchilar ijodida o'ziga xos tarzda yuzaga keldi. A.Qodiriyning "Obid ketmon", A.Qahhorning "O'tmishdan ertaklar", Oybekning "Bolalik", G'.G'ulomning "Shum bola", Sh.Xolmirzayevning "O'n sakkizga kirmagan kim bor?" nomli qissalarda badiiy psixologizm, asarning tuzilishi, syujet liniyalari barchasi jahon adabiyotining ta'sirida bo'y ko'rsatganligini, lekin o'zbek milliy mentalitetiga xos fazilatlar asar arxitektonikasida zuhur etilganini ko'rmiz. Mana shu obyektga jalb qilingan qissalar struktursida davrning ilg'or manzarasi bilan birga zamonning og'riqli muammolari ham o'z ifodasini topgan. To'g'ri, ayrim qissalar badiiylik jihatdan uncha yuksak bo'lmasligi mumkin, shunday bo'lsa-da, inson shaxsini kashf qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Lev Tolstoy, Feodor Dostoyevskiy, Jek London, Ivan Turgenev va Anton Chexov poetik izlanishlarida badiiy psixologizmning shakllari va rivojlanish omillarini o'zbek yozuvchilari Sh.Xolmirzayevning 60-yillarda yozgan qator asarlari, N.Eshonqulning 90-yillardagi qissalari, U.Hamdani, I.Sultonning keyingi yilladagi izlanishlarida hamyaqqol namoyon bo'lgan. Ayniqsa, qissaning esselashuv tamoyiliga o'tish bosqichlari "Iqrornoma" va "O'tmishdan ertaklar" asarlarida ko'zga tashlanadi. Shuni qayd etish lozimki, mavjud qissalar ma'lum ma'noda, davr

manzarasini aks ettirgani bilan poetik nuqtai nazardan ancha baqquvat asarlar sanaladi.

3. Lev Tolstoyning “Iqrornoma” asarida inson ruhiyatining hali hech bir yozuvchi anglab, boshidan o’tkazmagan qirralari yorqin ranglarda namoyon bo’ladi. Ayniqsa, din va e’tiqod, olam va odam muammosi, Allohni tanishga bo’lgan ichki ehtiyoj, xatolardan chiqarilgan xulosalar, mifologik kiritma rivoyatlar negizida talqin qilingan. Mana shu asar o’zbek yozuvchilari izlanishlariga ham adabiy ta’siri kuchliligi sezilib turadi. Tasvirdagi essegga xos fazilatlar, ruhiy-falsafiy taranglik, xarakterni ochib berish yo’sini shular jumlasidandir.

4. L.Tolstoyning “Iblis” qissasidagi mifologik talqin Yevgeniy xarakterini o’z yuragidan o’tkazib tasvirlagani bejiz emas. Muhabbatning sehrli ovozi bosh qahramonni jiddiy sinovdan o’tkazadi. Bu xususiyat N.Eshonqulning “Tun panjaralari” qissasidagi Robiya obrazini yodimizga soladi. To’g’ri, N.Eshonqul voqelikni ramziy-majoziy shaklda talqin qiladi. L.Tolstoyning iqrorida ayni shu jihatlarning realistik ifodasini uchratamiz.

5. F.Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” qissasidagi tun obrazi asarning sentimental kayfiyatda bitilganini to’laqonli dalolatlaydi. Yozuvchining ijodiy usuli o’zbek adabiyotida Sh.Xolmirzayev va U.Hamdam badiiy izlanishlarida yaqqol bo’y ko’rsatgan. Binobarin, Sh.Xolmirzayevning asarda visolsiz ishq haqida so’z borsa, U.Hamdamning ijodida butun jamiyat manzaralari qamrab olinadi. Har ikki asar ham o’z davrida yozilganligi bilan qadrlidir.

6. L.Tolstoyning “Iqrornoma” asarida badiiy detal, mif va rivoyatlar yozuvchining bola tasavvurlaridan buyon rivojlanib kelayotgan “hayot nima” degan savolga javob tariqasida yuzaga chiqadi. Shuning uchun ham yozuvchi tavba, tazarru va iltijo motivlariga bot-bot murojaat qiladi. Ayniqsa, Sulaymon payg’ambar va Shopengauerning falsafiy nazariyasini o’z qarashlari bilan rivojlantiradi. Shunday bo’lsa-da, iqrorlik tuyg’usidan ko’ngli

to'lmaydi. Mana shu jihatlar yozuvchining butun boshli ijodida qizil ip bo'lib o'tib turadi.

7. Tadqiqotimizga olgan har bir asar o'ziga xos bir olam. Uning yachratilish davri, zamoni va makoni turlicha. Biroq ushbu asarlarni birlashtirib turadigan umumiy bir jihat mavjud: tasvirdagi polifonizm, monologik nutq va sentimentallik bilan belgilanadi. Negaki, yakka qalbning haroratli tuyg'ulari tragik talqin bilan lirik tasvirni uyg'unlashtirib yuboradi. Mana shu buyoqdorlik badiiy psixologizmning ijodkor fitratiszi ro'y bermasligini dalolatlaydi.

8. O'zbek va rus qissachiligida ijodkorning ruhiy olami bilan konseptual qarashlari jahon adabiyotining ilg'or an'analarini o'zida sintezlashi yo'sinida olib borgan tajribasi xarakterlidir. Dunyo adabiyotida tan olingan F.Kafka, A.Kamyu, J.Joys, M.Prust, Borxes kabi qator yozuvchilarning uslubiy-shakliy izlanishlari modifikatsion o'ziga xoslik tomon silchigan. L.Tolstoyning – bola tasavvuri, bolalik fenomeni o'zbek adiblarining asarlarida ham alohida tasvir ekzistensiyasini barqarorlashtirgan. Mavjud streotiplar semiotik metaforani tartiblashtiradi. Ramziy-majoziy talqin ildizlari Yevropa adabiyoti va mdaniyatidan ham oziqlanganini asoslaydi.

9. O'zbek va rus qissachiligida kompozitsion uyg'unlikni ta'minlashga qaratilgan badiiy xronotopning o'rni XX asr adabiyoti haqida to'laqonli tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Negaki, inson o'zining davri va zamoni bilan hamnafas yashaydi. Uning og'riqlarini, iztiroblarini, muammolarini teran idroklay oladi. Mana shu jihatlar yozuvchining ijodiy konsepsiyasining murakkablik tomon o'sishini taqozolaydi. To'g'ri, tasvirdagi o'rinsiz naqoratlar N.Eshonqul, I.Sulton, U.Hamdamning asarlarida uchraydi. F.Dostoyevskiyning dilalogik nazariyasi ayrim o'rinlarda bosh qahramon bilan qiz muloqotiga raxna soladi. Lekin yozuvchi har qanday vaziyatda o'z iste'dodini namoyon qila olganligi quvonarli holdir.

Umuman, o'zbek va rus qissachiligida badiiy til, mushtaraklik, psixologizm hamda ijodkor fitrati davr muammolarini ich-ichidan turib yoritish barobarida, janrning konseptual taraqqiyotini ajratib olishda muhim atribut vazifasini o'taydi. Binobarin, har bir adib o'z oldidagi g'oyani va maqsadni amalga oshiradi. Bu maqsad ijodiy konsepsiyasini yuzaga chiqaradi. Janrning tashqi va ichki taraqqiyot prinsiplariga oydinlik kiritishga imkon beradi. Zero, har qanday janr yozuvchining poetik mahorati va ijodiy izlanishlari mahsuli ekanligini unutmaslik lozim.

GLOSSARIY

Adabiy jarayon – ma’lum davrda adabiyot rivojiga ta’sir ko’rsatgan ijodiy, ijtimoiy va estetik omillar majmui.

Adabiy an’ana – avvalgi davr adabiyotida shakllangan uslub, janr va g’oyalarning keyingi ijodkorlar tomonidan davom ettirilishi.

Adabiy ta’sir – bir yozuvchi yoki adabiy maktabning boshqa yozuvchilar ijodiga ko’rsatgan ta’siri.

Adabiy maktab – umumiy estetik qarash va uslubga ega ijodkorlar guruhi.

Adabiy tip – ma’lum ijtimoiy qatlam yoki davrga xos umumlashgan obraz.

Adabiy talqin – badiiy asarning mazmunini ilmiy yoki estetik jihatdan sharhlash.

Analiz – badiiy asarni uning tarkibiy qismlariga ajratib o’rganish jarayoni.

Interpretatsiya – badiiy matnni turli nazariy yondashuvlar asosida tushuntirish va izohlash.

Poetik struktura – badiiy asarning ichki tuzilishi va elementlar tizimi.

Badiiy detal – obraz yoki voqeani ochib berishga xizmat qiluvchi kichik, ammo muhim tasviriy unsur.

Badiiy umumlashtirish – muayyan hodisa yoki obraz orqali kengroq hayotiy haqiqatni ifodalash.

Badiiy tasvir vositalari – metafora, epitet, tashbeh kabi obrazli ifoda usullari.

Metafora – bir predmet yoki hodisani boshqa predmet orqali o’xshatish asosida tasvirlash usuli.

Epitet – predmet yoki hodisaning muhim belgisini obrazli tarzda ifodalovchi badiiy aniqlovchi.

Tashbeh – bir predmet yoki hodisani boshqa predmet bilan qiyoslab tasvirlash.

Simvol (ramz) – ma’lum g’oya yoki tushunchani ifodalovchi obrazli belgi.

Motiv – badiiy asarda takrorlanib turadigan g'oyaviy yoki tasviriy unsur.

Konflikt – badiiy asardagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlar tizimi.

Kulminatsiya – syujet rivojining eng yuqori keskinlik nuqtasi.

Ekspozitsiya – asarda voqealar boshlanishidan oldingi holatni tasvirlovchi qism.

Yechim – syujetdagi ziddiyatlarning hal qilinishi.

Fabula – voqealarning tabiiy, xronologik ketma-ketligi.

Narrativ – voqeani hikoya qilish usuli yoki hikoya strukturasi umumiy modeli.

Qahramon – badiiy asardagi asosiy obrazlardan biri.

Antagonist – bosh qahramonga qarama-qarshi turuvchi obraz.

Estetik ideal – yozuvchi tasavvuridagi mukammal inson yoki jamiyat modeli.

Falsafiy-estetik qarash – yozuvchining hayot, inson va san'at haqidagi falsafiy tasavvurlari.

Ruhiy iqlim – asarda tasvirlangan insonlarning ichki ruhiy holati va muhit.

Uslubiy rang-baranglik – yozuvchining turli tasviriy vositalar va uslublardan foydalanishi.

Poetik tizim – badiiy asarning g'oya, obraz, til va kompozitsiya birliklaridan tashkil topgan estetik butunligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. SIYOSIY ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13 maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-Farmoni. <https://lex.uz/docs/2968200>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-4958-Farmoni. <https://kun.uz/61238211?q=%2Fuz%2F61238211>.
3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom hamda shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. –B.78.
4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. 360 b.
5. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T.: O'zbekiston, 2017. –486 b.
6. Mirziyoyev Sh. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora–Tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-Qarori. <https://lex.uz/docs/3171590>.
8. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 24 iyuldagi "Samarqand davlat universiteti faoliyatini yanada takomillashtirish chora–Tadbirlari to'g'risida"gi 571-son Qarori. <https://lex.uz/docs/3833141>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 15 iyun kuni Toshkent shahrida ytkazilgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliğini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/649>

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017 yil 19 sentabr kuni AQShda bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so'zlagan nutqidan. <https://uza.uz/uz/posts/zbekiston-prezidenti-shavkat-mirziyeev-bmt-bosh-assambleyasi-20-09-2017>

II. ILMIY-NAZARIY ADABIYOTLAR

11. Aliyev A. Ma'naviyat, qadriyat va badiiyat. – Toshkent: Akademiya, 2000. – 630 b.

12. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash chanqog'i. – Toshkent: Falsafa va huquq, 2007. – 278 b.

13. Alimasov V. Falsafa yohud fikrlash san'ati. – Toshkent: Noshir, 2008. – 255 b.

14. Antyxov A.V. Russkaya memuarno-avtobiograficheskaya literatura XVIII v.: Genezis, janrovo-vidovoye mnogoobraziye, poetikatema dissertatsii i avtoreferata po VAK RF 10.01.01, doktor filologicheskix nauk. 2003 Bryansk. –S. 7.

15. Azizxo'jayev R. Eshonguzar mahallasida. Abdulla Qodiriy haqida xotiralar. –T.: "Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti", 2004. –B.17.

16. Anastasyev N. Obnovleniye traditsii. – M.: Sov. pisatel, 1984. – 349 s.

17. Andreyev L.G. Sovremennaya literatura Fransii. 60-ye godi. – M.: Izd-vo MGU, 1977. – 366 s.

18. Aristotel. Poetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1980. – 149 b.

19. Abdulla Sher. Abadiyat va umr. –T.:Faylasuflar, 2017.- B.135.

20. Baxtin M. Formi vremeni i xranotopa v romane (Ocherki po istoricheskoy poetiki) / V kn.: Baxtin M. Voprosi literaturi i estetiki.–M.: Xudojestvennaya literatura, 1975, str. 234.

21. Baranov V.I, Bacharov A.G, Surovsev Y.I. Literaturno-xudojestvennaya kritika. – M.: Visshaya shkola, 1982. – 206 s.

22. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – 560 b.
23. Borev Y. Estetika. Izd. 3. – M.: Politizdat. 1980. – 399 s.
24. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T.: Akademnashr, 2015. –B.114.
25. Baxtin M. Estetika slovesnogo tvorchestvo. Isskustvo, –M.: 1979. –S.18-23.
26. Ginzburg L. Y. O pishologicheskoy proze. – L.: Xudojestvennaya literatura, 1977. – 449 s.
27. Dneprov V.D. Cherti romana XX veka. – M.: -L.: Sov. pisatel, 1965. –247 s.
28. Jo‘raqulov U. Hududsiz jilva. –Toshkent: Fan, 2006. – 203 b.
29. Jo‘rayev T. Ong oqimi modern. – Farg‘ona, 2009. – 203 b.
30. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika masalalari. –T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015. –B.78.
31. Zatonskiy D.V. Nashe vremya. – M.: Sov. pisatel, 1979. – 430 s.
32. Zatonskiy D.V. Modernizm i postmodernizm. – Folio-Ast, 2000. – 255 s.
33. Zarubejnaya estetika i teoriya literaturi XIX- XX vv. Traktati, stati, esse. – M.: Izd-vo Moskovskogo universiteta, 1987. – 510 s.
34. Zinchenko V.G, Zusman V.G, Kirnoze Z.I. Metodi izucheniya literaturi. Sistemniy podxod. Uchebnoye posobiye. – M.: Flikto, Nauka, 2002. – 200 s.
35. Il’in I. Poststrukturalizm. Dekonstruktivizm. Postmodernizm. – M., 1996.
36. Isomiddinov Z. Ikki ayol. O‘zbek adabiy tanqidi. –T.: Turon-iqbol, 2011. –B.379.
37. Yo‘ldoshev Q. Yoniq so‘z. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. – 546 b.

38. Yesin A.B. Psixologizm russkoy klassicheskoy literaturi. – M.: Prosvesheniye, 1988.
39. Yoqubov I. Badiiy-estetik so‘z sehri. –Toshkent: TVDPU., 2011. 654 b.
40. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. Birinchi kitob. – Toshkent: O‘zbekiston, 2008. – 533 b.
41. Karimov H. Istiqlol davri nasri. – Toshkent: Zarqalam, 2007. – 96 b.
42. Karimov B. Ruhiyat alifbosi. –Toshkent: “G‘.G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at” nashriyoti, 2016. –423 b.
43. Karimov H. O‘zbek romanlarining taraqqiyot tamoyillari. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2008. – 122 b.
44. Karimov B. Abdulla Qodiriy fenomeni. –T: “Info Capital Group”, 2019. –B.12.
45. Kerimov D.A. Filosofskoye osnovani ye politika pravovix issledovaniy. – M.: Misl, 1988.
46. Kulakova I. S Filosofiya i iskusstva modernizma. – M.: Izd-vo Politizdat, 1980. – 271 s.
47. Polyakov M. Voprosi poetiki i xudojestvennoy semantiki. – M.: Sovetskiy pisatel, 1986. -S.5.
48. Parandovskiy. So‘z kimyosi. Toshkent: Ma’naviyat, 2010. – B 247.
49. Mustaqillik davri adabiyoti. – Toshkent: Nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2006. – 287 b.
50. Mirqosimova M., Rustamova M. Janr va mahorat. – Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 69 b.
51. Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2005. – 418 b.
52. Normatov U. Umidbaxsh tamoyillar. – Toshkent: Ma’naviyat, 2000. – 109 b.
53. Normatov U. Tafakkur yog‘dusi. – Toshkent: 2005. – 119 b.

54. Normatov U. Ustoz ibratlari. –Toshkent: Milliy kutubxona, 2007. – 126 b.
55. Normatov.U. Ijod sehri. – Toshkent: Sharq, 2007. – 351 b.
56. Normatov U. Tanlangan asarlar. –T.: Sharq, 2021. –B.140.
57. Normatov U. Nafosat gurunglari. – Toshkent: Muharrir, 2010. – 385b.
58. Nurmatov M. Tanqid va estetika. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1976. – 169 b.
59. Nosirov O'. Ijodkor shaxs, badiiy uslub, avtor obrazi. -T.: Fan, 1981. –B.75.
60. Nurjanov P. G'arezsizlik d'eo'irinde qaraqalpaq prozasi. – N'ekis. Bilim, 2003. –B. 76.
61. Nazar Eshonqul. Ijod falsafasi. –T.: Akademnashr, 2018. – B. 50.
62. Rasulov A. Tanqid, talqin, baholash. – Toshkent: Fan, 2006. – 231 b.
63. Rasulov A. Badiiylik – bezavol yangilik. – Toshkent: Sharq, 2007. – 334 b.
64. Rasulov A. Betakror o'zlik. – Toshkent: Mumtoz so'z, 2009. – 286 b.
65. Rahimjon Rahmat. “Bir yorug'lik izlayman hamon...” –T.: Akademnashr, 2010. –B.8.
66. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – Toshkent: Bookmany print, 2004. – 127 b.
67. Solijonov Y. Nutq va uslub. –Toshkent: “Cho'lpon” nashriyoti, 2002.
68. Solijonov Y. Haqiqatning sinchkov ko'zlari. – Toshkent: “A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti, 2009. – 228 b.
69. Solijonov Y. Ko'zgudagi hayot. –Toshkent: “A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi” nashriyoti, 2013. – 148 b.
70. Solijonov Y. Lirika latofati, nasrning nazokati. – Toshkent: “Adabiyot uchqunlari”, 2018. – 108 b.

71. Tolstoy N.L. O literature. "Sovetskoy pisatel", –M., 1956. S.287.
72. To'rayev D. O'zbek romanlarida badiiy tafakkur va mahorat muammosi. – Toshkent: Universitet, 2001. –166 b.
73. To'rayev D. Hayotiy materialdan badiiy syujetga. –T.: Turon-Iqbol, 2011. –B.324.
74. Tartakovskiy A.G. Russkaya memuaristika XVII – pervoy polovine XIX v. –M, 1991.-286 s.
75. Umurov H. Tahlil san'ati. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1978. – 143 b.
76. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Sharq, 2002. – 252 b
77. Umurov H. Adabiyotshunoslik nazariyasi. –Toshkent: "A.Qodiriy nomidagi xalq merosi" nashriyoti. 2004. 250 b.
78. Umurov H. Saylanma. –Toshkent: Fan, 2007. 1– jild. –205 b.
79. Umurov H. Saylanma. // Adabiy-tanqidiy tadqiqotlar. 2 – jild. – Toshkent: Fan, 2007. – 206 b.
80. Umurov H. Saylanma. // Xotiralar, qatralar, saboqlar, hajvlar. 3 – jild . –Toshkent: Fan, 2007. – 204 b.
81. Umurov H.Saylanma. // Ehtiyoj tafti. 5 – jild. – Samarqand: 2011. – 214 b.
82. Urnov D.M. Literaturnoye proizvedeniye v otsenko anglo-amerikanskoy "novoy kritiki". – M.: Nauka, 1982. – 262 s.
83. Uellik R., Uorren O. Teoriya literaturi. – M.: Progress, 1978. –325 s.
84. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari. –T.: FAN, 2007. – B.94.

V. INTERNET MANZILLARI

85. <http://www.sharqyulduzi.uz>
86. <http://www.ulugbekhamdam.uz>
87. <http://www.quronov.narod.ru>

88. <http://www.ziyonet.uz>
89. <http://www.ziyouz.com>
90. <http://www.ijod.uz>
91. <http://www.saviya.uz>

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
BIRINCHI BOB: QISSA JANRINING SHAKLLANISH BOSQICHLARI HAMDA TARAQQIYOT YO'NALISHLARI.....	11
1.1. Qissada badiiy til va yozuvchi uslubi o'ziga xosligi.....	11
1.2. O'zbek qissalarining adabiy ta'sir doirasida rivojlanishi.....	29
BOB BO'YICHA XULOSA.....	52
IKKINCHI BOB: QISSADA SYUJET BILAN BOG'LIQ KOMPONENTLAR DINAMIKASI.....	54
2.1. Qissa badiiyatini ta'minlovchi unsular.....	54
2.2. Qissa arixtektonikasida ritm va pafos talqini.....	80
BOB BO'YICHA XULOSA.....	99
UMUMIY XULOSA.....	101
GLOSSARIY.....	105
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	107

QAYDLAR UCHUN

ERGASHEV ASLBEK HAMZA O'G'LI

O'ZBEK VA RUS ADABIYOTINING QISSALARIDA BADIY TIL

Monografiya

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquziyeva

Musahhih: M. Yunusova

Sahifalovchi: D. Toshboltayev

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Bosishga ruxsat etildi 07.05.2026 y.

Bichimi 60x84 1/16. Ofset qog'ozi. "Cambria"
garnituras. Hisob-nashr tabog'i. 7,25.

Adadi 100 dona. Buyurtma № 56.

«ZEBO PRINTS» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

+998 (94) 673-66-56, +998 (97) 017-01-01